

SAYFULLO TURSUNOV  
BOBONAZAR MURTAZOYEV

# MILLIY MA'NAVIYAT VA BARKAMOL AVLOD TARBIYASI



TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2013

87.6(59) - МАЗИАБИЛ

УДК: 37.017.92(575.1)

ББК 87.60(5О')

Т 91

Taqrizchilar: **J. OMONTURDIYEV**, filologiya fanlari nomzodi, professor;  
**T. PARDAYEV**, tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Ushbu risolada ajdoddalar meros qolgan milliy qadriyatlarimiz, o'tmish an'analarimiz bag'rida yo'g'rilgan boy ma'naviyatimizga xos odob-axloq va ularga oid hikmatlar durdonasi, shu durdonalarning ijtimoiy-ma'naviy ildizlari, ularning hayotiy negizlari to'g'risida fikr yuritiladi. Mustaqil yurt tarixi, ko'hna zaminda ajdodlarimiz yaratib qoldirgan moddiy-ma'naviy merosni tiklash, o'rganish va yanada kengroq targ'ib etish asosida barkamol avlodga munosib tarbiya hikmatlarini singdirish g'oyasi mujassam etilishiga harakat qilinadi.

10 40853  
28

ISBN 978-9943-01-886-0

2013/33

A 2147

Alisher Navoiy

nomidagi

O'zbekiston MK

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2013

---

## KIRISH

O'zbekistonda mustaqillik yillari moddiy-ma'naviy mada-niyatni tiklash va o'rganish bo'yicha muhim ahamiyatga ega ishlar qilinib, millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda ulkan yutuqlarga erishilmoqda. Eng muhi-mi, bu yutuqlarga erishishda sharqona odob-axloq sohasidagi ma'naviy boyliklar, ushbu masalada amaliy ishlarni amalga oshirgan buyuk mutafakkirlarimizning ibratlari hikmatlari, pand-nasihatlari, o'git-ibratlari katta ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy ma'naviyatimizda hikmatlar durdonasiga xos odob-axloq ibratlari asrlar osha xalq ma'naviyatida mustahkamlanib, har bir inson, oila, mahalla, qishloq, shahar va davlatlar taqdirini hal qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Xalq hikmatlari inson ongi yaralgandan buyon, inson shuuri tadrijan rivoj topib, takomillashib, bir-birini to'ldirib, ijtimoiy turmush tar-zidagi voqe-hodisalarini kuzatib, undan xulosa chiqarib, yangi avlod taqdiriga foydali bo'lgan hayot tajribalarini turmushga tatbiq etish jarayoni mukammallashib bordi. Mustaqillik tu-fayli xalqimizning ma'naviy madaniyati tiklandi, o'tmish aj-dodlarimizning hikmatlarini o'rganish, undan xulosalar chiqarish, oila, farzand, mahalla, yurt tinchligi uchun hushyor, ogoh bo'lish, bir noaniq yoki o'ylamay ishlatilgan bиргина со'з kishilar o'rtasida tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi mum-kinligini his etish hamda buning oldini olishda hikmatlarning ahamiyati nihoyatda katta ekanligini unutmashligimiz zarur. Ushbu masalada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «Endilikda milliy madaniyatni, uning ruhiy va ma'naviy qadriyatlarini tiklash bizning eng asosiy mafkuraviy vazifalarimizdan biri sifatida oldingi o'ringa chi-qishi kerak», degan fikrlari alohida ahamiyatga egadir.

Ushbu kitobda sharqona odob-axloqqa oid milliy-ma'-naviy hayat, uning jamiyat, davlat, xalq va oila oldidagi vazifasi haqida ajdodlar tomonidan aytilgan ibratli hikmatlarni, o'gitlarni, pand-nasihatlarni batafsilroq izohlashga harakat qilingan. Shuningdek, xalqimizning Vatanga munosabati, oila boshqarishga oid madaniyati hamda bozor odobi bilan bog'liq hikmatlar durdonasi jamlanganki, undan har bir insон o'z tafakkuri, shuurini boyitib olishi mumkin. Milliy ma'naviyatimizda hikmatlar durdonasiga xos odob-axloq bilan bog'liq allomalar hayoti, ijodi, ilmiy-ommabop asarlari hamda fikr-mulohazalaridan o'rinli foydalanilib, turmush tarzi, ijtimoiy hayatning hamma sohalari uchun ibratli bo'lgan hikmatlar jamlangandir.

Kitobda dunyo ilm ahlining ibratli fikr-mulohazalari, Qur'on karim oyatlari, suralari va Muhammad s.a.v. hadislari dan ham unumli istifoda etildi. Milliy ma'naviyatimizda hikmatlar durdonasi asosida odob-axloqqa oid fikrlarni yoritish jarayonida insonga xos nafs, boylik, kambag'allik, xudbinlik, manmanlik, qarzdorlik, sudxo'rlik va dushmanlikni keltirib chiqaradigan illatlar, ularning jirkanch oqibatlari hamda bar-taraf etish yo'llarini odob-axloq bilan hal qilish mumkinligiga oid ibratli hikmatlar tahlil qilingan. Kitobni qimmatli manbalar bilan boyitishda, yanada mazmunli va o'qimishli qilishda, kitobxonlar talab-ehtiyojlariga mos keltirish uchun dunyo xalqlarining ibratli hikmatlaridan, allomalar, olimlar va donishmandlarning sharqona odob-axloqqa oid o'gitlari, ibratli hayat tarzi hamda xalqimiz hayat tajribasidan kelib chiqib yaratilgan maqollar hamda hikmatli so'zlardan keng miqyosda foydalanildi.

---

## MA'NAVIYAT VA DUNYOQARASH

*Vatan ostonadan boshlanadi.*

Mustaqillikning dastlabki yillarda milliy ma'naviyatimizda odob-axloqni o'rganish va xalqimiz ongiga singdirish tufayli yosh avlodni tarbiyalash jarayonida katta natijalarga erishildi. Jumladan, o'zbek millati millat darajasiga ko'tarilguncha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonlarni bosib o'tib, o'ziga xos odob-axloq asosida milliy o'zligimizni anglab, milliy tuyg'ular ta'sirida avloddan-avlodga yangi hikmatlarni goldirib, ushbu axloqiy odoblar bilan dunyoning yetuk millatlari qatoridan joy oldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan **«millatimizning juda boy va murakkab tarixi, ma'naviy-axloqiy va falsafiy dunyoqarashi, muomala munosabatlaridagi o'ziga xos xususiyatlar va betakror yondoshishlar asrlar davomida xalq ongi, tafakkuri, xulq-atvori hamda urf-odatlariga singib, millatimizning o'zini namoyon etish tarziga aylanib ketgan jihatlari o'zbek millatining asosi»**, deb tahlil etishi milliy odob-axloqimizga bergen yuksak bahodir.

Ushbu muhim ahamiyatga ega bo'lgan tafakkur fikrida o'zbek xalqining noyob odob-axloqi hayot tajribalari asosida paydo bo'lganligi, urf-odatlarimiz hayot sinovlari natijasida o'zaro muomala, mehnat, vatanparvarlik, insonparvarlik, mardlik, jasorat, qo'shinchilik aloqalari ta'sirida shakllanganligi ta'kidlanadi. Xalqimizning asrlar osha turmush tajribalari, hayot tarzi asosida rivojlanib kelgan boy ma'naviy merosi, milliy qadriyatları, uning odob-axloqi davlat, jamiyat, rahbar, olimu-fozil, ota-oná, do'st-birodar, aka-uka, opa-singil, qo'nig'o'shni, mahalla, mehmon, elchilar, sayyohlar va boshqalarga munosabat jarayonida takomillashib, sayqallashib, hikmatlarga aylanib borgani bor haqiqatdir. Ana shu hikmatlarni qayta o'rganish, yig'ish, to'ldirish imkoniyati mustaqillik tufayli amalga oshirildi. O'zbek xalqi ana shu hikmatlarni asr-

lar osha boyitib, avloddan-avlodga meros sifatida o'tkazib, boshqa xalqlarning ma'naviy merosini ham o'zlarining hayotiy yo'llarida foydalanib, xalqlar o'rtasidagi o'zaro do'stlik va hamkorlikni mustahkamlab keldi. Ilk ajdodlarimizdan to hozirgi davrgacha o'tgan buyuk donishmandlar umrlarini ilmu fanga bag'ishlab, jahon kezib, dunyo-dunyo kitob o'qib olamdan ketar chog'i, men hayotdan hech narsa bilmay ketmoqdaman, deganlar. Ne ajab, hayot ilmini tugal anglamoqqa na-faqat bir inson umri, balki insonlar umri yetmaydi. Xalqimiz iyemon-e'tiqodga qat'iy amal qilib, yo'l yurib ketayotgan in-soqli odam bexosdan chuqurlikka toyib ketsa, o'rnidan turib, etak qoqib ketavermaydi. Men yiqlidim, boshqalar yiqlimasin, deb chuqurni tekislab qo'yadi, hech bo'lmasa, birorta tayoqni suqib, belgi qo'yib ketadi. Bu, ey yo'lovchi, ehtiyyot bo'l, bu yerda chuqur bor, ko'zingga qara, degan ishora bo'ladi. Bobolar hikmati ana o'sha tayoqdir.

Odamlar boshqalarini o'ylab bekilgan buloq ko'zini ocha-dilar, yangi ariqlar qaziydilar, ko'priklar quradilar, daraxt ekadilar, bog'-rog' barpo etadilar. Mendan keyin dunyoga keluvchilar tashnalik azobini ko'rmasinlar, ochlikdan, oftob tig'idan qiyalmasınlar, deya shunday qiladilar. Bobolar hikmati ana o'sha buloq, ana o'sha mevali daraxtlardir. Bir rivoyatda keltirilishicha, kunlardan bir kun Anishirvonilodil arkoni davlati bilan shahar va qishloqlarni aylanib yurganida, bir joydan o'tib ketayotganda munkaygan keksa chol yong'oq daraxti ekayotgan emish. Bu holdan hayron qolgan shoh ot jilovini tortib, cholga savol beribdi:

Ey chol, sen ekayotgan daraxt yigirma yilda hosilga kiradi, bundan muroding nima?

Men o'zim uchun emas, kelgusi avlodlar uchun ekayapman! – deb javob beribdi. Bu gap shohga qattiq ta'sir qilibdi va vazirga cholni yuz tillo tanga bilan siylashni buyuribdi. Shunda chol:

Mana, bir zumda hosil berdi! – debdi. To'lqinlanib ketgan shoh tag'in yuz tillo tanga berishni buyuribdi. Chol ushbu holatdan to'lqinlanib:

Bir zumda ikki karra hosilga kirdi! – debdi. Shoh uchinchi bor mukofotni takrorlashni buyurmoqchi bo'lganda vazir bu ahvolda xazinaga putur yetishini eslatib, shohni to'xtatgan ekan.

Odamlar masjid va madrasa quradilar. Yo'l solib, ko'prik qiladilar, karvonsaroylar tiklaydilar. O'zlaridan keyin keluvchilar ham iymonli, ilm-ma'rifatli bo'lsinlar deb, ellar, yurtlar o'rtasida yaxshi bordi-keldilar bo'lsin deb shunday qiladilar. Bobolar hikmati ana o'sha yo'l, ko'prik va karvonsaroylardir. Hazrat Mir Alisher Navoiy Hirot shahrida Injil anhori yoqalab o'tgan Xiyobon ko'chasi bo'ylab «Ixlosiya», «Nizomiya» «Shifoziya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi va yana qator madrasa, maktab, kutubxona, imorat, do'kon, ko'prik, hammom, ariq qurilishlariga shaxsan o'zi rahnamolik qiladi. Bularning bari Alisher Navoiyning shaxsiy jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladi.

Bobur «Boburnoma»da bir hodisani eslatadi: Navoiy muhr dorligi va amir(vazir)ligi uchun davlat g'aznasidan maosh olmas ekan, aksincha, xazina(g'azna)ga o'z hisobidan ko'p miqdorda mablag' peshkash qilib turar ekan. Hatto Alisher Navoiy mablag'i hisobidan qurdirgan madrasalarda dars beruvchi mudarrislarga maosh, tolibi ilmlarga esa oylik yordam puli ham berilib turilgan. Chunonchi, deylik, bir mudarrisning yillik maoshi bir ming ikki yuz oltin tanga bo'lgan holda, unga qo'shimcha ravishda arpa, bug'doy va boshqa narsalar berib turilgan. Har bosqichda tolibi ilmlar soni yigirma ikkita bo'lgan va ular o'zlashtirishiga qarab uch guruhga bo'lingan, ya'ni a'lo o'qiydiganlar oltita, yaxshiga o'qiydiganlar sak-kizta, o'rtacha o'qiydiganlar sakkizta. Shuningdek, ularga o'zlashtirishiga ko'ra yordam puli belgilangan, ya'ni a'lochi tolibi ilmlarga bir yilda yigirma to'rt oltin tanga, o'zlashtirishi yaxshi bo'lgan tolibi ilmlarga bir yilga o'n olti oltin tanga, o'zlashtirishi o'rtacha bo'lgan tolibi ilmlarga o'n ikki oltin tanga berilgan. Bundan tashqari Alisher Navoiy har yili o'z hisobidan muborak Ramazон va Qurbon hayitlari bayramlarida ikki ming miskinlar uchun turli in'omlar berib, ularning ko'nglini olib, dilini shod aylagan. Shular haqida Xondamir (1481-1535) yozadi: «Xalosiya xonaqohi «Ixlosiya» madrasasi qarshisida. U fayzli joyda har kuni mingdan ortiq zaifalar va miskinlar ziyofat qilinib, laziz taomlar bilan to'ydiriladi. Har yili muhtojlarga ikki mingga yaqin po'stin, bosma chakmon, ko'yak, ishton, taqiya va kavush ulashiladi»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Xondamir G'iyosiddin bin Humomiddin. Makorimul-axloq (Yaxshi xulqlar). Forschadan M. Faxriddinov, P. Shamsiyev tarjimasi. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1967, 66-bet.

Hikmatlar... Har kuni, har birimiz, har kimdan eshitib, har kimga aytib yuradigan hadsiz-hisobsiz, cheksiz, uzuksiz ravishda yashab kelayotgan hikmatlar va o'gitlar olami bepon. Moziydan bizning zamonamizgacha asrlar osha, avlodlar va ajdodlar osha, ellar va elatlar osha, tillar va dillar osha yetib kelgan bu hikmatlar xalq tafakkurining, xalq hayoti tajribasidan kelib chiqadigan xulosaviy fikrlarning ixcham va ko'r kam bir badiiy ifodasıdır. Ularning har birida hayotga tatigulik, butun-butun kitoblarga teng keluvchi teran va chuquurma'no hamda mazmun tajassum topgan. Shu bois xalq asrlar davomida yaratgan, sayqal bergen har bir hikmatni to'laqonli yetuk bir badiiy asar desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Ma'naviyatımız rivojiga munosib hissa qo'shgan Abdurahmon Jomiy (1414–1492) hikmatlarning onasi – xalq, yaratuvchisi va ijodkori ham xalq, ana shu xalqqa donolik bisotini kitoblar tufayli yetkazish bebaño xazina deb, ta'kidlaydi:

*Do'stlarni chorlab yozing bir noma,  
Suhbatda bo'lsin har bir alloma.  
Hikmatdan yasab ajib hangoma,  
Ilmdan yarating bir nasihatnoma.*

Hikmat degani nima o'zi? Hikmat so'zining lug'aviy ma'nosi – o'ta donolik, aql-zakovat bilan oqilona aytilgan, «mixlab qo'yilgan», o'zgartirib bo'lmaydigan chuquurma'noli so'z, ta'bir, ibora, gap demakdir. Xalq ijodiyotining o'ziga xos bo'lган bu janri og'zaki nutqda ham, yozma adabiyotda ham turli xil atamalar bilan nomlanadi: maqol, matal, naql, masal, zarbulmasal, hikmatli so'z, ibora, ta'bir, aforizm, otalar so'zi, ota-bobolardan qolgan so'z va boshqalar.

Xalqimizning ko'p ming yillik insonparvarlik, vatanparvarlik, mehr-shafqat, odob-ahloq, kattaga hurmat, kichikkı izzat kabi ulug' tamoyillari avlodlarning orzu-umidlariga, kelajakka bo'lган ishonchiga yo'l ochib beradi. Mutafakkir Ahmad Donish (1826–1897) ta'kidlaganidek: «*Inson buyuk olamdir. Unga qaraganda bu olam kichik olamdir*». Bu fikrda o'zbekka xos, sharqona, qolaversa, asl o'zbekona mehmondo'stlik, bag'rikenglik, halollik namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek milliy odob-axloqi diniy-mafkuraviy bosqichlar jarayonida ham o'zbekka xos fe'l-atvorni mustahkamlashda imkoniyat yaratdi. *Tabiatning to'rt unsuriga nisbatan bo'lган ishonch: quyosh (olov), yer*

*(unum dor tuproq), suv (obi hayot), havo, umuman, sihat-salomatlikka bo'lgan ruhiy va jismoniy, diniy-falsafiy nuqtai nazardan xalqimiz ongiga singib borgan.* Hozirgi kunda eng katta global masala bo'lgan ekologik muhitni himoya qilish, tabiatga bo'lgan muhabbat, o'simlik dunyosiga bo'lgan mehr, tabiat sehriga mahliyolik odob-axloqi bundan to'rt ming yil ilgari paydo bo'lib, Zardushtiylik dini g'oyalarida ona tabiatni ekologik jihatdan himoya qilish fikri singdirilganini qayd etmoq lozim. E'tibor bergen bo'lsangiz Vatanga nisbatan ham, tabiatga nisbatan ham ona so'zini barobar ishlatalamiz, demak, muqaddas ona so'zi Vatan va tabiat bilan mushtaraklik kasb etadi. Ilk ajdodlarimiz tabiatni, uning ne'matlarini e'zozlash, muqaddas saqlash, qadriga yetish, iflos qilmaslik, tabiatga, insonga nisbatan oqilona munosabat, to'g'ri nigoh, to'g'ri nazar, to'g'ri qarash qoidalariga rioxqa qilishgan. Shu kabi ajdodlarimiz ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal g'oyalarini targ'ib etg'anlar, bu esa o'zbekona odob-axloq kurtaklari bizning zaminda boshqa xalqlarga nisbatan ertaroq shakllanganligidan dalolat beradi. O'zbekona odob-axloqda ezgulik yovuzlikning har qanday ko'rinishidan g'olib chiqishi, xotirjamlik har bir insonga xos ekanligi, azob-uqubatlardan qutulishning yo'li aql, muomala va mehnat natijasi ekanligi bot-bot uqtiriladi. Or-tiqcha ko'ngilxushlikdan o'zini tiyish, muntazam ichkilik ichmaslik, yolg'ondan, o'g'rilik, ta'magirlik, yulg'ichlik holatlari dan saqlanish haqidagi axloqiy fikrlar buddaviylik ta'limotida ajdodlarimiz ikki ming yil ilgari asoslab bergani, o'zbek xalqi milliy odob-axloqining e'tiqodi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarda Islom diniga hurmat bilan qarash, Islom dini ulamo va allomalari yaratgan huquqiy, falsafiy, axloqiy g'oyalarga chuqurrorq yondashish, ibratli axloq va odob qoidalari, ezgulik yo'lidagi inson kamolotini yanada rivojlan-tirish, milliy odob-axloqda muruvvat, olivjanoblik, rostgo'ylik, to'g'rilik inson iymon va e'tiqodining mazmuni, mohiyatini tashkil etganligi, hozirgi axloqiy g'oyalarni shakllantirishda munosib hissa qo'shganligi tarix sahifalarida o'z aksini top-gan. Istiqlol yillarda Islom dinining axloqiy qoidalariga amal qilish, Amazon va Qurban hayitlarida ota-onalardan, keksalardan, nogironlardan, boquvchisini yo'qotganlardan xabar olish kabi qadimiyl, milliy odob-axloqimizning udumlari qayta tiklandi. Eng muhimi, Islom hadislarida ilm alohida ta'kidlanadi. «*Ilmga hayot bergenlar hech qachon o'lmaydi*,

«Ilm talabida bo‘lish har bir mo‘min uchun farzdir», «Erkak va ayollar, barcha mo‘min musulmonlarning ilm o‘rganishlari farzdir», degan tafakkurga asoslanib, xalqimiz farzandlarini tug‘ilgan davridan boshlab, odobli, bardoshli hamda kasb egallahsha mukammal kirishishga o‘rgatib, tarbiyalab keladilar. Milliy e’tiqodimizda millatimizni ulug‘laydigan narsa tilimizning muqaddasligi, moddiy va ma’naviy merosga va til boyligi tufayli inson ulug‘ va donishmand bo‘lishi alohida ta’kidlangan. Xalqimiz «Otalar so‘zi» kitobida ta’kidlangan: «*Tilim tinch bo‘lsa, dilimda o‘kinch bo‘lmaydi. Ey tilim, jim yotgin, dilim tig‘lama, meni o‘tga yoqib, o‘zing yig‘lama*» degan iboraga alohida ibrat bilan qaraydi. Alisher Navoiy yozadi: «Tili yomon xalq ko‘ngliga jarohat yetkazgani kabi, o‘z boshiga ham ofat yetkazadi».¹ «Baxt keltiruvchi musaffo ruh manbai ham til, yomonlar nahs yulduzining chiqar o‘rni ham til. Tilga kuchi yeta olgan – aqli donishmand; so‘zga erk bergen – pastkash ahmoq». Shuningdek, allomaning: «Til shirinligi – ko‘ngilga yoqimli, yumshoqligi – foydali»,² degan buyuk iborasi asrlar osha xalqimiz ma’naviyatining yuksak namunasi sifatida har bir oilaga munosibdir.

O‘zbek milliy odob-axloqida ma’naviy-axloqiy olamga yangilik sifatida kirib kelgan kommunistik mafkura va uning sharqona odob-axloqdagi salbiy oqibatlari, ya’ni odobsizlik, poraxo‘rlik, ta’magirlilik, loqaydlik va boqimandalik holatlari mohiyatining achinarli, fojiali ta’siridan qutulish uchun ong va tafakkurda o‘zbek milliy merosini, milliy o‘zlikni, ong va tafakkurni tiklash tufayli erishish mumkinligini ta’kidlamoq kerak. O‘zbek odob-axloqiga xos fasl, oy va kunlarning al-mashishi xalqimizning dehqonchilik, chorvachilik, hunarmand-chilik va madaniy dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatganligini tarixiy voqeа-hodisalar asosida tahlil etmoq kerak. Fasllarda xalqimiz eзgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashni hamisha ishonch, g‘urur bilan qabul qilib, Navro‘z, Mehrjon, Gul sayilari, Hosil bayramlarida mehr-oqibatga alohida e’tibor bersa, Xotira va qadrlash kuni, Mustaqillik bayrami, Davlat tili bayrami, Davlat ramzlariga bag‘ishlangan bayramlarda mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini nishonlaydi. O‘zbek milliy odob-axloqiga xos jangovarlik, mardlik, ma-

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. 15 томлик. 13-том. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1966, 223-bet.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy. O’sha manba. 224-bet.

tonat va lafz halolligi, bag'rikenglik, saxovatpeshalik va hojat-barorlik fazilatlari bilan elga dasturxon yozish, to'y-tomosha qilish, marosimlarda bir-birlarini qo'llab-quvvatlash udumlari dunyoning boshqa joylarida kamdan-kam uchraydi. Asosiysi elga dasturxon yozish shunchaki o'zini ko'rsatish emas, balki shu yo'sin elning duosini, ulus olqishini olish, keksalar alqoviga sazovor bo'lish istagidir, xolos. Bayramlarda xalqimizga xos «*Hashar – elga yarashar* milliy odob-axloqiga asoslanib, hashar ishtirokchilariga turli taomlar pishirilib, patir, qatlamlar dasturxonga taqdim etilsa, keksalar maslahat berib mehnat tajribasi bilan ishtirok etadilar.

Hashar tufayli yurt obod bo'lib, ariq-zovurlar tozalanib, bog'lar yaratilib, yer haydash, hosilni yig'ib olishda «O'roq hashari», «Ko'mak oshi», «O'tin oshi», «Qovun sayili» kabi an'analar asrlar osha yashab kelmoqda.

Milliy odob-axloqimizda nomoddiy madaniyatimizga xos xalq o'yinlari, kurash, ko'pkari (uloq), chillik, «qulqoq tishlatish», «qalin berish», «beshikka belash», «sunnat», «aqiqa», «muchal», «yosh to'yi», «nuroniy», «kelin to'y» kabi mehr-muhabbatga, qarindosh-u rug'likka, do'st-hamkorlikka chorlovchi milliy udum va an'analar, o'zbekona rasm-rusmlar o'zining qadimiyligi, o'zgarmasligi, insonparvarligi bilan ajralib turadi. Eng muhimi, o'zbek milliy odob-axloqida oila, oilani tashkil etish bilan bog'liq rasm-rusmlar, o'g'il uylan-tirish, kelin tanlash, qiz uzatish, kuyov tanlash, «teng-tengi bilan» kabi g'oyalar asosida oila qurishga oq fotiha berishdek an'analar o'zining qadimiyligi bilan dunyo ahlini o'ziga jaib etib kelmoqda.

Iqtisodiy taraqqiyot millat ravnaqining asosiy tayanchi, oilaviy rishtalarni mustahkam bog'laydigan munosabat hisoblanadi. O'zbek oilasi –bolajon oila,farzandni jon-dildan yaxshi ko'radi, o'g'il tug'ilsa aqiba to'yi qilib, mevali daraxtlar ekib, katta to'ylarga tayyorgarlik ko'rgan, qiz farzand tug'ilgan kundan seplar yig'ilib, or-nomus uchun «yor-yor» aytilishini intiqlik bilan kutishgan. Sharqona odob-axloqimizga xos farzandlarimizni o'qitish, uyli-joyli qilish, kasb orqali mehnatdan obro' topish har bir ota-onaning farzand oldidagi burchi hisoblangan. O'zbek millatiga xos or-nomus, bola tarbiyasiga munosabat, farzandni jangovar, pahlavon, mard, jasur qilib tarbiyalash odatlari alohida singdirilgan. AQShning Chikago shahrida 200 ming nuxsada nashr etilgan «Jahon qomusiy

lug'ati» kitobida o'zbek mentaliteti alohida izohlangan: «O'zbek – jahon xalqlari orasida birinchilardan bo'lib, turkiy xalqlar o'rtasida birinchi bo'lib o'troqlashgan, madaniy turmush kechiruvchi, jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan millat».

O'zbek odob-axloqi haqida fikr yuritishda buyuk allomalar va donishmandlarning hayot tajribalaridan, ularning millatimizga bergan ta'rifi, tasnifidan kelib chiqib, o'zbeklarni poydevori mustahkam va poydor, bardavom etuvchi, kelajagi yanada porloq davlatga ega, uyushgan xalq bo'lib, millat bo'lib borishdek, oliv maqsad ko'zlanganligi yorqin namoyon bo'ladi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson... Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» iboralarli milliyligimizni, o'zligimizni, O'zbekistondagi har bir fuqaro mustaqillikni, uning naqadar muqaddas ekanligini anglab yetib, o'zaro hamjihat, bag'rikenglik, fidoyilik asosida yanada mukammal fikr yuritishi kelajagimizning porloq ekanligidan dalolat beradi.

## KOMIL INSON—OQILONA HAYOT GAROVI

*Kamtarga kamol, manmanga zavol.*

Mutafakkirlarimiz tomonidan shunday hikmatlar yaratilganki, bu hikmatlar asrlar osha takomillashib kelgan. Odob-axloq tarbiyasi hamisha insonlarni murakkab jarayonlarda sabr-toqatli va bardam bo'lishga chorlagan. Insonlar ongida joylashib qolgan: «nima uchun kimdir g'am-tashvishda yashaydi, kambag'allikdan, omadsizlikdan, qo'rquv va umidsizlikdan qiynaladi, boshqa bir kishi esa boy-badavlat, baxtli hayot kechiradi, qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin?» degan savollarga javob topish doimo muhim masala bo'lib kelgan. Odob-axloqli inson «Qanday qilib hayotda uchrayotgan muammolarni qiynalmasdan hal etishi mumkin?», «Qo'rquv va umidsizlik, g'am-tashvish, omadsizlik kabi holatlardan qanday qilib qutulish mumkin?» degan masalalarni barta-rat etishga yo'l ochgan. Yozuvchi Paulo Koelonning ushbu masalaga to'xtalib: «Agar sen astoydil biror narsani tilasang,

u tilaging vojib bo'lishiga butun koinot ko'maklashadi», deb qayd etgan fikri alohida ahamiyatga egadir.

Bunday muammolarni yechishda hamisha sharqona odob-axloq namunasi insonlarga yaqindan yordam berib, hayotda o'z yo'lini topib, baxtli yashashi uchun imkon yaratgan. Donolar bisotida qayd etilgan fikrlarga e'tibor berib qu'yidagi mulohazalarga to'xtalishni maqsad qildik. Odob-axloq komil inson tomonidan uning ichki dunyosida va tashqi olamda amalga oshirayotgan o'y-fikrlari, xatti-harakatlari, natijalari hamda boshidan kechirayotgan his-tuyg'ulari, kechinmalari va shu kabilar majmuidir. O'y-fikr insonning ichki dunyosi va hayotiy jarayonlarining muhim bo'g'ini hamda uning tashqi dunyosidagi xatti-harakatlari asosidir. O'y-fikrlar yig'ilib nuqtai nazarga, ular esa qarashlarga aylanadi, keyin esa dunyoqarash shakllanadi. Hozirgi zamon odami o'y-fikrni kichkina bir aqliy harakat deb tushunadi: o'y-fikrning natijasi ko'zga ko'rinxayaptimi, demak, u mavjud emas va hech qanday ta'sirga ham ega emas, deb o'ylaymiz. O'y-fikr juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan kuchdir, quvvatdir, uning ta'siri va harakati uchun vaqt va fazo kabi qiyinchiliklar yo'qdir. O'y-fikrga xuddi o'z-o'zidan harakatlanishi mumkin bo'lgan vosita sifatida yondashish lozim. Taniqli olim V. Jikarensev odob-axloqli inson faoliyatiga e'tibor berib: «*Hayotingizda nima yuz bergen va berayotgan bo'lsa, ularga faqat o'zingiz mas'ulsiz, boshqa hech kim emas*», deb izoh bergen edi.

Taniqli olim L.Xeyning ta'kidlashicha, odob-axloq insonga xos tuyg'u bo'lib: «Hozirgi har bir o'y-fikrimiz kelajakda tegishli voqe va hodisalarning yuz berishiga sabab bo'ladi, biz boshdan kechiradigan voqelikni yaratadi». Shunday qilib tashvish va muammolarimizni ham, baxt-saodatimizni ham, hayotdagi barcha hodisa va natijalarni ham keltirib chiqaradigan asosiy manba o'zimizning odob-axloqimizdan kelib chiqishini unutmasligimiz zarur.

Go'daklik chog'imizda odob-axloqimiz asosida har birimiz shod-xurramlik va beg'ubor tuyg'ular og'ushida bo'lamiz, bebaholigimizni anglab, o'zimizni butun kurrai zamin markazida his etamiz. Bizda shunchalik jasorat mavjud bo'ladiki, nimani xohlasak shuni talab etamiz, his-tuyg'ularimizni ochiq bildiramiz. Agar yoshligimizdan bizga «dunyo qo'rquinchli», «boshqalarga ishonma», «odamlar bir-biriga dushmanlik qiladi va bir-birini aldaydi» kabi fikrlar o'rniga «dunyo

xavfsiz va shod-xurramlikka to'la» kabi g'oya va mafkuralar singdirilsa, bizning hayotimiz, dunyoqarashimiz shu ravishda o'zgaradi.

Umar Roziyallohu anhu (562 – 644)dan rivoyat qiladilar. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: «*Albatta, amallar niyatga bog'liqdir. Albatta, har bir kishining niyat qilgan narsasi bo'ladi. Bas, kimning hijrati Alloh va Uning Rasuli uchun bo'lsa, uning hijrati Alloh va Uning Rasuliga bo'ladi. Kimning hijrati dunyo uchun bo'lsa, unga erishadi. Yoki ayol uchun bo'lsa, uni nikohlab oladi. Bas, uning hijrati nima uchun qilingan bo'lsa, o'shangaga bo'ladi*», dedilar. Insonning odob-axloqiga xos salbiy o'y-fikrlari, noto'g'ri munosabati va qarashlari birinchi navbatda uning o'ziga ta'sir etadi. *Kasallilik ham noto'g'ri o'y-fikrlar, qarashlar va munosabatlar natijasi ekanligini inson unutmasligi kerak?*

Ko'plab o'y-fikrlarimiz va yondashuvlarimizdagagi kibr-havo, gerdayish, qoralash, nafratlanish, g'ijinish, o'zidan va hayotdan norozi, xafa bo'lish, qahr-g'azab, qo'rquv, bezovta bo'lish va behalovatlik, umidsizlik, ko'ngil qolishi, g'amg'ussa, o'zini aybdor hisoblash, achinish va ranjish, maqtan-choqlik, o'ch olishga intilish, hasad qilish, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik, tilyog'lamatlik, tamagirlilik, ochko'zlik va shu kabilar o'z mohiyatiga ko'ra salbiy, tajovuzkorlik va hatto vayronakorlik xususiyatlariiga egadir. Tasavvuf ilmining yirik namoyandalaridan biri Abu Homid G'azzoliy (1058– 1111) ning qayd etishicha, «*Islom ta'limotiga ko'ra inson odob-axloqiga xos tuyg'ulardan kelib chiqqan kibr-havo, maqtovni sevish, bexojatlikni yaxshi ko'rish va shu kabilar insonning rububiylilik (yaratuvchiga xos) bo'lgan ishtiyoqidan kelib chiqadi. Ko'pchilik bunday munosabatlarning mohiyatini tushunmasdan ularni gunoh sanamaydi. Aslida ular halokatga olib boruvchi barcha gunohu kabiralarning manbai, aksar jinoyatlarning onasi ekanligini tushunmaydi*». Bunday odob-axloqqa xos buzg'unchi qarashlar moddiy dunyoda aks etib, bizga turli kasalliklar va shaxsiy muammolar tug'diradi. Inson odob-axloqini ilmiy tomondan o'rgangan L. Xey ta'limotida: «*Qon bosimi kasalligi turli hayotiy jarayonlarga qo'rquv va ishonchsizlik bilan qarash, ularni qabul qilmaslik va shu asosda yuzaga keladigan ichki zo'riqishlar natijasida paydo bo'ladi. Ateroskleroz esa hayotbaxsh (pozitiv) his-tuyg'ularga erisha olmaslik, hayotning turli jabhalarida*

*faqat salbiy (negativ) tomonlarni ko'rish ogibatida yuzaga keladi.* Uzoq muddat xafagarchilik tanani aynitadi va pirovard-natijada rak kasalligiga olib keladi. O'zini gunohkor his etish esa doimo jazolanishga intilish va og'riqlarni keltirib chiqaradi», deb izoh beradi.

Sizning ko'nglingizga qandaydir noto'g'ri odob-axloqqa xos qarashlar, his-tuyg'ular yoki teskari munosabatlar singari holatlar joylashib olgan bo'lsa, sizni shu qarashlar amalgamoshadigan holatga, albatta tushiradi. Masalan, sizning hayottingiz tajribasiga ko'ra, «katta boylikka erishish xavf-xatarni tug'diradi, bu albatta, yomonlikka olib keladi» kabi xulosa va o'y-fikr ko'nglingizdan joy olgan bo'lsa, qancha harakat qilmang, baribir badavlat bo'la olmaysiz.

*Inson odob-axloqiga oid tadqiqotlar olib borgan A.Sviyashning fikriga ko'ra:* «Insonni uning o'zi odatlangan odob-axloqqa xos hayot tarzidan majburan ajratib, uni boshqacha sharoitga tushirish va shu asosda unga o'z qarashlarini chuqr o'ylab ko'rish, xolis baholash uchun imkon berish va uni «*ma'naviy tarbiyalash*» maqsadida kasallikka yoki yo'l-transport fojiasiga duchor qilishi yoki boshqa salbiy hodisalarga uchratishi mumkin». Buning uchun, birinchidan, o'tgan yillar davomida to'plangan odob-axloqqa oid yomon kechinmalardan tozalanish, ikkinchidan esa keyingi hayotda bunday og'ir kechinmalarni yangidan to'plamaslik uchun barcha noto'g'ri odob-axloqqa oid qarashlar va ideallashtirishlardan xalos bo'lish lozim.

Odob-axloqqa taalluqli qarashlarimizdagi xatoliklar, kamchilik va zaifliklarni aniqlang, ularga tanqidiy yondashing, zaifliklaringizdan uyaling. Mana shunday jarayonlar natijasida ulardan qutula olasiz, ammo bu mo'ljallangan ishning yarmi, xolos. Qolgan yarmi esa atrof-dunyo bilan uyg'unlikda yashashga imkon beradigan yangi qarashlar tizimi, ya'ni, oqilonha hayot kechirish dunyoqarashni shakllantirishdan iboratdir. Bunda *odob-axloq sohasida muhim tadqiqotlar olib borgan J. Jikarensev, L. Xeylarning ta'kidlashicha*, «Sizning eski qarashlaringiz va munosabatlaringizni tashkil etuvchi har bir fikr yangi ijobiy qarash, munosabat va xulosalarga almashtiriladi. Ammo bu nihoyatda nozik, chuqr tahlillar asosida uzuksiz kechadigan jarayonlardir».

Inson keksayganda yashashi uchun mablag'lar yetishmasligi, qarilik tashvishlari va qo'rquvlari uni qamrab oladi. Ha-

yot kechirish yomonlik bilan kurashdir, bu kurashda ba'zan inson yomonlikni, ba'zan esa yomonlik insonni yengadi. Dunyo cheklangandir, undagi zaxiralar hamda turli boyliklar hammaga yetishmaydi, shunga ko'ra inson tirik qolish uchun kurashib yashashi, o'ziga va atrofdagilarga g'am, og'riq va azob olib keladi. Inson esa borliqning yagona tanasidagi bir hujayra kabi yashaydi. Shulardan kelib chiqib inson odob-axloqi bilan bog'liq hayotiy jarayonlarni ikki qismga – uning ichki dunyosidagi va tashqi moddiy olamidagi jara-yonlarga bo'lish mumkin. *Abu Homid G'azzoliy inson ongiga oid odob-axloq* tushunchasining ichki dunyoga ta'sirini ikki xil yo'nalishda izohlab beradi: «*Ongli va ongsiz ravishda. Ong – aql, bu – inson qalbiga yoyilgan bir yorug' nur bo'lib, uning yordamida u turli narsalar, voqeа-hodisalarning mohiyatiga yetadi*».

Komil insonda o'ylash – fikrlash jarayoni ong orqali bajariladi. U tashqi dunyoni beshta organi – ko'rish, eshitish, hid bilish, sezish, his etish va ta'm bilish orqali biladi. Insonning ichki ongi kechayu kunduz tinim bilmay ishlaydi. Uyquda ham inson yuragi ishlab turadi, o'pka esa yurak tomonidan haydalgan qonni kislorod bilan ta'minlaydi. Insonning ichki ongi bamisolli urug' ekiladigan shudgorlangan daladir, o'y-fikrlari esa hosildor yerga ekilgan urug', urug'ning yaxshiyomonligi ichki dunyoning belgisi. *Ichki ong tublarida bitmas-tuganmas donolik, talant, kuch-quvvat va imkoniyatlar mavjud*. Ichki aqlingiz – qalbingiz va jismoniy tanangizni davolash imkoniyatiga ega. *Qur'oni karimning «Sod» surasida Haq taolo farishtalarga xabar berdilar*: «*Albatta, men loydan bir odam yaratguvchidirman. Bas, qachon uni rostlab, unga o'z ruhimdan puflab kirgizganimdan so'ng, unga sajda qilgan holda yiqilinglar*».

*Odob-axloq tushunchalariga jiddiy e'tibor bergan taniqli olim A.Klizovskiyning ta'kidlashicha*: «To'laqonli yashash» tamoyili esa odamlarning tezda joniga tegadi. Ular bunday hayotdan bezor bo'lib, qocha boshlaydilar, ya'ni inson uchun hamma narsa bekamu ko'st bo'lsa, hayot zerikarli bo'ladi» degen g'oyani talqin qilib, inson hayotning hamma sinovlariga bardosh berish asosida tarbiyalanmog'i zarur deb fikr bildiradi. Odob-axloq tufayli hayot jarayonlarini boshqarish hamda talqin etish natijasida inson yaxshilik haqida o'ylasa, bundan yaxshilik vujudga keladi, yomon o'y-fikrlar o'ylasa yomonlik

vujudga keladi. Insonga xos yaxshilik — sihat-salomatlik, muvaffaqiyat va boylik demakdir, insonning odob-axloq tufayli uning ongida kechayotgan o'y-fikrlar haqida Bibliyada quyidagi fikrlar qayd etilganini K.Fili ppiysam qu'yidagicha tahlil qiladi: «*Nihoyat, mening aka-ukalarim nima faqat haqiqat, nima faqat vijdon, nima to'g'ri, nima iltifotli, nima qoyilmaqom, nima faqat yaxshi fazilatli va maqtovga sazovor, shu haqida fikr yuritinglar*».

Odob-axloqli inson o'z fikrlari jarayonini nazorat ostiga olsa, hech qachon «*Men bunday qila olmayman*», «*Bu ish yomonlik bilan tugaydi*», «*Men yomon ahvolga tushib qolaman*» kabi fikrlarni miyasiga keltirmaydi. Chunki, har qanday masalaning yechimi bor. Aniq tushunchaga ega inson ichki ongidiagi ruhiy tushkunlik, vahima, yomon his-tuyg'ulardan qutilishni o'ylashi, ichki va tashqi his-tuyg'ulardagi buyruqlardan xalos bo'lishi uchun aqliy qobiliyatini charxlab turishi zarur.

Odob-axloqli inson o'z hayot tajribasidan kelib chiqib «*Jim bo'ling, tinchlaning! Men Sizning xo'jayiningizman va Siz mening buyrug'imga itoat etasiz! Sizga bu yerda, Mening ko'nglimda qiladigan ish yo'q, bu yerdan yo'qoling!*» degan tushunchalarga qarshi buyruq bersa hamda ongi ustun kelsa, qo'rquv, bilimsizlik va xurofotdan uzoq bo'lish uchun zaruriy hayot tajribalariga ega bo'lган mukammal hayotning mohiyatini tushunib yetishi kerak.

Komil insonga xos odob-axloq asosini o'y-fikr natijalari hal etishini tadqiqotchi olim A.Klizovskiy qu'yidagicha izohlab: «*Odam o'y-fikrlarini kichkina bir aqliy harakat deb biladi. O'y-fikr ko'zga ko'rinxaptimi, u mavjud emas deb tushunadi. Shuni unutmaslik kerakki, bir o'y-fikr olamni yo ifloslantiradi, yo tozalaydi. Insonning o'y-fikri eng qudratli energiyadir, u tufayli jamiyat kuchlari harakatga keladi*. Demak, o'y-fikrlarni odob-axloqiy tushunchalar boshqarishi, odob mezoniga qarab inson jamiyatni yo taraqqiyotga, yo tushkunlikka olib borishi tarixiy haqiqat ekanligini har bir kishi tushunib yetmog'i kerak.

*Insonning aqli tom ma'noda yaxshilikni ham, yomonlikni ham ishlab chiqaradigan fabrikadir.* Ushbu fabrikadagi o'y-fikr go'zal, olamni xushbo'y hidlarga to'ldirayotgan bo'lsa, ularni chaman bo'lib ochilayotgan gullarga, agar unda nafarat, qahr-g'azab, ko'ra olmaslik o'y-fikrlari bo'lsa, atrof dunyonni badbo'y hidlar bosayotgan bo'lsa, uni bir to'da go'ngga

o'xshatish mumkin. Demak, barkamol inson atrofida go'zal va ezgu o'y-fikrlar energiyasi mavjud bo'ladi. *Yomon inson-da esa qahr-g'azab, dunyodan norozilik, fisqu-fasod, nafrat, hasadga to'la fikrlar bo'ladi.*

Komil insonga xos odob-axloq tushunchalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan A. Klizovskiyning fikricha, «*Aql-zakovat donolik emas. His-tuyg'uga asoslanib bilish – donolikdir. Aql-zakovat esa mulohazalar va qiyosiy tahlillarga suyanadi. Donolik yechadi, chunki bu yechim ancha oldin tug'ilgan. Aql-zakovat – bu donolikning bo'sag'asidir....*» Inson aqli nihoyatda beqarordir, injiq, parishonxotirdir. Inson aqliga qanday fikrlar yuborilsa, shunga mos natijalar olinadi: hayotbaxsh yomg'irlar paydo qilamizmi yoki fazoni zararli hasharotlar bilan to'ldiramizmi – bu bizga ham bog'liqdir. Olam va o'y-fikrlar hamkorligi ana shundadir».

Odob-axloqning mazmun va mohiyatini belgilovchi asosiy tayanch Ishonch tushunchasi bo'lib, bu aqlning holatini aniqlaydi. Ishonch shaxsiy iltijo – bu inson tomonidan o'zi yoki boshqalar uchun yordam so'rashdir. Iltijo maxsus maqsadga erishish uchun qilinadigan istak va orzu-umiddir. Ishonch har bir odamga beriladigan baho, iltijo esa odamni manfaatga erishishi uchun mavjud to'siqni yengib o'tishi bilan bog'liq jarayondir. Tarixiy hayotda katta ilmiy falsafiy bilimga ega alloma Germesning go'rida buyuk bir sir borligi shogirdlari tomonidan taxmin qilingan edi. Uning qabri ochilganda u yerda shunday bir yozuv topilgan: «*Ichkarida qanday bo'lsa, tashqarida ham shunday, yuqorida qanday bo'lsa, pastda ham shunday.*»

Inson o'z ichki ongini tana kasalliklariga yo'naltirib, shifo so'rab, chin dildan iltijo qilsa va shu yo'l bilan davo topishga ishonsa u, albatta, tuzaladi. *Insonga «Sizning isitmangiz chiqmoqda» deb ishontirsa, uning haqiqatdan ham isitmasi ko'tariladi. Agar «Sizni bemalol davolash mumkin», «Sizning isitmangiz tushayapti» desa, isitma tushadi.* Baracha kasalliklar insonning ruhi, odob-axloqiy holatidan kelib chiqadi. Insonning odob-axloqiga xos salbiy o'y-fikrlar, ijobiy qarashlar ham hayotda o'z aksini topadi. «Men shunday odamman, nima ham qila olar edim», degan o'y-fikrlar bilan yashasa, aslida o'z xulqi bilan shunday bo'lib qoladi.

Inson odob-axloqi qarashlaridagi xatti-harakat uning taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatib, qarashlaridagi xatolar, kam-

chiliklar, zaifliklar ta'sirida ish, oila, farzandlar, martaba, pul topish, o'z-o'zini kamol toptirishdan ajratadi. Inson odobidagi ijobjiy qarashlar gunohdan xalos etib, his-tuyg'ularini mustahkamlab, muammolar, kasalliklar, baxtsizlikdan qutulish yo'lini ko'rsatadi. Axloqsiz odam qarashlarida nafrat tuyg'usi ustun bo'ladi. Har qanday pastkash odam – bu avvalambor Xudoyim yaratgan insondir. Axir Evangeliyada aytilganidek, «Ayblamang, ayblangan holda bo'lmaysiz». Kimni qoralasak, o'zimiz shunday bo'lamiz, chunki salbiy o'y-fikr vayronkor yondashuvlarning oqibatidir.

Hayot sinovlariiga e'tibor bering, Sizning dunyoingiz o'z qo'lingizda. Kimnidir ayblash bema'nilik, olamni o'zgartirishdan avval, o'zingizning dunyoingizni o'zgartiring, uni vayronkor g'oyalardan poklang. Farzandlarni zamon ruhida tarbiyalashga harakat qiling. Siz «oila boshlig'i», ishxonada esa «boshqarma boshlig'i», Siz «Gap» yoki «Nahorgi osh» o'yinlarida ishtirok etasiz. Siz «Muhabbat» o'yinida baxtsizlikni keltirib chiqaradigan o'yindan ehtiyyot bo'lishingiz, shuningdek, «Hayot bu – sirk», degan o'yinda kulguli bo'lib qolishdan ehtiyyot bo'lishingiz, qiziqchi rolini o'ynayotganingizda kulguli holatga tushib qolmasligingiz zarur. V.Shekspir «Hayot bu – sahna, unda odamlar rol o'ynaydi» deganida ko'p narsalarni nazarda tutgan ko'rindi, masalan, deylik, *odamlarning hayotda aktyor, u o'ziga taalluqli rolni manfaati doirasida ijro etishga shay turadi*. Shuningdek, jamiyatda davlat mashinasining bir qismi bo'lganda ham *yaroqsiz mexanizm* bo'lishdan o'zingizni asrashingiz kerak. Hayot o'yinida jazolanish, noto'g'ri qarash, yomon xatti-harakatlar nazarida bo'lmasligingiz uchun – Ibrat makkabini mukammal o'rganishingiz kerak. Inson o'z odob-axloqi bilan yon-atrofidagi odamlarga va tabiatga bo'lgan munosabatini belgilab oladi. O'z ibrati, orzu-umidlari, maqsad va niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun inson atrof-dunyo bilan uyg'unlashgan munosabatda bo'lishi va dunyo qanday bo'lsa, uni shunday qabul qilishi lozim, ya'ni dunyoniadolatsiz, yomon deb tushunmasligi kerak. Mutafakkir A.Sviyashning qayd etishcha: «Inson o'ziga-o'zi muammo yaratadi, kasallik orttiradi, inson tanasi o'lgandan so'ng, uning ruhi boqiy qoladi. Inson dunyoga qisqa muddatga sinov uchun keladi – shu vaqtida butun tanasi, aql-idroki, hirsi, sevgisi bilan bu moddiy dunyoga, uning boyliklariga zanjirlab tashlanganday

bog‘lanib qoladi». Buning uchun boshqalarga va o‘ziga zarar yetkazmaydigan, zulm o‘tkazmaydigan tarzda hayot kechirish, moddiy va ma’naviy boyliklarga ortiqcha baho bermaslik, hayotdan norozi bo‘lmaslik, bu dunyoga qisqa sinov tariqasida kelganligini esdan chiqarmaslik, hayotga yengil, shukrona qarashi zarurdir.

Hayotingizda ro‘y berayotgan voqeа-hodisalarga quyidagi nuqtayi nazardan yondashishga o‘rganing: «*Mening hayotimda shunday noxush hodisa yoki voqeа ro‘y bergan ekan, bunday holat qaysidir bir noto‘g‘ri xatti-harakatim, munosabatim yoki o‘y-fikr, his-tuyg‘ularim natijasidir* va shu tufayli menga nisbatan ma’lum «tarbiyaviy jarayonlar» qo‘llanilmoxda. Men bu holatni tushunib, uni zudlik bilan to‘g‘ri yo‘lga solishim lozim».

## VATAN TUYG‘USI— INSON MA’NAVIYATI BESHIGI

*Ona yurting — oltin beshiging.*

Ma’naviyatli komil insonda Vatan tushunchasi keng talqin qilinib, vatanning bir siqim tuprog‘i qanchalik mo‘tabar ekanligi, uning ozodligi va tinchligi uchun qanchadan-qancha cheksiz jonlar fido qilinganligi tarix sahifalarida o‘z aksini topgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kundarda Vatanning muqaddas ekanligiga alohida baho bergan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning fikrlari alohida ahamiyatga ega: «Bugungi qiyinchiliklar o‘tar, girdoblar tinar. Vatan qoladi. Xalq qoladi. Diyonat, iymon, mehr-oqibat o‘zgarmasdir. Shunday bebaho va qudratli Vatan uchun, shunday tanti, jafokash va mehnatkash xalq uchun qanchalik fidoyilik qilsang, qanchalar yonib-yashasang arziydi. Diyonati, iymoni, e’tiqodi mustahkam xalqning Vatani ham yengilmasdir. Aslida, Vatanimizni hech kim, hech qachon yenga olmagan. Imperiyalar parchalandi, zulm zanjirlari uzildi, faqat Vatan qoldi, buyuk millat qoldi. O‘zbek, O‘zbekiston mangudir».

Abdulla Avloniyning ta‘kidlashicha, «Vatan tuyg‘usi eng insoniy, eng mo‘tabar tuyg‘ulardan biridir. Vatanni shuncha-

ki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan Onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'am-hasratini baham ko'rish farzandning burchi». Vatan buyuk so'z, unda inson yuragidagi ilohiy nur bo'lib, tanga quvvat, ruhga rohat, odam hayotiga bir umr farog'at bag'ishlaydi. Chunki «Vatan» so'zi mo'tabar «Ona» so'zi bilan yonma-yon turadi. Vatan hech qachon o'zgarmaydi, hech qachon eskirmaydi. Shuning uchun ham Vatanni eng suyukli ifoda bilan «Ona-Vatan» deymiz. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «O'zbekiston – muqaddas Vatan. Ota-bobomiz yotgan yer. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har qarichiga mehru muhabbat uyg'otish bugungi kunning eng ustuvor vazifalaridan biriga aylanayotgani ham-mamizni quvontiradi».

O'zi tug'ilgan Vatanni ozod, mustaqil, dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida his etish, ko'rish, unda ya-shash naqadar ulug' baxtdir. Har bir daqiqada Vatanimizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan yuksalayotganini ko'ramiz. Tarixiy voqealarga boy, iqtisodiy-siyosiy qiyinchiliklarni bartaraf etib, dunyo xalqlarining ko'z o'ngida erishgan mustaqillikni saqlab qolish, uning mustahkam poydevorini yaratish, xalqning ishonchini oqlash, erishgan natijalarga xolisona baho berib, mavjud muammolarni, qiyinchiliklarni bartaraf etishdek ulkan vazifalar hal bo'lmoqdi. Xalqimiz ana shu bosib o'tilgan yillar davomida Vatan mustaqilligini qo'lga kiritish uzoq asrlar davomida olib borilgan milliy tuyg'ularning, orzu-umidlarning, kurash dahshatlarining, cheksiz yo'qotishlarning natijasi tufayli amalga oshirilganligini sezib, o'zlarida Vatanga bo'lgan cheksiz hurnatni mustahkamloqda.

Vatan – inson tug'ilgan muqaddas zamin, bu zamin uning qalbida abadiy qoladi va hech qachon unutilmaydi. Vatan faqat mustaqil bo'lganidagina haqiqiy Vatanga aylanadi. Buyuk mutaffakkir Abdulla Avloniy: «Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati shul kishining vatanı deyilur», deb Vatanga ta'rif beradi. Vatan haqida «O'zbek tilining izohli lug'ati»da esa quyidagicha tushuncha berilgan: «Vatan – 1. Kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat, ona yurt; 2. Kishining tug'ilib

o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i, yurt, diyor; 3. Turarjoy, boshpana, makon, uy». Albatta, qayd etilgan uch ibora bo'lса-yu, Vatan mustaqil bo'lmasa, Vatan qaram, mustabid tuzum ta'sirida bo'lса, unda fuqaro milliy-ma'naviy jihatdan qaram bo'lib, o'z yurtiga egalik qila olmaydi. Mustaqillik-ning dastlabki kunidan boshlab, Vatandagi har bir fuqaroga istiqlolimizning mohiyati, mazmuni, mag'zi va uning naqadar beqiyos ahamiyatga ega ekanligi tushuntirildi, uni asrash bu-yuk ne'mat ekanligi qayd etildi. Mustaqillik yillari davomida har bir fuqaro hayotida, mamlakat taqdirida muhim va keskin o'zgarishlar bo'ldi. Fuqarolarning turmush tarzi ijobiy o'zgarib, ongi o'sib, o'zligini anglab, mamlakatimiz va shaxsiy hayotida sodir bo'layotgan jarayonlarga diqqat-e'tibor bilan qarash hissiyoti tug'ildi. Ushbu yutuqlarga faqatgina Mustaqillik tufayli erishayotganligini anglab yetdilar.

O'tgan yillarda Milliy istiqlol g'oyasi fuqarolar iymonida Vatan mustaqilligi tushunchasini singdirib, o'zbo'lарmonlik, bo-qimandalik, esankirashlik, qо'rqoqlik, mutelik hislaridan ozod qildi. Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganidek: «O'tgan davrning har bir yilini ahamiyat jihatidan tariximizning o'n yilliklariga, hatto, asrlariga tenglashtirish mumkin, desak mubolag'a bo'lmaydi». Xalqimiz istiqlolga erishish va uning ne'matlaridan foydalanish juda katta aqliy ongni, mehnatni, ogohlilikni, har bir narsaga ehtiyyotkorlik bilan qarashni talab etishi sezdi. Ana shu qо'lga kiritilgan Mustaqillik ajdod-avlodlarimning kimligini, yuksak madaniyatimiz natijalarini insoniyat tarixida sezilarli iz qoldirganligini anglash imkoniyatini berdi. Tarix shohidligiga e'tibor berib, moziyni o'rganish tufayli xalqimiz Vatan mustaqilligi uchun kurash tarixini chuqrarroq bilishi, mustaqillik uchun hayot-mamot janglarida jonini fido qilgan qahramonlarni o'rganib, ularning ruhlarini shod etish bugungi avlodlarning burchi ekanligini sezmog'i kerak. Hozirgi yoshlarga mustaqillik uchun kurashgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Katan, Avestan, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobi, Amir Temur, Madali Eshon, Nomoz Pirimqulov va boshqalarning ozodlik uchun olib borgan kurashlari, ularning metin irodasi, sabr-matonati, g'ayrat va jasoratlaridan ibrat olib, kelgusi avlodlar xotirasida abadiy saqlashga erishishlari zarurdir.

Ona O'zbekistonimiz hududi milloddan avvalgi VI-V asrlardan e'tiboran to mustaqillik kunlarimizgacha birin-ketin

eroniyilar, yunon-makedonlar, arablar, mo'g'ul-tatarlar, qalmiqlar, ruslar va boshqa chet el bosqinchilari tomonidan yovuz niyatlarini amalga oshirish maydoniga aylantirildi. Ular xalqimizni qullik-mutelik asoratiga solib, milliy boyliklari-mizni talab, madaniy-ma'rifiy yodgorliklarimizni oyoq osti qilib, milliy urf-odatlarimizni unutishga, ona tilimizni g'alizlashga, o'zimizga xos g'oyalarimizdan mahrum qilishga urindilar. Muqaddas ona tarixga nazar solsak, avlod-ajdodlarimizning «Erk!», «Ozodlik!», «Hurlik!», «Mustaqillik!», «Istiqlol!» deya nola chekkanlarini va dushmanlar bilan mardona janglar olib borib kurashganlarini ko'ramiz. Gerodot (480-425) o'zining «Tarix» asarida qadimgi O'zbekiston hududi gullab-yashnagan o'lka bo'lganligi, bu qutlug' va muazzam vatandagi xalqlar tinch hayot nashidasini surib, keng hududlarda o'z qo'y-qo'zilarini, mol-yilqilarini boqib, Araks (Amudaryo)dan keng ariqlar chiqarib, dehqonchilik qilib, farovon hayot yaratganliklarini yozadi. Shuningdek, tarixchi o'z asarida O'zbekiston hududidagi xalqlar bosqinchi zolimlarga qarshi kurashgan avlodlar haqida ma'lumot keltirib, To'maris tarixidan manba qoldirgan: «To'maris qo'shinini to'plab jangga otlanadi. Dahshatli jang bo'ladi. Unda massagetlar g'olib keladi. To'maris o'z so'zi ustidan chiqib, jangda o'ldirilgan Kirning boshini kesib, qon bilan to'ldirilgan meshga soladi, u aytadi: — Garchi men jangda halollik bilan yenggan bo'lsamda, sen makkorlik bilan meni o'g'limdan judo qilib, qayg'uga solding. Ontimga amal qilib, seni qonga to'ydiraman!...»

Gerodot tomonidan yozib qoldirilgan bu hodisot afsona emas, haqiqat ekanligiga moziy zarvaraqlari shohidlik beradi. To'maris asli tarixiy shaxs bo'lib, u hozirgi vatanimiz hududida yashagan ajdodlarimizning jasur ayol hukmdori edi. To'maris dastlab mustaqil yurtning ozodligini saqlab qolishga kirishgan bo'lsa, bu muqaddas Vatanning mustaqilligini to'la ta'minlagan buyuk zot Islom Karimovdir. Vatan ozodligi uchun olib borilgan kurash tarixiga nazar solsak, Prezidentimiz I.A. Karimovning quyidagi izohiga e'tibor berib: «Ajdodlarimiz boshidan ne-ne suronlar, fojialar, talon-torojliklar kechmadi. Xalqimiz faqat jisman emas, ruhan ham uyg'oq bo'lmog'i darkor. Ruh bedorligiga uning rahbar rahnamolari, olimu ziyyolilari, barcha farzandlari mas'uldir. Imonim komilki, ulug' bobokalonlarimizning ruhi poklari istiqlol yo'lida barcha sa'y-harakatlarimizni qo'llab-quvvatlaydi».

Tarixiy voqealardan salarga xolisona baho berib, hozirgi yosh avlodni tarixiy xotira bilan mukammal boyitib, hali tarix sahifalarida o'rganilmagan voqelikni chuqurroq tahlil etish davr talabidir. Aleksandr Makedonskiy (356—323) dastlab Vatanimiz hududiga qadam qo'yganda, unga qarshi Paretakada (hozirgi Surxondaryoning janubiy hududlari) ko'tarilgan qo'zg'olonga mahalliy harbiy lashkarboshilar Katan va Avestan rahbarlik qilib, ikki o'rtada kechgan shafqatsiz jang jarayonida Katan va bir yarim ming baqtriyalik qo'zg'olochchilar halok bo'ladi. Avestan esa asir olinib, qatl etiladi. Ushbu jang yunon-makedonlarga qarshi ko'tarilgan dastlabki milliy ozodlik harakati edi.

Vatan — Alloh inoyoti bilan har bir millat-elatga berilgan ne'matki, uning bahosi yo'q. Vatandan a'losi yo'q! Ushbu iborani izohlashda quyidagi voqeani keltirishni lozim topdik: Mag'rur va g'olib Chingizzon O'tror hokimi Inolchiq Bahodirni asir olgach, xon uning qo'yniga qo'l solib ko'rish niyatida: «Senga tuman og'asi degan unvon beraman. Men birla Gurganjga borib, aholisini taslim bo'lmoqqa buyurasan», deb sinovchan nigoh bilan bilan qaradi. O'sha zahoti:

— Men o'z ulusimga xiyonat qilmaymen,— dedi Inolchiq, uning gapini cho'rt kesib. — Dushman xizmatiga kirmasmen!

Senga oltin va kumushlar in'om etayin...

Oltiningda kerakmas, kumushingda! Meni sotqun ola bilmassen!

O'tror bahodirining mardligini Chingizzon tan oladi, uni azoblab o'ldiradi».

Biroq Inolchiqning mag'rur so'zlari, ona-Vataniga va xalqiga xiyonat qilmasligi ibratu hikmatdurki, bizning ajdodlarimiz shu qadar jasur bo'lganliklari bilan qalbimiz faxru g'uurga to'ladi. Hind daryosining o'n arshinlik sohilidan suvga sakrab tushib, narigi tomonga salomat chiqib olgan Jaloliddin Manguberdining jasoratiga qoyil qolgan Chingizzon: «Otadan dunyoda hali bunday o'g'il tug'ilmagan, u sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda nahang kabi botir», deb hayratga tushib, uni ta'qib qilishni to'xtatadi. Ushbu jasoratni O'zbekiston Qahramoni shoir Abdulla Ori pov «O'zbekiston» she'rida quyidagicha tasvirlaydi:

*Seni Chingiz g'azabga to'lib,  
Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan.  
Jaloliddin samani bo'lib,*

*Sakrab o'tding Amudaryodan.  
Sensan o'shal samanim manim,  
O'zbekiston vatanim manim.*

Amudaryodan sakrab o'tgan o'sha buyuk inson ruhi O'zbekiston degan buyuk mamlakatning tolmas, yengilmas va muqaddas ramzi bo'lib qoldi.

Vatan deganda, bobo-momolarimiz, butun ajdod-avlodlarimiz o'tgan, kindik qoni to'kilgan ona Yerni tushunamiz. Ajdod-avlodlarini bilgan va qadrlagan inson uchun ular yashagan makon jonajon Vatanidir. Ushbu muqaddas so'zning mazmun va mohiyatini dildan sezgan dono, siyosatchi va g'olibkor jahongir Amir Temur (1336–1405) yoshlik chog'laridayoq ona-Vatan taqdirini diliga tugib, kuyib-yonib yashadi, xalqi uchun hamma balo-qazolarga qalqon bo'lib turdi. Buyuk sarkarda qaysi xalqning farzandi va bu xalq naqadar ulug'ligini haqli ravishda faxru g'urur bilan o'zi ta'rif etadi:

*Biz Kim – mulki Turon,  
Amiri Turkistonmiz.  
Biz Kim – millatlarning eng  
Qadimi va eng ulug'i  
Turkning bosh bo'g'inimiz.*

G'oyat ulkan sultanat – mulki Turonni mo'g'uldek yovuz dushmanidan xalos etish va ona-Vatanni tevarak-atrofidiagi ko'z tikib turgan g'anislardan himoya qilish, davlatni boshqarish, yana eng muhimi xalq farovonligini ta'minlash Amir Temurning yelkasida ediki, bunday ulug' vazifani bajarish uchun g'oyat tadbirkor va dono yo'lboshchi kerak edi. Turon zamin xalqlarining baxtiga Amir Temur mana shunday buyuk inson bo'lib dunyoga keldi, bu ham Allohnинг ulug' inoyati edi. Vatanni muqaddas bilgan Amir Temur ot ustidan tushmay, bosqinchchi dushmanidan vatanni xalos etib, Movarounnahr xalqiga erk va omonlik bag'ishladi. Birorq Amir Temur sultanati o'zaro nizolar tufayli halokatga yuz tutib, keyinchalik tashkil topgan Xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar bu muqaddas boy o'lkaning xomashyolari, tabiiy boyliklari hamda arzon ishchi kuchlari ko'z tikib turgan chet el bosqinchilariga osongina keng yo'l ochib berdi. Chor Rossiysi bosqinchilar Ona-Vatan boyliklarini taladilar. Bosqinchchi hech qachon vatan egalariga do'stu qadrdon bo'lmaydi, qahramonona ishlar ham qilmaydi. Uning niyati faqat boylikni talash, tekin yeish va xalqni qanday bo'lmasisin

asoratda saqlash bo‘ladi. Chor Rossiyasiga qarshi ku rashlarda Madali Eshon dadil kurash olib borib, asirga tushgach, sudda rus huquqshunoslari Madali Eshondan so‘raydi:

— Nega xalqni qo‘zg‘olonga ko‘tarding?

— Nega ona-Vatanning mard o‘g‘lonlari bosqinchilarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarmas ekan... vijdoni bo‘lsa ona-Vatani va xalqi ozodligi uchun qo‘zg‘olon ko‘taradi-da!

Barkamol yosh avlodga Vatanning muqaddas ekanligini tushuntirishda shu vatan uchun jon fido qilganlarning tarixini o‘rgatish, ularning Vatan ozodligi yo‘lida qo‘rqmas, tengi yo‘q qahramonlik ko‘rsatgan mardligini bayon etish tufayli erishish mumkin. Mutafakkir Monteske ta’kidlaganidek: «Bolalarda Vatanga Muhabbat uyg‘otishning eng yaxshi vositasi otalarning Vatanni sevishlaridir». Chor Rossiyasining istilochilik, bosqinchilik harakatiga qarshi ku rashda xalqimizning fidoyi farzandlari Namoz Pirimqulov, Haydar Yo‘ldoshev, Nazirxo‘ja Abdusalomov, Abdurahmon Jevachi, Rahmon Jaynoq, To‘raqul Elbekov kabi millat qahramonlarining xizmati unutilmas xotiraga aylandi. Millatimiz madaniyatini, ma’naviy salohiyatini saqlab qolishda jadidchilik harakati, uning mashhur millat manfaatini har narsadan ustun qo‘yadigan ulug‘ ma’rifatparvarlari Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919), Abdurauf Fitrat (1884–1938), Abdulla Avloniy (1878–1934), Cho‘lpon (1897–1938), Abdulla Qodiriy (1894–1938), Ubaydulla Xo‘jaev, Munavvar qori, Polvonniyoz Hojiyusupov kabilar o‘z oldilariga mahalliy xalqni ma’rifatli qilishni chor mustamlakachilariga qarshi milliy mustaqillik uchun kurash olib borib, erk va ozodlikka erishishni asosiy maqsad qilib qo‘ydilar. Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlaganidek: «Butun umrini imon va e’tiqod, vatanparvarlik va insonparvarlik, poklik va halollik, ilm va ma’rifat, adolat va diyonat yo‘lida fido etgan zotlarning mo‘tabar xoklari makon topgan zamin-gina muqaddasdir. Agar shunday insonlar bo‘lmasa, ular da-hosining nafasi sezilib turmasa, har qanday zamin oddiy tup-roq bo‘lib qolaveradi». Dunyoni larzaga solgan «inqilob», 1917 yilgi oktabr rejalarini Turkiston xalqlarining boshiga kulfatlar yog‘dirib, Ona diyorimizga kelgan bolsheviklar millatdoshlarimizni begona yurtlarga badarg‘a qildilar, ilg‘or fikrli, xalqning dardiga darmon bo‘ladigan tadbirkor vatanparvarlarni, millatimizning faxri, gultojisi bo‘lgan dono ziyo-

lilarni, taniqli rahbar-yo'lboshchilarni qirib tashladilar. Milliy g'urur, urf-odatlar, an'analar, e'tiqod, or-nomuslarga oid bo'lgan milliy o'zlik, o'zlikni anglashga chek qo'yildi.

Millatning xo'rلانishiga, inson imon-e'tiqodining oyoq osti qilinishiga, urf-odatlar, an'analarning qayta hur, pok bo'lib tiklanishiga imkoniyatni Mustaqillik in'om etdi. Mustaqillikka erishgan Vatanning qaddini rostlash, og'ir iqtisodiy tanglikdan chiqish, madaniy-ma'naviy ezilishdan sog'lom mafkuraga erishish, mafku radagi g'oyaviy bo'shliqnini to'ldirish, xalqning iqtisodiy ahvolini yaxshilash dastlabki yillarda asta-sekinlik bilan bartaraf etildi. «Istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan yaratadigan bo'ldik. Hayotimiz va umumiylar xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizga, umume'tirof etilgan demokratik noyob tarixiy imkoniyatga ega bo'ldik», deb baho berdi Prezidentimiz I.A. Karimov.

Prezidentimiz Vatan mustaqilligini g'oyaviy, ilohiy orzu qilgan al-Hakim at-Termizi (vaf.869), Iso at-Termizi (824–892), Imom al-Buxoriy (810–870), al-Farg'oniy (797–865), Abumansur Moturudiy (vaf.945), Burhoniddin Marg'inoniy (1123–1197), Alisher Navoiy kabi ulug'larning ruhlarini shod etib, ularning ruhi poklarini qalban his etib, ma'naviy merosimiz tarixini mukammal o'rganishni amalga oshirdi. Eng muhimi millatimizga xos urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar tiklandi, milliy o'zlik, o'zlikni anglash g'oyalari hayotda o'z o'rnini topdi. Vatanga muhabbat, o'z xalqiga sadoqat, kelajakni oldindan ko'ra bilish, o'sib keelayotgan yosh avlodga g'amxo'rlik, qariyalarni hurmatlash, kam ta'minlangan oilalarga, nogironlarga g'amxo'rlik qilish kabi fazilatlar shakllandi. Ushbu oddiylik, kamtarinlik, xolisona munosabat, qatiqqa'llik, o'z so'zi ustidan chiqish, ogoh va hushyor bo'lish, Vatan tinchligi, osoyishtaligi, mudofaa qudratini va xalqlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlash, dunyoda tinchlik o'rnatish asnosida O'zbekiston mustaqilligi yildan-yilga mustahkamlanib, taraqqiyot yo'li nurli bo'lib bormoqda. Mustaqil Vatanimizga nazar solar ekanmiz, O'zbekiston – ozod diyor, obod o'lka, mehmondo'stlikda saxovatli, dushmanqa qattiq adovatli, haqiqatda engadolatli Vatan deb aytishga haqlimiz.

## AJDODLAR AN'ANASI

*Ota – aql, Ona – idrok.*

Jamiyatimizning tayanchi, poydevori oila hisoblanadi. Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyo-ga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go'zal mo'jizalaridan biri bo'lib, u insonlarga xos «tabiiy-biologik» (jinsiy munosabatlar, bola tug'ish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro'zg'orni boshqarish), huquqiy (nikohni davlat yo'li bilan qayd etish), ma'naviy (er-xotin, ota-onsa va bolalar o'rtasidagi mehr-oqibat tuyg'usi va boshqalar) munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

Oilani tashkil etish va boshqarish hamisha katta aql hamda tafakkurni talab qilgan. Shuningdek, aql oilani har qanday noxushlik va balo-qazolardan saqlab qolganligi sharqona hikmatlarda o'z ifodasini topgan. Shohnomanavislik asoschisi, she'riyat sultonasi Abulqosim Firdavsiy (934–1020) ning qiyosiy tahlilida aqlga quyidagicha ta'rif beriladi:

*Aqldan hamlik, shodlik, o'ktamlik,  
Aqldan borlig'u yo'qlig'u kamlik.*

Oila tarbiyasida ma'naviyatli va odob-axloqli ota-onsalarimizga xos aql-zakovat maktabi xususida qu'yidagi mulohazalar bayon etilgan: «Umrni g'animat biling!», «O'z qadr-qimmingizni saqlang!», «Bo'lar-bo'lmasga g'am-tashvish chekavermang!», «Har ishda o'rtachalik yaxshi ekanligini unutmang!». Payg'ambarimiz s.a.v.qayd etganlaridek, «Bu dunyo deb, u dunyodan, u dunyo deb, bu dunyodan voz kechmanglar!».

Oilaga nisbatan ijtimoiy birlik deganda, ikki jinsdagiy yoshning bir jamoa – oila bo'lib qo'shiluvini, tinch-totuv turmush kechirishini anglash lozim. Darhaqiqat, bu ijtimoiy birlik yigit va qizning o'zaro ixtiyoriy xohish-istagi, mehr-muhabbati asosida barpo etiladi va u ko'p qirrali, murakkab hayotga kiradi. Chindan ham hayot va turmush ko'p qirrali va murakkabdir, chunki oilaning o'ziga xos xususiyatlari,

oila a'zolarining bir-biriga nisbatan burch, talab va vazifalari mavjud. Chunonchi: otaning burch va vazifalari, onaning burch va vazifalari, farzandlarning burch va vazifalari, shularga og'ishmay amal qilinsagina, oila mustahkam va ishonchli bo'ladi. Erdan uy-ro'zg'orni moddiy ta'minlash, ma'naviy-ruhiy qo'llash, xotiniga, farzandlariga hurmat-ehtirom, ularga nisbatan mehr-muhabbat va har tomonlama g'amxo'rlik, va-fodorlik va shu kabilar talab qilinadi. Sharqona odob-axloq ajdodlarning avlodlarga qoldirayotgan munosib tuhfasi, be-baho tarbiyasining mevasidir. Ana shu ta'lim-tarbiya jara-yonining boshlang'ich nuqtasi ota ibratining farzandga o'tishi, o'tganda ham otaga xos Vatanga, xalqqa, oilaga muhabbat, mardlik, jasurlik, mehnatsevarlik, halollik, ibrat, dushman-larga nafrat, ishyoqmaslarga, ikkiyuzlamachilarga nisbatan shafqatsiz bo'lish hamda xalqimiz urf-odatlari, an'analari, qadriyatlariga hurmat tuyg'ularining singdirilishi asos bo'lib xizmat qilgan. Sharq xalqlari otaga nihoyatda katta hurmat bilan qaraydilar, uni e'zozlaydilar, oilaning poydevori, shohi, ta'minotchisi, himoyachisi, tarbiya maktabining ustoz deb undan faxrlanadilar. «Ota – oilaning podshosidir», deydi mutafakkir Abu Lays as-Samarqandiy<sup>1</sup>. Bu ta'bir zamirida g'oyat ulkan g'oya yashirin.

Oila, ota va uning ibratli turmush tarzi to'g'risida buyuk allomalar o'z fikr-mulohazalarini taqdim etganlar:

*Ota-onalarni rizo etuvchi bolalardan janob Alloh ham rizo bo'lur (Hadisan).*

*Otalaringizga ezgu(yaxshi)lik qilingiz, sizlarga bolalaringiz ezgulik qiladi (Hadisan).*

*Otaga muhabbatingni saqla, agar sen otaga bo'lgan mu-habbatingni yo'qotsang, Alloh seni har turli fayzlardan mahrum qilur (Hadisan).*

*Otasining vafotidan keyin ham, uning hayot vaqtidagi do'stlarini do'st tutgan odam yaxshilarning yaxshisidir (Hadisan).*

*Otaga itoat qilmoq Allohga itoat qilmoqdir. Otaga gum-rohlik qilmoq Allohga gumrohlik sanalur (Hadisan).*

*Otaning do'stini hurmat etmoq yaxshilikdir (Hadisan). Sening o'zing ham, moling ham otangnikidir (Hadisan).*

<sup>1</sup> Abu Lays as-Samarqandiy. Bo'ston ul-orifin. Toshkent, «Cho'lpon» nashriyoti, 1992. 22-bet.

*Farzand otasining molini boshqaruvchidir va boshqarishga javobgardir (Hadisdan).*

*Kimki qabrdagi otasining rizoligini tilasa, otasining yanqinlarini ziyyorat qilsin (Hadisdan).*

*Hech bir ota bolasiga yaxshi odobdan ortiq hadya berolmaydi (Hadisdan).*

*Alloh otalaringiz nomi bilan ont ichmoqni taqipladi (Hadisdan).*

*Ota bo'lmagan, ota qadrini bilmas (Amir Temur).*

*Otangdan ayrib qolganingga ortiqcha o'kinma... Akang bo'lsa, otang o'rnida ko'r, anga farzandlik burchlarini ado et. Inilaring bor ersa, alarga otalik qilish sen uchun ham farz, ham qarz! (Abu Lays Samarqandiy).*

*Ey farzand, to tiriksan, har tong bir rakat suradan so'ng otang haqqiga tilovat qil. Yetti iqlimni otang ruhi qo'llab-quvvatlaydi (Abu Lays Samarqandiy).*

*Uylanish maslahatini solgan ota-onang yo'rig'iga yursang, aslo xato qilmag'aysan (Abu Lays as-Samarqandiy).*

*Xizmat qilgin ota-onangga*

*Unutmagan ustozingni ham. (Nizomiy Ganjaviy)*

Odob-axloq haqidagi hikmatlarda ota-onaning oila oldidagi burchlari, bir-birlariga sadoqati, o'zaro fikr almashinuvni, kamchiliklarni maslahatlashgan holda, aql bilan bartaraf etishlari alohida bayon qilingan. Donolar bisotida qayd etilganidek, «Oilada erkak podshohdir, ona esa vazirdir. Vazir faqat yaxshi maslahatchidir. Hukmdor emas. Biz bilamizki, podshoh vazirlarini xohlagan paytda o'zgartirish, almashtirish huquqiga ega, ana shuni esdan chiqarmaslik kerak. Biroq aqli vazir o'zining aql-farosati, tadbirkorligi, ishbilarmonligi bilan bunga yo'l qo'ymasligi zarur».

Ayol zimmasiga vafodorlik, shirin tavoze, muloyimlik, uyro'zg'orni sarishta-saranjom tutish, ozodalik, pazandalik, chevarlik, farzandni tarbiyalash, shirinso'zliz singari talab va vazifalar tushadi. Shuningdek, Fotima ul-Banot ta'biri bilan aytganda, erga yoqmaydigan so'zni aytmaslik, unga ma'qul tushmaydigan ishni qilmaslik, erga chiroyli va go'zal bo'lib ko'rinish, xullas, erga xush keladigan narsalarni bekamu ko'st, darhol bajarish lozim. Ana shundagina oila mustahkam bo'ladi, er-xotin o'rtasida mehr-oqibat orta boradi. Oila bir gulshanki, unda muhabbat

chechagi qiyg'os ochilur. Oila bir bog'durki, unda orzu-umid daraxtlari meva tugadi. Oila bir qasrki, baxt naqshlari rango-rangdir. Oila bir ummonki, his-tuyg'ular to'lqinlari ko'zni quvontiradi.

Xullas, bu xususda rang-barang hikmat durdonalari mav-judki, quyida biz ulardan ayrimlarini e'tiboringizga havola etamiz:

*Xotinlarga eng qimmatli kishi, o'zining eri, erlarga eng qimmatli kishi onasidir (Hadisdan).*

*Avvalo onangga yaxshilik qil, so'ngra otangga (Hadis-dan).*

*Alloh taoloning kuchsiz xalqi bo'lgan xotinlarni urman-giz (Hadisdan).*

*Jannatga kiraman degan odam onalarning rizoligini olsin (Hadisdan).*

*Sizning ezgu niyatda bo'lganiningiz – xotiningizga ezgu bo'lganiningiz (Hadisdan).*

*Rasuli Akrom (sallollohu alayhi vassallam) dan: «Mo'-minlar orasida qanday mo'minning imoni komil bo'lur?» deb so'raganlarida, «xotiniga yaxshi bo'lganning» deb javob ber-ganlar.*

*Alloh qoshida ko'p bola tuqqan xotin bola tug'magan go'zal xotindan ortiq seviklidir (Hadisdan).*

*Er bilan xotin bir-biriga marhamatu muhabbat nazari bi-lan qarasa, bir-birlariga izhori muhabbat qilishsa, butun gunohlari barmoq oralaridan to'kiladi (Hadisdan).*

*Insonlarning saodat(baxt)lari xotinlar oldidadir (Ha-disdan).*

*Odamning uyida tadbirli va tarbiyali bir xotin bo'lmasa, ahvoli tashvishli bo'ladi (Hadisdan).*

*Bolalarini ko'rib, onalarning ilmu tarbiyasini, nazofatu ongini anglarsiz (Rizouddin ibn Faxruddin).*

*Xotinlarning jilmayib kulmoqlari naqadar yoqimli bo'lsa, qiyqirib kulishlari shul qadar yoqimsizdir (Rizouddin ibn Faxruddin).*

*Dunyoning baxtsizlari tarbiyali xotin ila tarbiyali boladan mahrum bo'lgan zotlardir (Rizouddin ibn Faxruddin).*

Oila – sevgi asosida bir-birini tushungan ota-onalar, o'z burchlarini to'g'ri bajara oladigan, har qanday sharoitda bosiq, o'zlarini aqlan boshqara oladigan, jismonan baquvvat, odob-axloqda hikmatlar durdonasiga amal qiladigan fazilatli

maskandir. Sevgi-muhabbat haqida cheksiz hikmat durdonalari yaratilganki, ular yosh oilalarni mustahkamlash uchun xizmat qilib kelmoqda. Sevgi va uning oiladagi ahamiyati haqida taniqli mutafakkir ayol Robia-i Adaviyya quyidagi baytni keltiradi:

*Sevaman! deysanu, etasan isyon,  
Bu holing ajabdir, bo'laman hayron.  
Itoat qilgin-da, sevsang gar albat,  
Sevgan suyganiga etar itoat.*

Sevgiga sodiqlik oila shakllangan kundan boshlanadi. Bu haqda g'azal sultonlardan biri Jaloliddin Rumiy (1207–1273) ning baytlarida shunday deyiladi:

*Laylini ko'rди shoh, dedi: «Hoy!  
Sen misol Majnunni yondirgan chiroy?  
Lek chiroying o'zgadin afzal emas...»,  
Qiz dedi: «Bas, chunki sen Majnun emas!»*

Bu izohda sevgi rang, bo'y, qomat, go'zallik tanlamaydi, sababi yurakdan sevish har qanday narsadan ustun, degan g'oya singdirilgan. Demak, oilaning sevgi asosida shakllanishi uning chin yurakdan seva olishi bilan bog'liq ekanligidadir. Sevgi asosida qurilgan oila baxt va muhabbatni o'zida jam qilgan she'rlarda aks etganligini shoir T.Mahkamovning quyidagi misralaridan bilishimiz mumkin:

*Dur yog'ilar ko'zlariningdan, quyoshmisan yo Hulkar,  
Nur sochuvcchi yulduzlarga sirdoshmisan yo Hulkar.  
Yoki yongan yuraklarga bardoshmisan sen o'zing,  
Ko'zlariningda kulib turgan oftob bormi Hulkarim?  
Hayratlanib savol birla goh boqasan men tomon,  
Nelarnidur aytolmasdan qiyalursan ko'p zamon,  
Yo sevgimga ishonmassan, o'ylaringda ming gumon,  
Yo ko'nglingda ishq bobida hisob bormu Hulkarim?  
Olam aro o'zingmisan tengi yo'q bir tanho zot,  
Husn aro ruxsoringning ta'rifi yo'q parizod,  
Necha oshiq visolingga yetmay chekar oh-faryod,  
Yor dardida men kabi betob bormu Hulkarim?*

Oila mazmun va mohiyatiga ko'ra har bir xalq, har bir millat uchun o'ziga xos e'tiborli xususiyatlarga ega. Sharqda oila tushunchasi, oila qurish va uning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta'minlash muqaddas hisoblanadi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: «Bunda o'zaro hurmat va

qattiq tartib bo'limasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlari-ni ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va ya-qin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliv darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir».

Shuning uchun ham mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillardan oila farovonligini ta'minlash hukumatimiz faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Buning uchun oilaning mustahkamligi, farovonligi va barqrarorligini uzviylashtirish bilan bog'liq barcha masalalarni o'zida mujassam etgan muhim ishlar amalgalashirildi. Vatanimiz mustaqilligining qisqa davri ichida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, fuqarolarning huquqiy ma'rifatini oshirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan, nochor oilalarni, nogironlarni, qarovchisiz keksalar, yolg'izlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilada ma'naviy va jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalgalashirildi.

Oilaning o'ziga xos qator vazifalari mavjud bo'lib, uning asosiy va muhim vazifalaridan biri farzand ko'rish, ajdodlar davomiyligini, yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlashdan iborat. Oiladagi reproduktiv faoliyat er-xotin, qaynona-kelin, qaynota-kuyov o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlaydi, qon-qarindoshlar ichida mehr-muhabbat rishtalarini qattiqroq bog'laydi. Xalqimizda «Bolalik uy bozor – bolasiz uy mozor», degan gap bor. Bolalik uvida shodu xurramlik, tinchlik-osoyishtalik hukm suradi. Bunday oilaning har bir kuni mazmunli, rejali va aniq maqsadli o'tadi. Farzandsiz oila aksariyat hollarda notinch, omonat va hatto barakatsiz, nursiz hamda fayzsiz bo'ladi. Bunday oilada er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlar go'yoki soxta, omonatdek kechadi, hatto o'z oilasiga, atrofdagilarga, qo'ni-qo'shnilarga, qarindosh-urug'larga, hayotga, umuman, turmushga munosabatlari yuzaki, kelajakka intilishlari maqsadsiz bo'lib, ular ota-onalik mehr-muhabbati, mehr-muruvvati kabi yuksak hissiyotdan bebahra qoladilar.

O'zbek oilalari ko'p bo'g'inli bo'lib, aksariyat hollarda qaynona-qaynota, o'g'il va kelin, qayin aka va qayin singil, opa, nevaralar birligida yashashadi. Bunday oilalar shu oilaning o'zi uchun xos bo'lgan o'zaro hurmat, mehr-oqibat, hamkorlik rishtalarining mustahkamligi va shu kabi axloqiy qadriyatlarning keyingi avlodlarga yetkazilishida muhimdir. Shuningdek, oiladagi katta kishilarning yoshlarga oila saboqlarini, ro'zg'or va bola tarbiyalashdagi tajribalarini, yutuqlarini kelin, o'g'il va qizlariga o'rgatishlari oila mustahkamligini ta'minlash uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Qaynota-qaynona bilan bir oilada yashaydigan kelin uchun baxt va saodat eshigi ochiqdir. Chunki boshqa oila sharoitida o'sib tarbiyalangan qiz bola begona oilaga kelin bo'lib tushadi, har bir oilaning o'z ichki tartib-qoidasi bo'lib, unga amal qilgan, izzat-ikromini joyiga qo'ygan kelingina shu oila a'zolari, shu avlod o'rtasida hurmat topadi, palak yozadi. Bu o'rinda qaynona-qaynota o'giti, tajribasi, ta'lim-tarbiyasi, namunasi kelin uchun mayoq hisoblanadi. Xalqimiz o'rtasida «Qarisi bor uyning parisi bor», «Qaynonasiz kelin masxara kelin», «Qari bilganni pari bilmas» kabi maqollar bejiz paydo bo'lмаган.

Oilaning vazifalaridan yana biri iqtisodiy-moliyaviy faoliyatni to'g'ri yuritish hisoblanadi. Katta jamiatning o'z iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy masalalari bo'lganidek, oilaning ham o'ziga yarasha iqtisodi, jamg'armasi, byudjeti, kirim-chiqimi, daromadlari kabi jihatlari mavjud. Oila a'zolarining shu oilaga taalluqli daromadlarini rejali sarflashi, kundalik turmush uchun zarur bo'lgan ro'zg'or asbob-anjomlarini, kiyim-kechaklarini va oziq-ovqat mahsulotlarini me'yor bilan xarid qilishi, tejamkorligi, isrofgarchilikka yo'l qo'ymasligi — shu oilaning har tomonlama gullab-yashnashi uchun mustahkam zamindir. Oilani iqtisodiy rejalaشتirish, oila jamg'armasidan oqilona foydalanish oila boshliqlaridan juda katta boshqaruva, tadbirkorlik va rahbarlik mahoratini talab etadi. Albatta, bu o'rinda oila boshliqlarining hayotiy tajribasi, nazariy va amaliy bilimi, ishbilarmonligi, tadbirkorligi oilaning boshqa a'zolariga namuna bo'lмog'i zarur. Chunki har bir oila o'z moliyaviy mavqeい jihatidan alohida daxlsiz sultanatdir, bu saltanatning moliya vaziri ota hisoblanadi, o'rinbosari esa, shubhasiz, onadir.

Oilaning eng muhim vazifalaridan yana biri tarbiya hisoblanadi. Zotan oila — tarbiya maskanidir. Aynan shu maq-

sadda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni, balki ulardag'i xatti-harakat, odob-axloq fazilatlarini ham o'zlashtirib oladi. Ota-onasiga o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, inson-parvarlik kabi qadriyatlar ona suti, ota o'giti, ularning ibrati bilan farzandlarning xatti-harakati mazmuniga singib boradi. «Qush uyasida ko'rghanini qiladi», degan gaplar oila tarbiyasi ning tub negizini, kerak bo'lsa mohiyat o'zagini tashkil etadi.

Bolaning axloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, ma'naviy, gigiyenik, jinsiy tarbiyasida oila asosiy omil hisoblanadi. Bu o'rinda ota-onasiga — san'atkori, bola — san'at asari, tarbiya jarayoni esa — yaratilgan yangi asardir, to'g'riroq'i san'atning o'zidir. San'at asarining muvaffaqiyati, jozibadorligi, umrboqiyligi san'atkorning mahorati, saviyasiga bog'liq bo'lganidek, badiiy asarning kuchi, ta'siri adibning didiga, uning hayotni teran anglashiga bog'liqdirdi. Bolani tantiq, injiq, erka, «Tegma nozik — tilla qoshiq» qilib o'stirmaslik haqidada ko'p gapiramiz, hatto ko'p va xo'p eshitib kelamiz. Lekin bu bolani erkatalish, erkakash, uni ovutish, kerak bo'lsa suyish, sevish man etilgan degani emas, balki uni erkakash tarbiya mezonlaridan biri. Bolalar, umuman, go'daklar, ayniqsa, o'ta qiziquvchan, aytganini qildiradigan bo'ladi, shundan xalqimizda bir ajoyib maqol bor: «Bola zo'rmi, podsho». Shu maqol asosida g'aroyib naql vujudga kelib, u xalq orasida yuradi. Aytishlaricha, qadimda bir podshoh o'z nevarasi bilan ertalabki nonushtani qilayotgan ekan. Xizmatkorlar ularga sut olib kelishadi, bola sut emas, suv ichkisi kelayotganini aytadi, suv olib kelishadi. Bola bobosi shohga sut bilan suvni aralashtirishni so'raydi, bu ham yetmagandek, endi sutni suvdan ajratib berishni talab qiladi. Buni hech kim bajara olmasligi aniq! Xalqimiz dono va donishmand xalq, uning yaratgan maqollarida ham bu sezilib turadi. Chunonchi: «Bola aziz, tarbiyasi undan aziz». Bola tabiiy zo'mlik, zo'rlik qiladi, xarxasha qilishi mumkin, bularni bolaga ovutib yoki erkabalay aytilsa, bola buni tushunadi, uni bu xil holatda jerkimaslik lozim, jerkish uni battar xurujga soladi.

Oilada bo'sh vaqtini samarali tashkil etish oilaning asosiy vazifalaridan biridir. Bo'sh vaqt jamiyatning muhim ijtimoiy qadriyatlaridan hisoblanadi. Oilada bo'sh vaqtini faol tashkil etish, ya'ni kitobxonlik, mehnat, shuningdek, muzey, kino, teatr, konsert, tarixiy obidalarga, qadamjolarga sayohatlar uyshtidi.

rish oila barkamolligini ta'minlashning muhim vositasidir. Sharqona odob-axloqqa oid xalqimizning «Sayohat – dilga rohat», «Sayohat – tanga rohat. Tan emas, jonga – rohat», «Sayyohning orzusi – dovon oshmoq» kabi maqollar ibratli dam olishning mazmun va mohiyatining naqadar ulug' ekanligini asoslab beradi.

O'zbek oilasiga xos bo'lgan yana boshqa e'tiborli xususiyatlar mavjuddirki, ular uzoq yillar davomida shakllanib, qadriyat darajasiga ko'tarilgan va bugungi kunda ham o'z ta'sir kuchini saqlab qolmoqda. Oila, umuman, oilaning ko'p bo'g'inliligi (oilada bobo, o'g'il, kelin, nevara-chevaralar birga yashaydi), bolajonlilik, serfarzandlilik, mehnat taqsimotining qat'iyligi, oila jamg'armasining ota-onha tomonidan boshqarilishi, oila kichik a'zolarining kattalarga izzat-ikromi, bo'ysunishi, oilada erkakning muhim qadri va o'rni, ota-onaga nisbatan munosabatning alohida ahamiyat kasb etishi, ayollariga nisbatan ehtirom, ularni avaylab-asrash hissining kuchliligi, oila g'ururi, sha'nini himoya qilish har bir oila a'zosi uchun burchga aylanib qolganligi, tug'ilib o'sgan joyga nisbatan alohida mehr-muhabbat tuyg'usining zo'rligi, o'troqlashishning an'anaviyligi va boshqalardan iborat.

Oilada har bir ota-onaning vazifasi o'z oilasida teran sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va farovonligiga erishish uchun bilimli, aql-zakovatli, uddaburon, jismoniyligini va ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. Oila an'analari, kasb-kori, shajarasining davomiyligini ta'minlash, bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga erishish buning ajralmas bo'lagi hisoblanadi. «Ota hunari – bolaga meros» maqoli har bir oila uchun muqaddasdir. Shuningdek, oilada giyohvandlik, maishiy noplilik, axloqsizlik, nosog'lom e'tiqod, aqidaparastlik, xoinlik kabi ba'zi bir illatlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun mutazam tarzda odob-axloq tarbiyasini takomillashtirish eng muhim masala hisoblanadi.

Oilada kimning qanday ishlar bilan shug'ullanishi, oila a'zolarining bir-birini bilishlari, gohida tergab turishlari ham zarur hodisa. Deylik, oiladagi o'g'illardan yoki qizlardan biri uyga kechikib, o'z vaqtida kelmaydigan odad chiqara boshlaydi. Buni, albatta, dastlab opa-singillar va aka-ukalar, keyinchalik esa ona, hatto, bora-bora ota ham sezib qolishi muqarrar. To'g'ri, avvaliga ota buni bilmasligi

mumkin. Ona, aka-uka yoki opa-singillar o'sha noxush voqeа va hodisaning, o'g'il yoki qizning nojo'ya xatti-harakat qilishi yoxud noto'g'ri yo'lga kirishining oldini olishlari lozim. Bu ishni o'g'il yoki qiz hech qanday sababsiz kech kelgan birinchi kundanoq boshlash kerak, chunki keyin kech bo'ladi. Basharti o'g'il yoki qiz sarkashlik qilib, onaga monelik bildirsa, to'g'rirog'i, bunga onaning kuchi yetmasa, ud-dasidan chiqa olmasa, bunday hollarda voqeа darhol otaga yetkazilishi maqsadga muvofiq. Xalqimizda otaning oiladagi o'rni to'g'risida: «Ota so'zi — pichoq. Ona so'zi — qumaloq» yoki yana: «Ota qarg'ishi — o'q. Ona qarg'ishi — do'q», degan hikmatga aylangan maqollar aynan shunday vaziyatlarni bartaraf etish jarayonida paydo bo'lgan. Bu vazifani aslo kechiktirish mumkin emas, zinhor paysalga solmaslik kerak, agar kechiktirilsa, oqibati juda og'ir, musibatli bo'lishi mumkin. Bu bilan oilada bola tarbiyasida juda ehti-yot bo'lish, pinhoniy nazoratni yo'lga qo'yish lozim, degan fikrni ilgari surmoqchimiz. Zotan, bir oila notinch bo'lsa, unda urish-janjal ko'paysa, butun mahalla bezovta bo'lishi mumkin, shuningdek, bir oila maishiy buzuq bo'lsa, demak, xalqning obro'siga putur yetadi. Shuning uchun bir oiladagi noxushlikni ota-ona eplay olmasa, shu oilaga qo'ni-qo'shnilar, albatta, yordam qo'lini cho'zishi maqsadga muvofiqli. Demak, oila jamiyatning asosiy negizi bo'lib, uning mustahkamligi va farovonligidan jamiyat manfaatdordir.

Darhaqiqat, donolarimiz ta'biri bilan aytganda, «Oila — jamiyatning duru-gavharidir». Ushbu duru-gavharning musaffoligini ta'minlash, atrofdagilarga ta'sirchanligini oshirish, odamlar muhabbatiga erishish oilaning har bir a'zosidan juda katta mas'uliyat talab etadi. Oila deb atalmish muqaddas sultanatning toptalishi, buzilishiga yo'l qo'yish, uning sha'nini bulg'ashga hech kimga haq-huquq berilmagan, zero oila — davlat tayanchi, baxt va saodat beshigidir. Odob-axloqli oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dun-yoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas makondir. Ushbu mo'jaz makon, jozibali maskan jamiyat deb atalmish buyuk bir mo'jizaning poydevorini tashkil etadi, jamiyatning, davlatning farovonligi, gullab-yashnashi aynan shu asos — tamalning mustahkamligiga bog'liqidir.

## MUSTAHKAM OILA — JAMIYAT KO'RKI

*Oila – aziz va muqaddas maskan.*

Milliy ma'naviyatimizga xos odob-axloqqa tayangan O'zbek oilasi o'zining barkamolligi, farovonligi va mustahkamligi bilan butun dunyoga namuna bo'lishi uchun mustahkam poydevorga ega. Poydevori mustahkam bino esa asrlar osha hayot to'fonlariga bardosh berib, qaddi bukilmaydi. O'zbek oilasi ham xuddi shunday poydevori mustahkam, qaddi tik qal'a hisoblanadi. Bu qal'aning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manfaatlari davlat, jamiyat diqqat-e'tiborida ekan, unga hech qanday yovuz kuch, g'oya, qiyinchilik ta'sir etmaydi, aksincha u barqarorlashadi, mustahkam va farovon bo'lib boradi. Oila deb atalmish muqaddas Vatanda istiqomat qiluvchi insonlar bir-birlari bilan axloqiy, huquqiy, ruhiy, iqtisodiy aloqalar tufayli muomala-muloqotga kirishadi. Ular yashash uchun mehnat qiladilar, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida sa'y-harakatini amalga oshiradilar.

Inson paydo bo'libdiki, u o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun harakat qiladi. Darhaqiqat, xoh moddiy bo'lsin, xoh ma'rifiy bo'lsin, xoh ma'naviy bo'lsin, xoh huquqiy bo'lsin, xoh axloqiy bo'lsin, xoh jismoniy bo'lsin odam shu kabi ehtiyojlarini qondirish yo'lida hech qanday narsadan qaytmaydi. Insonning qabihligi yoxud buzuqligi ham, yaxshiligi va ezunguli gi ham shundan kelib chiqadi. Insoniyat tarixidan ma'lumki, inson moddiy ehtiyojni hamisha birinchi rejaga qo'yadi. Bugungi kunda bu xususda xalqning «Avval iqtisod — keyin siyosat» degan naqli shior darajasiga ko'tarildi.

Hayot va turmushda «Kichik bir oila iqtisodi va davlat iqtisodi» tushunchalari mavjud. Boisi pul, mol-mulk kabi oila ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan narsalar — bu oila iqtisodi. Oila iqtisodi mehnat bilan topilgan halol mol-mulk hamda tejamkorlik yo'li bilan yaratilgan narsalardan iboratdir. Bu o'rinda tarbiyashunos olim mol-dunyonи halol mehnat evaziga to'plash va oilada bolalarni shu ruhda tarbiyalash g'oyasini ilgari surgan. Zotan pul, molu dunyo oila iqtisodining negizini tashkil etadi, iqtisod atamasi «uy xo'jaligi» ma'nosini anglatadi. Demak, oila iqtisodi uy-ro'zg'or yuritish haqidagi bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisidan iboratdir. Abdulla Avloniy ta'rifiga ko'ra, «Iqtisod deb pul va mol kabi

ne'matlarning qadrini bilmakni aytildur», «Molu davlati ko'p bo'lgan inson boy emas, balki iqtisodchi inson boydir».

Oila iqtisodini shakllantirishda, boshqarish va nazorat qilishda uning har bir a'zosining o'rni, maqomi bo'ladi. Oila pul daromadlari avval ta'kidlaganimizdek, halol, pok yo'l bilan mehnat evaziga topilmog'i zarur, o'g'rilik, qimor o'ynash, pora, aldamchilik, fohishalik, qalloblik bilan orttirilgan boylik haromdir. Shuning uchun oila iqtisodiga qo'shiladigan hissa halol bo'lmog'i lozim, halol bilan haromni farqlay bilishni esa bola ongiga yoshlikdan singdirib borish zarur.

Odatda, o'zbek oilalarida oilaning moddiy ta'minoti erkak zimmasida bo'ladi, uning jamg'armasini tejamkorlik bilan sarflash, isrofgarchiliksiz, qut-barakali bo'lishini ta'minlash ayolning vazifasidir. Shuning uchun oila va davlatning boy, to'q, farovon turmushi ko'proq erkaklarga bog'liq, zotan tejamkorlik – oila farovonligining asosidir. Oila qanchalik to'q, farovon yashasa, shu oilada kamolga yetayotgan farzandlar ning kelgusidagi to'kin-sochin turmushiga asos solinadi. Bu esa o'z navbatida davlat va jamiyat boyligi uchun zamindir. Abdurauf Fitrat aytganidek, «Ma'lumki, yashash uchun pul va pul topish uchun sa'y va amal lozim. Tajribasizlik va zaif mijozlari ustiga ayol zoti ba'zi yillari to'qqiz oy «homiladorlik» yukini ko'tarib yuradi, bola tug'ilishidan boshlab tarbiyasi bilan mashg'ul bo'ladi. Yana borib ishlab pul topish esa ularga mushkuldir. Ishlab sa'y-harakat qilib pul topish bu erkaklar burchidir. Erkaklar bor kuchlarini ishga solib, pul topib bir qismini ahli ayollariga extiyojlari uchun sarf qilishlari lozim. Puli va boyligi bor kishilar bola-chaqalari, ahli ayollar xususida ziqnalik ustiga minnat yoki oilaga sadaqa bergandek muomala qilib, o'zi aysh-ishrat bilan mashg'ul bo'lsa, ularning zulm va insofsizlik qilishlariga zarracha shubha yo'qdir. Zulm va insofsizlik esa islomda kufr va haromdir. Bas, erkaklarning bu harakatlari ham haromdir».

Insondan pul, molu dunyo topish bir aql talab etsa, uni sarflay olish o'n marta ortiq aql talab etadi. Shuning uchun oila iqtisodiga o'ta mas'uliyat, puxta reja asosida munosabatda bo'lmog lozim. Oila iqtisodini rejalahtirmsandan turib, mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotiga munosib ulush qo'shish mumkin emas. Aksariyat, o'zbek oilalarida oila daromadi, chiqimi, kundalik ehtiyojlari, sarf-xarajatlari, har bir kishi uchun bir kunlik, bir oylik, bir yillik oziq-ovqat mahsulotlari

me'yori (non, go'sht, sut, ko'katlar, poliz mahsulotlari va hokazolar)ga loqayd munosabat mavjudligi hech kimga sir emas. Qolaversa, mavsumiy kiyim-kechaklar, madaniy-ma'rifiy savyani oshirishga, sayru-sayohatga, oilaviy an'analar, marosimlarni nishonlashga va oila a'zolarining boshqa ehtiyojlariga (yengil mashina, velosiped, texnika ashyolari va hokazo) sarflanadigan mablag' hajmi va boshqalar oldindan rejalashtirilmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida oilaning tejamkorligini ta'minlash uchun, avvalo, uning iqtisodini rejalashtirish eng zarur omillardan biri ekanini unutmaslik lozim. Xalqimizda «Rejali ish buzilmas», «Maslahatli to'y tarqamas», «Rejasiz ish — qolipsiz g'isht» kabi maqollar ham har bir ishni oldindan puxta o'ylangan reja asosida qilmoq zarur, aks holda u ish palapartish, muvaffaqiyatsiz tugashi mumkin degan ma'noda qo'llaniladi.

Oila iqtisodida jamg'armaning o'rni katta. Oilaning jami puli, daromadlari va sarf-xarajatlari oila jamg'armasini tashkil qiladi. Oilaning qancha daromadi, qancha xarajati mavjudligi jamg'armadan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilib borilishi ham zarur omil hisoblanadi. Oilaning moddiy baquvvatligi oila daromadini mohirona ko'paytirish va uni xo'jalik yuritishda mohirona sarflashga ko'p jihatdan bog'liq. Tejamkorlik esa oila farovonligini ta'minlovchi muhim moddiy-ma'naviy qadriyat hisoblanadi. Tejamkorlik — xasislik emas, balki, uning mazmunida oila mablag'ini qattiq nazorat qilish, halol mehnat evaziga kelgan pul va ro'zg'or anjom-ashyolari, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklarni qadrlash, avaylab-asrash, iqtisodiy kamchilikni chuqur bilish, ehtiyyotkorlik, nafsnidora etish, boyvachchalik orqasida bo'ladigan manmanlikdan o'zni tiyish, har bir narsadan unumli foydalana bilish mahoratiga ega bo'lish demakdir.

Mamlakatimizda hukm surayotgan bozor iqtisodiyoti har bir kishidan tejamkorlikni talab etadi, boisi oiladagi narsalarни tejaydigani inson, davlat, mamlakat boyliklarini, mol-mulkini avaylab-asraydi. Shuning uchun ham ushbu fazilat hozirgi zamon kishisi uchun hayotiy me'yor, turmush tarzini yuksak darajaga ko'taruvchi ma'naviy yetuklik mezoniadir. Insondagi «men» va «meniki» tushunchasining yuksak darajada shakllanishi «Bu oila — meniki», «Oiladagi har bir narsaga men javobgarman», «Ekin maydonlari, ishlab turgan korxona, stanok — meniki, men ularning egasiman», degan tushunchalarni

uning ongida qo'rg'oshindek mustahkam muhrlanib qolishi, o'z-o'zidan oilada, o'z o'rnida atrof-muhitga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish hissini paydo qiladi. Mustaqillik sharo-fati bilan uy-joy, korxona va tashkilotlarni xususiylashtirish, xususiy korxonalar tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l berilganligi, qishloq xo'jaligida oila pudrati, dehqon xo'jaligi, fermerlik faoliyatlarining tashkil etilganligi har bir fuqaro ongida «men» va «meniki» tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan sa'y-harakatlardir. Tejamkorlik saboqlari ota-onas, momo-bobo namunasida bola ongi, xatti-harakatiga singib boradi. Xalqimizda «Yo'lini bilgan bir yil yetim, yo'lini bilmagan ming yil yetim», «Ko'rpannga qarab oyoq uzat», «Tejamkor uyning barakasi bor» kabi naqllar shunchalik aytildi. Oiladagi katta yoshdagilarning amallari, faoliyatlar bilan xalq naqllari vositasida bolalarda oila iqtisodini yuritishda malaka va ko'nikmalar shakllanib boradi.

Me'yorsiz taom tayyorlash va uni isrof qilish, oila daromadini hisobga olmasdan kiyinish, ichish, chekish kabi illat-larga berilish, ortiqcha sarf-xarajatlar bilan to'y-ma'rakalar o'tkazishning nima zarurati bor! O'z boyligini ko'z-ko'z qilish, o'g'il uylantirayotganda yoki qizni turmushga berayotganda ehtiyojidan ortiq mol-dunyo berish, me'yоридан ko'p ro'zg'or buyumlarini hadya qilish, qudalar o'rtasidagi ortiqcha urf-odatlar, rasm-rusmlarning, oilaviy tantanalarning o'tkazilishi oila iqtisodiga salbiy ta'sir etadi.

To'y va ma'raka, motam marosimlarini o'tkazishdan maqsad o'z xursandchiligi va xafachilagini do'stu birodarlar bilan baham ko'rish, ular subbatidan bahramand bo'lish, olamdan o'tganlarning ruhini xotirlash va qadrlashdan iboratdir. Ba'zi nobakov farzandlar ota-onani tirikligida yo'qlash, yordam berish, og'ir yumushlarini yengillashtirishni xayollariga ham keltirmaydilar. Ular olamdan o'tganlaridan so'ng esa o'zlarining soxta mehribonchiliklarini, boyvachchaliklarini namoyish etmoqchi bo'ladilar. Xalqimizda bir naql bor: «Ota-onang o'lganidan so'ng ming kun yig'lagandan ko'ra, tirikligida bir kun yo'qla». Shuning uchun ota-onaga qiladigan barcha yaxshiliklarni uning tirikligida qilmoq zarur. Bu o'rinda yurtboshimizning fikrlari barcha uchun dasturilamal bo'lishi zarur. Prezidentimiz: «Ayollarimizni hurmat qilaylik, e'zozlaylik. Bu foni yunyoda onalarimizni boshimizga ko'taraylik. Qaniydi, onaginam tirik bo'lsalar, dunyonni sayru

sayohat qildirib kelmasmidim. Onalarimizning, otalarimizning umrini g'animat bilib, qadriga yetaylik», — deydi.

Darhaqiqat, turmushda zarur bo'lgan barcha narsalarga osonlikcha, mehnatsiz ega bo'lgan yosh kelin-kuyovda otiona mehnatini qadrlash, ro'zg'or buyumlarini avaylab-asrash, tejash, oilaning moddiy xo'jalik vazifasini bajarish uchun intilish qayoqda bo'lsin? Oilaning har bir a'zosi bor-yo'g'iga qanoat qilishga o'rganishi lozim. Mehnatga halol va to'g'ri yondashish, o'z kasbini sevish va kasbi orqali topgan daromadiga qanoat qilish ham oilani mustahkamlaydi. Abdurauf Fitrat bayon etganidek: «Qanoat deb janobi haq tarafidan ehson bo'lgan ahvolga yetishdu rimiz ne'mat va molga shukr, boshimizga kelgan faqr, musibat, falokatlarga chidab, sabr qilmoqni aytيلur. Qanoat, hasad, tama, hirs, xorlik kabi illatlarning da'vosi nafsimizni yig'ishimizdur». Eslatilgani kabi nafsni idora qilish, nafsga qarshi kurash, nafsn yengish, noplak qiliqlardan tiyilish insonni soflikka yetaklaydi, boylik to'plash, boylikka intilish, mol-mulk to'plashga mukkasidan tushish esa kimsalarni tubanlikka yetaklaydi. Varroq Termiziy (IX asr) aytar ekan: «Kimki o'z nafsiga mahliyo bo'lsa, kibr va hasad, xorlik va xo'rlik unga sherikdir». Yoki Sayyid Burxoniddin Termiziy (vaf. 1241)dan bir hikmat keltiriladi: «Ba'zilar bu dunyoga non yeyishga, ba'zilar nonni tomosha qilishga keladi». Bu hikmat zamirida katta tasavvufiy fikr jamuljam, «non yeyishga» kelish dunyo ne'matlariiga ochofatlik, qizg'anchiqlik, ochko'zlik alomatlariga, nafsi hakkalak otganlik illatlariga ishora bo'lsa, «nonni tomosha qilish» esa, aslida qanoat, sabr-bardosh, chidam, boriga shukr demakdir.

Mehnat bilan topilgan boylik qadrli bo'ladi, mehnatning qadrini bilganlargina boylikni qadrlaydi, tejaydi, noo'rin sarflamaydi. Shu o'rinda bir afsonani keltirish maqsadga muvofiqdir: Mo'ysafid chol keksayib kuni bitganini sezadi va oldiga yolg'iz, lekin erkatoy o'g'lini chorlaydi. Ota o'g'liga: «O'g'lim, bor mol-mulkimni senga xatlab qoldiraman. Biroq bir shartim bor. O'z peshona tering, halol mehnating bilan menga o'n tanga keltirib berasan», — debdi. O'g'il o'rnidan turib, onasi oldiga borib bo'lgan gapni aytib beradi. Ona o'g'liga o'n tanga pulni berib: «Bolam, o'rtoqlaring bilan o'ynab, aylanib, kechga yaqin qaytib kel va shu pulni otangga bering», — deb uni erkelaydi. Bola onasi aytganiday, kechroq otasi oldiga borib, onasi bergen pulni otasiga uzatadi. Ota

hovuz bo'yida o'tirgan edi, bolasi uzatgan tanganing u yoq-bu yog'ini aylantirib ko'radi-da, uni hovuzga otadi va deydi: «O'g'lim, bu pulni mehnat qilib topmagansan». Farzand vo-qeani onasiga aytadi. U onasi bilan bugungi ishni ertasiga ham takrorlaydi. Ota esa bu gal ham pulni hovuzga uloqtiradi. Uchinchi kun esa bola kun bo'yi ishlaydi, hammollik qiladi, yuk tashiydi, xullas, halol mehnati bilan o'n tanga topib, otasiga keltirib beradi. Ota esa oldingi kundagilarga o'xshab, pulni ag'darib ko'ra boshlaydi va hovuzga uloqtirayotganda bola otasiga qarab o'zini otadi va deydi: «Otajon, suvga uloqtirmang, uni hammollik qilib yugurib-yelib topdim», deb yalinadi. Shunda ota: «Ha, bu pulni o'z peshona tering bilan topibsan. Avvalgi pullarga iching achimadi, bu gal esa qiynalayapsan», degan ekan. Demak, halol yo'l bilan mehnat evaziga topilgan mol-dunyo qadrli bo'ladi, u noo'rin ketsa, jon achiydi.

Ota-onaning vazifasi farzandni zaru ratdan ortiq ro'zg'or asbob-anjomlari bilan ta'minlash, me'yorida ziyod yedirish, kiyintirish emas, aksincha, ular ongiga oila boshqarish, tejam-korlik saboqlarini singdirishdan iboratdir. Farzandlar istiqbolini o'ylagan ota-onalarga kasb-hunar sirlarini o'rgatadi. Qiziqishlari bo'yicha chuqur ilm olishlari uchun sharoit yaratib beradi, bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etadi, mehnat ko'nikmalarini shakllantiradi. Alisher Navoiy o'git qiladi: «Karam va muruvvat ota va onadurlar, vafo va hayo ikki hamzod(egizak) farzand» («Mahbub ul-qulub»dan). Sababi farzandga vafoni ham, hayoni ham ota-onalarga o'rgatadi, farzand shuuriga barcha ezmiliklarni, yaxshiliklarni, albatta, ota-onalarga singdirib boradi.

Mol yig'ish, unga moyillik insonga xos xususiyatdir. Mol-dunyo pul, buyum, qimmatli qog'ozlar, zargarlik buyumlari, qimmatbaho materiallardan bo'lgan uy-ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, nodir kitoblar va boshqalar tarzida bo'lishi mumkin. Mol-dunyo ikki xilda: biri ota-bobolardan meros, ikkinchisi tejalgan oila byudjeti hisobiga yig'iladi. Shuningdek, Abdulla Avloniy aytganidek: «Mol topmakning eng barakatli yo'llari: hunarchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarchilikdur. Bularning har biriga ham bu zamonamizda bilim lozimdir. Bobolarimizning «bo'lsa-bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar» zamonlari o'tib, o'rniga «bilgan bitar, bilmagan yitar» zamoni keldi. Chunki ota-onaning farzandlariga meros berishi qadim-

dan odat tusiga kirib qolgan. Aqlli farzand ota-onasi hadya etgan merosdan oqilona foydalanishga, uni ko'paytirishga harakat qiladi. Me'yordan ortiq meros uzoqni ko'ra olmay-digan farzandni boqimanda, dangasa, tekinxo'r, ishyoqmas qilib qo'yishi mumkin. Shuning uchun ota-onaning asosiy vazifalaridan biri farzandga meros qilib qoldirayotgan molni o'z o'rnida sarflash, rejalashtirish va boshqarish yo'l-yo'riqlaridan ham saboq bermog'i zarur. Albatta, oila a'zolarining yeyishi, kiyishi va boshqa kundalik ehtiyojlarini butunlay chegaralash hisobiga mol yig'ish mumkin emas. Mol yig'ishdan maqsad hayotda uchrashi mumkin bo'lgan og'ir kunlarda, kundalik hayotiy ehtiyojni qondirish zaruati paydo bo'lganda, farzand-larni mustaqil hayot kechirishlari uchun shart-sharoit yaratish lozim bo'lgan taqdirda foydalanishdan iboratdir. To'plangan mol-dunyo ezgu maqsad yo'lida sarflanmasa, u kishini yo'ldan chiqaradi, badnafsliz kasaliga mubtalo etadi. Inson uchun moddiy boylik emas, ma'naviy boylik hayotiy ehtiyojdir, shuning uchun moddiy boylikdan ilm olish, kasb-hunar egallash, dunyoni bilish, mehr-saxovat, himmat ko'rsatish yo'lida foydalanmoq zarur. Turli nopok yo'llar bilan osonlikcha qo'lg'a kiritilgan boylik qanday kelgan bo'lsa, shunday yo'q bo'ladi. Misqollab yig'ilgan mol-dunyodan o'z o'rnida foydalana bilish ham san'atdir. Mol-dunyoga o'ch bo'lish, haddan ziyod mayl qo'yish, boylik hirsiga berilish, uning orqasidan quvish, boylik orttirish maqsadida o'g'rilik, jinoyatchilik, xoinlik, sotqinlikdan, poraxo'rlikdan ham qaytmaslik insonni jaholat botqog'iga g'arq etadi, insoniylik tuyg'ularidan mahrum qiladi, ochko'zlik kasaliga mubtalo etadi. «Jami barakatlar-ning kaliti sabrdadir», deydi Varroq Termizi. Chindan ham sabr bilan, toqat bilan ko'p narsaga erishish mumkin, demak, sabr barakat(baxt)ga yetaklaydi. Sabr deganda Varroq Termizi mehnatni nazarda tutadi, chunki mehnat insonni baxtga musharrraf etadi, barakat – bu baxt! Kishilarimiz bir-biriga omad tilasa «Ishingni barakasini bersin», «Barakangni bersin», «Barakasini bersin» deyishadi. Keksalarimiz odatan yosh-larni «Baraka top» deya olqishlaydi. Ana shu baraka yoki barakat so'zining tagida baxt tushunchasi mavjud, «Baraka top» – «Baxt top» demakdir.

Ochko'zlik xasislikning poydevoridir, xasislik, ziqnalik insonga xos bo'Imagan xususiyat bo'lib, ochko'zlikning bir ko'rinishidir. Xasis odam ochko'zlik bilan boylik, mol-

dunyo yig‘adi, undan na o‘zi, na boshqalarning foydalanishini istaydi. Uning uchun shukr qilish, qanoat, himmat, saxovat tu-shunchalari butunlay yotdir, u o‘z boyligi, mol-dunyosi xavotiri bilan yashaydi. Xasis odamlar shunchalar tuban bo‘ladilarki, ular muhtojlar, beva-bechoralar, nogironlar, yolg‘iz keksalar, yetim-yesirlarga nisbatan ezgulik, odamiylik qilmaydilar. Bu toifadagi kishilar hatto oila a’zolarini ham yemoq, ichmoq, kiymoqdan mahrum etadilar. Xasis insonni hech kim hurmat qilmaydi. Boylik orqasidan quvish – kasallikdir, bu kasallik insonni ichkilik, giyohvandlik, zino, qimorbozlikka maylni oshiradi. Buning natijasi esa oilaning barbod bo‘lishi bilan yakunlanadi. «Bir oqildan so‘radilar: «Kim baxtiyoru, kim baxtsiz?! Oqlil dedi: Baxtiyor yeb-ichadi, ekadi. Baxtsiz – yig‘ib-yig‘ib o‘lib ketadi»<sup>1</sup>.

Saxiylik, hotamtoylilik inson fazilatining ko‘rkidir. Oila iqtisodining tejalgan qismidan qarindosh-urug‘larga, qo‘ni-qo‘shnilarga, so‘ngra do‘sstu birodarlarga ehson qilish qadimdan shakllanib kelgan qadriyat hisoblanadi. Muhtojlikda yashayotgan yon qo‘shniga yordam berish, holidan xabar olish hotamtoylilikdir, o‘zi boy-badavlat do‘sstu birodarlarga kattakatta ziyoftlar berish takabburlikdan boshqa narsa emas.

Oilada sarf-xarajatlar doimo nazoratda bo‘lmog‘i zaru. «Hisobli do‘sst – ayrilmas», degan naql mavjud. Oila a’zolarining oylik daromadi kundalik ehtiyojlari uchun chiqimlar hajmi tejamkorlik asosida yig‘ilgan jamg‘armasi yozma ravishda muntazam hisob-kitob qilingan taqdirda is-rofgarchilikka ham, oilaning qashshoqlashhib ketishiga ham yo‘l qo‘yilmaydi. Har bir kishining o‘z bilganicha, oila boshliqlari bilan maslahatlashmasdan xarajat qilishlari ham isrofgarchilikka olib keladi. Bunday oilada qut-baraka bo‘lmaydi. Oilashunos olimlarimiz saboq bergenlaridek: «Kirim-chiqim hisoblaringizni bir daftarga yozingiz va har vaqt bu daftarga ko‘z tashlab turingiz. Ko‘rib turganida kerakmas o‘rinlarga aqcha bermak uchun har kim bir qadar ehtiyyot uzra bo‘lur. Chiqimizingizni kirimingizdan ortiq aylamang, balki qora kun uchun har oyda ozmi-ko‘pmi bir miqdorda hissangizdan berkitib boringiz, bunday etmak ko‘ngilga rohatlik keltirur va iqtisodli bo‘luvg‘a sabab bo‘lur, ammo

<sup>1</sup> Bahor bayramlari. Navro‘z hikmatlari. Navro‘z dasturxonasi. Tuzuvchilar: A.S. Madrahimov, I.Ə. Xuvaytov. Toshkent, Qomuslar Bosh tahririysi, 1994. 32-bet.

chiqim ortiq bo'lsa, ko'ngilga hasrat solur, qonni buzar». Demak, oila iqtisodida kirim bilan chiqimning bir-biriga mutanosib bo'lmos'i, ya'ni chiqimning kirimdan ko'payib ketmasligiga alohida ahamiyat bermak zarur.

Shunday qilib, oila iqtisodini chuqur bilish, unga amal qilish oila farovonligini ta'minlashning muhim vositasidir. Oilaning iqtisodiy barqarorligi esa davlatning, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti omiliidir. Insonlar borki, qaysi bir ishni boshlasa, uni oxiriga yetkazmasdan qo'ymaydi. Uni amalgaloshirish yo'lida zahmat chekadi, qiynaladi, yuguradi, yeladi. U qancha qiynalmasin, azob chekmasin, izidan, yo'lidan qaytmaydi. Yana bir toifa odamlar borki, ular maqsadsiz, beg'am yashaydilar, boshlagan ishi yo'lida ozgina to'siq yoki qiyinchilik uchrasa, tashlab qo'yadi, oxiriga yetkazmaydi. U haqdagi odamlarning yaxshi-yomon gapi bilan ham ishi bo'lmaydi. Mana, ikki xil odam manzarasi. Ular bir-biriga qarama-qarshi xarakter ruhidagi kishilar, binobarin, har ikkalasi ham odamlardir. Birinchisida g'urur bor, boshlagan ishidan faxrlanadi, ikkinchisi esa g'urusiz, tinch-xotirjam yashashni, qiyinchilik-siz umr ko'rishni afzal ko'radi. Zotan, insonni buyuk ishlarga ilhomlantiruvchi kuch g'ururdir. Uning mazmunida o'z oilasidan, ota-onasidan, Vatanidan, avlod-ajdodlari qoldirgan moddiy va ma'naviy merosdan, kasb-koridan, millatidan, ijtimoiy foydali mehnatidan, farzandlaridan faxrlanish hissi mujassamdir.

«Milliy g'urur — har bir millatning o'z-o'zini tiklash natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyatdir. Bu tuyg'u o'z ona zamini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalaridan o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissiyotidir». Faxrlanish — milliy g'ururning negizini tashkil etadi. Tabiat va jamiyat voqeahodisalaridan o'zi va boshqalar yutug'idan faxrlana olish ham buyuk ne'matdir. Milliy g'ururi baland inson o'z or-nomusni, iffatini saqlay biladi, har xil va'dalarga uchmaydi, turli ta'sirlarga, badnom oqimlar iskanjasiga tushib qolmaydi. Har qanday vaziyatda ham o'zini boshqarish, xatti-harakatini nazorat qilish, o'zligini idora qila bilish xalqimizda aytiganidek, «Yetti o'lchab bir kesish» qobiliyatiga ega bo'ladi. Ma'naviy qashshoqlik milliy g'ururning zavolidir, ma'naviy barkamol inson o'z g'ururini o'tkinchi havas uchun poymol qilmaydi.

Irodasi mustahkam, e'tiqodi butun, qalbida muhabbat tuyg'usi kuchli bo'lgan insonlar hamisha, doimiy ravishda, muttasil, sid-qidildan, astoydil ota-onaga, oilaga, Vatanga, millatga, xalqiga, o'zi tug'ilib o'sgan ona zaminga, yoriga, farzandlariga, do'stu birodarlariga, kasbiga sadoqatli hisoblanadi. Milliy g'ururi baland inson adolatsizlikka, nohaqliklarga, subutsizlikka, yolg'onga, aldamchilikka, milliy kamsitilishga, millat, Vatan xoinlariga, xiyonatga, obro'-e'tiborining toptalishiga nisbatan beshafqat bo'ladi. G'ururi baland inson har qanday lagabardorga, tajovuzkorlarga bosh egmaydi, kerak bo'lsa jonini ham fido qiladiki, lekin o'zgalarga ozor bermaydi, sotqinlik, diyonatsizlik, nodonlik qilmaydi.

O'z g'ururini poymol etish baxtsizlikka yetaklovchi yagona yo'ldir! Hayotda ba'zi qizlarimiz asrlar osha avlodan-avlodga o'tib kelayotgan Sharq qizlarining hayosi, ibosi, g'ururini saqlash talablariga qarshi borib, hayotga yengiyelpi qarash, uzoqni o'yamaslik va ko'ra bilmaslik oqibatida yigitlarning yolg'on so'zlariga uchib, o'z nomuslarini poymol qiladilar. Natijada bir umr baxt va baxtiyorlik, hayot lazzati nima ekanligini bilmaydilar, ularning hayotlari ta'na-dashnomlar ostida o'tadi. Afsuski, «keyingi pushaymon — o'zingga dushman» ekanligini kech anglaydilar, shukrlar bo'lsinki, bunday qizlar juda ham kam. O'z g'ururini poymol qilmagan inson millat g'ururini ham saqlay biladi.

Yoshlik — oltin davrdir. Uni ehtiyoj qilish, yigit-qizlar o'z umrini befoyda, samarasiz o'tkazishlariga yo'l qo'ymaslik biz kattalarning yoshlar oldidagi burchimizdir. O'z burchiga mas'uliyatli ota-oni, ustoz murabbiylar qo'lida tarbiyalangan yoshlarning milliy g'ururi mustahkam bo'lishi tabiiyidir. O'ziga o'ta bino qo'yish, nasl-nasabi, mol-dunyosi, mansabidan, husnidan gerdayish, manmanlikka berilish, qobiliyatiga ortiqcha baho berish, o'z yutuqlaridan havolanib ketish qabohatdir. Bularning barchasi vaqtinchalik, o'tkinchi narsalar ekanligini unutmaslik zarur. Xalqimizda «Kamtarga kamol, manmanga zavol», «Boshing osmonga yetsa ham, oyog'ingning ostiga qara!» degan naqlar bejiz aytilmagan. Biroq g'ururni, behuda gerdayishni, o'ziga bino qo'yishni, yutuqlardan esanki-rashni, ijobjiy ma'nodagi «o'jarlik»ni, «qaysarlik»ni manmanlik deb tushunmaslik kerak. Holbuki, kamtar, oddiy, bag'rikeng insonda g'ururlanish hissi kuchli bo'ladi. O'tkinchi hoyu-havasga mayl qo'yish yaxshi emas, yoshlar berilgan umrdan,

hayotdan unumli foydalanishlari darkor. Qariyalarimiz «umr oqar daryodir» deydilar.

Yurtboshimiz aytganlaridek: «Biz orzu etgan buyuk davlatni buniyod qilish barchamizdan mustahkam iroda, iymon-e'tiqod, milliy g'urur tuyg'usi, buyuk ajdodlarimizdan meroq qolgan ma'naviy bisotga ega bo'lishni talab qiladi. Bilaklarimizda kuch, qalblarimizda kelajakka ishonch bo'lmos'i shartdir». O'zbek xalqi – milliy g'ururi baland xalq. Milliy g'urur o'z ongini, ruhiyatini boshqa millatlarga qarshi qo'yish emas, balki boshqa millat xalqlariga o'z milliy-ma'naviy va moddiy boyliklarini, jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan ulkan ulushini, milliy qadriyatlarini namoyon etishdan iboratdir. O'zbekning paxtasi, pillasi, oltini, atlasi, do'ppisi, tarixiy obidalari, palovxonto'rasi, mehmondo'stligi, insonparvarligi, iymon-e'tiqodi, buyuk allomalari – uning faxridir. Ulardan har bir fuqaro g'ururlanishi lozim. Milliy g'urur ona suti, ota o'gitlari, ajdod-avlodlarning irsiy fazilatlari, axloq-odob mezonlari orqali farzand ongiga singdiriladi. Milliy g'ururi baland yoshlari – mamlakatimiz kelajagidir. Shuning uchun har bir fuqaroda, yosh avlodda milliy g'urni shakllantirish, mustahkamlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblana-di. Milliy g'urni shakllantirish va mustahkamlash uchun, avvalo, birinchidan, millatimizning paydo bo'lishi, rivojlanishi, millat bo'lib shakllanish tarixi, urf-odatlari, an'analari, adabiyo-ti, san'ati, madaniyati, dini va ularning insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rnini mukammal bilmox zarur. Ikkinchidan, umum-insoniy qadriyatlarni bilish, ulardagi milliy mentalitetimizga mos ilg'or g'oyalarni amaliyotga joriy etish va shu asosda milliy qadriyatlarimizni mazmunan va shaklan boyitmoq lozim. Uchinchidan, jahon andozalariga mos yangi texnika va texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va unda faoliik ko'rsatish kerak. To'rtinchidan, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan fuqarolarning irqi, millati, naslu nasabi, tili va diniy e'tiqodidan qat'i nazar millatlararo, fuqarolararo totuvligi, hamjihatligi va yakdilligiga erishmoq uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rmoq lozim. Shundagina hech qanday yovuz kuch ko'p millatli mamlakatimiz xalqlari o'rtasiga rahna sololmaydi. Ular bir-birlari bilan do'st-birodar, hamkor va hamfikr, bir-birlaridan faxrlanish va g'ururlanish hissi bilan yashaydilar. Bunday o'zaro do'stona munosabat yosh avlod tarbiyasida ham muhim ahamiyatga egadir.

## **BOZORLARIMIZGA XOS ODOB-AXLOQ HIKMATLARI**

*Bozor – yurt ko'zgusi.*

Milliy ma'naviyatimizga xos odob-axloqda bozor madaniyati alohida ahamiyatga ega bo'lib, bozorlar xalqimizning ornomusi, muomala madaniyati va aql-tafakkuri mujassamlashgan, dasturxonlar to'kinligi, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikning keng rivojlanganligidan dalolat beruvchi, babs-munozaralar hal bo'ladigan maskan hisoblangan. Xalqimizda: «Bozor bilgan och qolmas, yo'l tanigan kech qolmas», maqoliga amal qilib, bozorga borishdan oldin oila ta'minotini hisob-kitob qilib, pul mablag'lari jamlanib, oila kengashida maslahatlashib keyin taraddud ko'rilgan. Har bir oila kam xarajat, tejamkorlik, bugunning ertasiga qarab oila a'zolari uchun zarur bo'lgan talablarni nazarda tutgan holda bozor safariga chiqqan. Qadimgi ajdodlarimiz tomonidan meros qilib qoldirilgan: «Bozor borsang, avval oqshomdan taraddudingni ko'r» yo'sinidagi maqol oila hisobi va daromadini o'ylab ko'rishga da'vat etgan.

Bozor aql-tafakkurni o'lchab ko'radigan, sotib olmoqchi bo'lgan mahsulotning sifati, hajmini zimdan biladigan, tarozi o'lchovi, uning harakatini seza oladigan, savdo ahlining muomala madaniyati, uning maqsadi va hatto mahsulotni sotish jarayonidagi so'zlarining mohiyatini anglab yetish kabi vazifalar mazmunini bilishni taqozo etgan. Chunki bozorga borib, sifatsiz mahsulot yoki mol sotib olib kelish oilaning xarajatiga salbiy ta'sir ko'rsatishidan tashqari, odamning ruhiy kayfiyatiga ham yomon ta'sir qilib, oilada nizolar, janjallar kelib chiqishiga hamda noo'rin tortishuvlarga sabab bo'ladi. «Bozor ko'rgan echkidan qo'rq» maqoli aynan shu kabi holatlar tufayli paydo bo'lgan bo'lsa ne ajab!

Tong sahardan gavjum bozorlarimizning asl sohiblari bo'lmish savdo ahli, avvalo, o'z kiyinishlariga e'tibor berib, soch-soqollarini tartibga keltirib, ko'zni o'ynatuvchi sifatlari mahsulotlar tanlab, rastalarini bezab, bozorni toza-ozoda qilib qo'yish bilan shug'ullanganlar. «Toza-ozodalik bo'Imagan joyda savdo o'ngidan kelmaydi», degan dono ajdodlarimiz.

Insoniy fazilatga oid bozor an'analari qadimdan Sharq xalqlariga xos xususiyat bo'lib, ular hozirgi davrgacha avlod-

lar tomonidan saqlanib, davom etib kelmoqda. IX asr oxiri – X asrning birinchi yarmida yashab o'tgan mashhur olim Abu Nasr Forobiy (873–950) o'zining «Fozil odamlar shahri» kitobida shunday deb yozgan edi: «Haqiqiy saodatga erishish yo'lida bir-biriga yordamlashish uchun odamlarni birlashtiruvchi shahar fazillar shahridir va saodatga erishish uchun bir-biriga yordamlashish maqsadida birlashgan kishilar jamiyat – fazil jamiyatdir. Yaqin kishisi uchun va barcha shaharlар yaxshi fazilatli bo'lishi uchun hech narsani ayamaydigan xalq, millat yaxshi fazilatli xalq, yaxshi fazilatli millatdir».

Davlatimiz rahbari I.A. Karimov olimning mazkur g'oyasi va e兹gulik haqidagi boshqa ko'plab fikrlarini davom ettirib, quyidagilarni aytgan edi: «O'zbekiston xalqining ko'pchiligi o'zining shaxsiy manfaatlarini emas, balki o'z oilasi, qarindoshlari, yor-birodarlar va qo'shnilarining farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu – insonning eng oliy ma'naviy fazilatidir. Bizning xalqimiz hech qachon o'zini boshqa xalqlardan yuqori qo'yan emas. Boshqa millatlarga, boshqa dinlarning namoyandalariga munosib hurmat, ehtirom ko'rsatib keldi».

Mustaqillik yillarda xalqimizning bag'rikenglik an'analarini yoyish va targ'ib qilishida bozorlarning ahamiyati kattaligiga alohida e'tibor qaratildi. Xalqimizda shakllangan urf-odatlar asosida umuminsoniyat madaniyati zamirida bozor savdo munosabatlari paydo bo'lib, umuman, hayotning gurkirab o'sishida savdo-tijorat keng taraqqiy etib, yurtning obod bo'lishiga munosib hissa qo'shib kelgan. Bozorlarimizning ko'rkini jahonga mashhur qilgan o'zbek savdo ahllari xalqimiz hunarmandchiligi, sabr-bardoshliligi, rostgo'yligi, halolligi, ishonuvchanligi, husni-odobi, tinchlik-xotirjamligi tufayli bemaol uzoq safarlarga savdo ishlari bilan chiqqanlar. Chunki savdo ahli xalqimizning «Bozorim bozor emas, ovulum bozor», degan maqoliga amal qilib, bozorlarga mahsulot olib kelish uchun ishonch bilan safar qilganlar.

Savdo ahli qadimdan o'z kasbini halollik fazilati deb bilgan va unga hunarlarning lafz halolligi nuqtai nazaridan yondashgan. Bozor lafzi halol odamlar tufayli paydo bo'lib, o'g'ri-qalloblarni fosh etib, bozor cho'ntak bilan halol deb, «Bozorda bari bor, puling bo'lmasa, nari bor» degan maqolni bilgan odam uchun ochiq deyilgan. Shuningdek, bozor firibgarlarni oshkor etuvchi, yolg'on so'z yoki narsa bilan odam-

larni aldaydigan, noplak savdo ishlari bilan shug‘ullanib, tarozi o‘lchovidan noto‘g‘ri ushlab qoladiganlarni kechirmaganligi tufayli ma’naviyat o‘chog‘i ham hisoblangan. Sharqona odobaxloqda «Bozorda birov baxtini, birov raxtini sotar» maqoli bozor ahli va bozorga keluvchilar uchun ogohlik odobi bo‘lib xizmat qilgan. Bozorga borish, o‘ziga ma’qul bo‘lgan nar-sani xarid qilish, sifatli, shirin, ta’mi o‘ziga ma’qul taomlar tayyorlashga ishlatiladigan sabzavot va poliz mahsulotlarini tanlash alohida madaniyatni talab qiladi. Ko‘pincha, bozorga borib, arzon, sifatsiz mahsulotni xarid qilish, bu bilan go‘yoki kam xarjli, cho‘ntakni himoya qilgandek bo‘lamiz, aslida esa olingan sifatsiz, arzon mahsulot o‘zimizga qimmatga tushayotganligini bilmaymiz. Chunki ushbu olingan mahsulot ya-roqsiz bo‘lib, o‘z navbatida inson ishtahasiga, oshqozon va qon aylanishiga zararini o‘ylab ko‘rmaymiz. Ko‘pincha, bozorga borishni ep ko‘rmay yoki dangasalik qilib bahona bilan bozorga boshqa birovni jo‘natamiz, ishongan kishimiz esa o‘zi bilganicha bozorlik qilib keladi. Shuning uchun «Bozoringni o‘zing qil, tegirmoningni o‘zing tort», degan maqol bekorga paydo bo‘lmagan.

Xalqimiz ichida kamol topgan savdogar ahli bozorlar tufayli xalqning tabarruk dasturxonini noz-ne’matlar bilan boyitib, o‘zbek diyorining tuprog‘i oltin, suvlari kavsar, havosi musaffo, quyoshi saxiy, odamlari mohir sohibkoru mirishkor ekanligini bozor peshtaxtalaridagi noz-ne’matlar, mol-buyumlar bilan tani-tadi. Ular yurtlardan yurtlarga, shaharlardan shaharlarga zarur mol-buyumlarni yo‘l azobini tortib keltirib, xalqning ehtiyoj-talabini qondirgan, savob, duo olishgan, shuning uchun ham ularning savdo-sotiq ishlari barakali va fayzli bo‘lgan, o‘zları ham izzat-hurmat ko‘rganlar. Savdogarlar turli-tuman yuklarni katta tuya karvonlarida olib kelganlarida ularni mamlakat podsholari, shahar hokimlari, ulamo-yu fuzalolar, butun xalq tantana bilan kutib olgan. O‘zbek xalqi tarixida savdogarlar va jahongashta (sayyoh)lar ko‘p o‘tganki, ularning hayoti, faoliyati va kashfi-yotlarida xalqimizning ajoyib fazilat-xislatlari, urf-odatlari va milliy an‘analarimiz mujassam topgan.

Hazrat Alisher Navoiy ayni tijorat ahli zikrida ushbularni aytgan: «Sayohatchi savdogar o‘lkalar va shaharlar holidan xabardor bo‘ladi, ajoyib narsalar to‘g‘risida afsona aytadi va qiziq voqealar haqida suhbat qiladi. Tog‘lar toshi va dasht umumi ustida tuya yurgizadi, daryo to‘lqlinlari to‘polonidan

foyda va zarar ko'radi. Halol rizq topish uchun uzoq yo'llar kezadi, ko'rinishda tinchlik tilab, ichki parishonlikka duch kelgan bo'ladi»(«Mahbub ul-qulub»dan ).

Qadim ajdodlarimiz savdo ishlarini farzandlariga yoslikdan o'rgatgan, bundan muddaosi foyda yoki naf olmoq bo'lmay, balki farzandlarning dunyo kezishi, dunyo ko'rishi bilan odam tanishi maqsad qilingan. Savdogarlardan ko'p narsa talab etilgan, ular ayni mahalda o'ta bilimdon, zukko, zakovatli bo'lmosg'i lozim bo'lgan, sahroda adashsa, tunda yulduzlarga qarab, kunduzi quyoshga qarab yo'l topganlar. Ular o'z yurtlariga tashrif buyurgan xorijiy karvon ahlini munosib qarshi olishgan, ularning mollari, mollarining narxi, mollarni nimaga ayirboshlashlarigacha so'rab bilishgan. Ayni zamonda o'zga o'lka tijoratchilaridan ularning yurtida nimaga xaridorlik katta, odamlar ko'proq qanday narsalarga qiziqadilar, shularni bilib olishgan, shunga qarab ish tutishgan. Ota-onalar farzandlarining savdo ishlarini o'rganishlari uchun ko'p sa'y-harakat qilishgan, farzandlariga turfa mollar olib berib, sandiqlarga joylab, tuyaga yuklab, savdo karvoniga qo'shib, uzoq yurtlarga kuzatganlar. Ota-onalar yosh farzandini tijorat yumushi bilan yiroq o'lkaza jo'natar ekan, farzandining xavfsizligini karvon ahliga va sarbonga tayinlashni ham unutishmagan. Zotan allomalarimiz ta'kidlashgani kabi: «Uch nima doim qolmas: biri tijoratsiz mol, ikkinchisi bahsiz ilm, uchinchisi siyosatsiz mulk».

Alisher Navoiy sayohat udumlari, safar mushkulotlari, o'zga o'lkalarga borib-qaytishning farog'ati va jarohati kabilarni atroflicha sharhlaydi: «Turg'un yer qaydayu, aylanuvchi osmon qayda? ... Qiynalish va mashaqqat adab va hurmatning negizidir, safar esa qiynalish va mashaqqatga sababdir... Safar ko'ngilni har tomonga mayl qilishdan orom berguvchidir... Har o'lkaning bezaklarini va har joyning tinchligini yo'lovchilardan so'ra va musofirdan anglab ol. Safarga chiqmagan turg'unlik rohatini qaydan bilsin va g'ariblikka uchramagan vatanda bo'lish yaxshiliklarini qanday aniqlay olsin».<sup>11</sup>

<sup>11</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlar. 13-tom. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1966, 236-bet.

## TIL, ILM VA SHE'RIYAT HAMDA MA'NAVIY KOMILLIK

*Tili boyning o'zi boy.*

Insoniyat yaralgandan buyon faqat tilda ifodalangan so'z yashab, so'z orqali odob-axloq namunalari hikmatlar durdonasida aks etib kelmoqda. O'zbek tili ham ana shu hikmatlar tufayli boyib, mukammallahishib til odobini kelajak avlodga taqdim qilmoqda. Har bir inson o'z tilida bayon etgan so'zi bilan o'z taqdirini hal qilishini qu'yidagi hikmatlar izohlaydi: «Tilim tinch bo'lsa, dilimda o'kinch bo'lmaydi. Ey tilim, jim yotgin, dilim yig'lama, meni o'tga yoqib, o'zing yig'lama». «Sergaplik o'z dushmanlaringdir, chunki u sening ayblaringni oshkor etadi, dushmaningni esa joyidan qo'zg'atadi». Abubakr Varroq Termiziyy (IX asr) aytar ekanki: «Ko'p gapirish yuranni xasta qilur».

*Til haqida, til muomalasi xususida, til odobi, til azobi to'g'risida donolarimiz ko'p va xo'p aytishgan. Ulardan ba'zilariga diqqat qilaylik:*

*Til bilan yetkazilgan jarohat qilich bilan yetkazilgan jarohatdan og'irroqdir. («Otalar so'zi»).*

*Til shirinligi – ko'ngilga yoqimli, yumshoqligi – foydali. Chunki til achchiqlikka aylansa, zarari umumiy bo'ladi (Alisher Navoiy).*

*To'ti saqlayolsa edi tilini,  
Qafas xijil qilmas edi dilini! (Ibn Mahmud).*

*Kimki o'zga tillarni bilmasa, o'z tilini ham yaxshi tushunmaydi (I. Gyote).*

*Til millionlarcha avlodlar tomonidan yaratilgan tirik jondir (A.Tolstoy).*

*Tilga ixtiyor sиз – elga e'tiborsiz (Alisher Navoiy).*

*Tiling bilan ko'nglingni bir tut, ko'ngli va tili bir kishi aytg'on so'zga but (Alisher Navoiy).*

*Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt (Alisher Navoiy).*

*Oqil chindan o'zga demas, ammo barcha chinni ham demak oqil ishi emas (Alisher Navoiy).*

*Til odam bolasining ko'nglida bo'lgan g'azabu marhamat, yumshoqligu qattiqlik kabi narsalarni ochib beruvchidir (Rizouddin ibn Faxruddin).*

Xalqimiz o‘z hayot tajribasidan juda ko‘plab voqealarni xodisalarining mohiyatini til va so‘z bilan izohlaydi. «Qilich kesa olmaganni so‘z kesadi», «Til tig‘i qilich tig‘idan o‘tkir», «Tig‘ jarohati bitar, til jarohati bitmas», «Til bilan tugilgan tugun tish bilan yechilmas», «Boshga balo nedan kelur? — Ikki enlik tildan kelur», «O‘n baloning to‘qqizi tildan tug‘ar», «Yurganda oyog‘ingni ehtiyyot qil, gapirganda — tilingni» kabi maqollar rahbarning ish tajribasidagi mezon bo‘lishi zarur. Alisher Navoiy shu narsaga alohida e’tibor berdiki, dilingda boshqa narsani o‘ylab, tilingda boshqa narsani gapirma, ayyor, mug‘ombir, tilyog‘lamachi, yolg‘onchi, ikkiyuzlamachi bo‘lma, to‘g‘ri o‘yla, to‘g‘ri so‘yla, rostgo‘y bo‘l deydi. Chindan ham mutafakkirlarning quyidagi so‘zlari g‘oyat e’tiborli: «Ko‘p degan ko‘p yangilur va ko‘p yegan ko‘p yiqilur», «Sihat tilasang ko‘p yema, izzat tilasang ko‘p dema», «Oqil chindan o‘zga demas, ammo barcha chinni ham demak oqil ishi emas», «Ishda oshiqqan ko‘p toyilur, ko‘p toyilg‘on ko‘p yiqilur» («Mahbub ul-qulub»dan).

Ma’naviy komillikka erishishda odob-axloqning mazmuni va mohiyatini ilm tashkil etadi. Ilm tufayli odamlar hayotning eng qiyin sinovlaridan o‘tib, o‘zlariga hamda avlodlariga munosib tur mush tarzini yaratib bergenlar. Jumladan, Movarounnahr sarzaminida ilk tasavvuf tariqati hisoblanmish Hakimiya tariqatining asoschisi al-Hakim at-Termiziy (vaf. 869) ning yo‘li ilmga tayangan. Termiziy aytar ekan: «Ilm ila Alloho topish», «Ilm ila Alloho tanish», «Ilm — nur, shu nur seni Alloh vasliga musharraf etadi». Shundan ularning tariqatini Hakimiya va al-Hakimga ergashganlarni hakimlar deb atashgan, «hakim» degani ilmning ichki sirini biluvchi demakdir. Hakim Termiziy ilm haqida ko‘p fikrlar izhor etgan, chunonchi: «Ilm — do‘sstar davrasida bezak!», «Ilmli kishi o‘zgalar ichida ham o‘zinikidir».<sup>1</sup> Hakim Termiziyning kitoblari ko‘p, shular ichida bittasi aynan ilm masalasiga bag‘ishlangan «Kitob bayon al-ilm» nomli asardir. Ko‘rinadiki, ana shu bilimlar yig‘indisidan shakllangan ilm tufayli jamlangan ma’nolar kitob tarzida yakunlanib o‘qish, o‘rganish uchun ixchamlashtirilgan. Kitob esa insoniyat bosib o‘tgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy tarixni o‘zida aks ettirib, asrlar

<sup>1</sup> Murtazoyev B. Ilm — haqiqatdir, haqiqat — esa ilmdir // «Tafakkur», 2009, 1-son, 78–80-betlar.

osha bebaho xazinaga aylangan. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov «Kitoblar bir avlodning boshqa avlodga qoldirgan ma'naviy vasiyati, nuroniy keksaning hayotga endi qadam qo'ya boshlagan o'smirga pand-nasihat, uzoq tarixni ko'z o'ngimizda jonlantiruvchi ishonarli hikoya, kelajakni tasavvur qildiruvchi va uni yaratishga undovchi mohir muallimdir», deb kitobga yuksak baho bergen. Dunyoning ulug' allomalar o'z hayotlarini kitobga, ilmga bag'ishlab, ma'naviy merosning davomiyligini kelajak avlodga qoldirgan hamda kitob va ilmning naqadar beqiyos ekanligini o'zlarining fikrlarida bayon qilganligini quyidagi tafakkur durdonalaridan yanada chuqrroq bilib olish mumkin:

Bir do'stki, hech kimga bermagan azob,  
Uzoq sinab ko'rdim u kitob.  
Sirni yashirmagay o'quvchisidan,  
Xabar berar senga yozuvchisidan.  
Xilvatda sen bilan bo'lib u ulfat,  
Jimgina quradi yoqimli suhbat.

Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiydir. Hayotning o'zi ham murabbiydir, chunki inson hayotdan ko'p narsa o'rganadi, hayot uni turli so'qmoqlarda sinov maydonidan o'tkazadi. Odam ush-shuar Rudakiy (858—941) aytgan ekan:

Har kimki, olmasa hayotdan ta'lim,  
Unga o'rgatolmas hech bir muallim.

Quyida ilm va uning ahamiyati to'g'risidagi hadislardan namunalar beriladi:

«*Ummatimni ikki narsa – ilmni tark etish va mol-dunyo yig'ishga ruju qo'yishlari halok qilishi mumkin*».

«*Olimlarni hurmat qilinglar, chunki ular payg' ambarlar ning merosxo'rларидир. Olimlarni hurmat qilgan kishi Allohnи va uning Rasulini hurmat qilgan bo'ladi*».

«*Qiyomat kunida uch toifa odamlarga shafoat qilinadi: payg' ambarlar, keyin olimlar, keyin shahidlar*».

«*Bir soatgina ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshidir*» (Hadis).

«*Olimlar dunyo qancha tursa, shuncha turadi, ularning jismlari yo'qolgan bo'lsada, ta'limgilari qalblarda mavjudligi cha qoladi*».

«Alloh taolo aytgan – «Mening nazdimda ilm fazilati – ibodat fazilatidan a'lodir».

«Har bir ilm egasining ustida undan ham bilimdonroq (olim) bordir».

«Olimlar qalami shahid qonidan muqaddas».

«Sadaqaning afzali musulmon kishining ilm o'rganib, so'ng boshqa musulmon birodarlariga ham o'rgatishidir».

«Olimlar bilan o'tirsang foyda olasan. Chunki gul yonida o'tirgan odamga gul hidi urib qoladi».

«Ilm o'rganib, so'ng uni boshqalarga o'rgatmaslik go'yoki molu dunyoni yig'ib, uni sarf qilmay ko'mib qo'yish bilan barobardir».

«Ilmni yozib qo'yish bilan bog'lab olinglar».

Sohibqiron bobomizning pand-nasihatlari jamlangan «Amir Temur o'gitlari» kitobida ham bu borada talaygina ajoyib fikrlar izhor etiladi. Ularning yosh avlodni tarbiya qilishdagi ahamiyati va qimmati cheksizdir. Sohibqiron hamkor izdoshlariga va tasarrufidagi umumulusga murojaat qilib aytadiki:

Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islam dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqh dan dars berinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim.

Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur.

Yozilgan narsa avlodlar xotirasida qilingan ishdan ham uzoqroq yashaydi.

Bilagi zo'r – birni yiqrar, bilimi zo'r – mingni.

Botir jangda bilinar, dono – mashvaratda.

So'zlaguvchi gar nodon erur, tinglaguvchi dono o'lsin.

Til – qilichdan o'tkir.

Boshqa ko'plab alloma va ulamolar ham ilm haqida qimmatli fikrlar bayon etishgan. Ular kelgusi avlodlarimizga umrboqiy dasturulamal bo'lib qolishi muqarrardir:

«Ilm shunday narsaki, unga o'zingni butunlay topshirma-guningcha hech narsa berilmaydi» (Abu Yusuf).

«Ilmnинг бoshi – jim turish, keyingisi – e'tibor bilan eshitish, uchinchisi – yod olish, to'rtinchisi – unga amal qilish, beshinchisi – uni bilmaganlarga tarqatishdir. Mana shu shartlarga amal qilib, bilim olinsa, bunday odamlar ikki dunyo saodati(baxti)ga erishadi» (So'fiyoni Savriy).

«Kimki o'rganishni uyat, or demas, suvdan dur topadi, toshdan la'l, olmos» (Nizomiy Ganjaviy).

*Kim hunarni desa, u dono bo'lur,  
Nodonlar qudrat deb boylikni bilur (Abdurahmon Jomiy).  
Oltin va kumushi bo'lmanan odam kambag'al emas, bal-  
ki es-hushi va kasb-hunari bo'lmanan kishi kambag'aldir  
(Majid Havofiy).*

*«Dunyoda turmoq uchun dunyoviy ilm va fan lozimdir.  
Zamona ilmi va faniga bebahra millat boshqa millatlarga  
paymol bo'lur» (Behbudiy).*

*Faqat bilim bilan balandmas odam,  
Ahdu vafo bilan baland-past odam.  
So'zi bilan ishi bir bo'lsa agar,  
Har narsadan ustun muqaddas odam (Umar Xayyom).*

*Ilm o'qub qilmog'on amal maqbul,  
Dona sochib ko'tarmadi mahsul (Alisher Navoiy).*

*Olim kishi so'zidan olgil o'git,  
Yaxshi so'zlar ta'siri dilga singar.  
Olim kishini ezgu tutib so'zin eshit,  
Hunarini o'r ganibon amal qilg'il (Mahmud Koshg'ariy).*

*Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidurlar (Abdulla Avloniy).*

Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma'rifikat bilan baquvvat bo'ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo'ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko'rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san'atdir. Dunyoda qanday yovuzlik sodir bo'lgan bo'lsa, ularning hammasi nodonlik orqali kelib chiqqan. Eng zo'r falokat nodonlik, insoniylikni bitiruvchi ham nodonlikdur. Yaxshi tahsil ko'rgan va ilm nuri bilan hulqni yaxshilagan ayol har yerda izzat topadi. Ilm – ayol uchun ziynat. Aqlini nodonlikdan ko'targan har bir ayol nomus, izzat, ayollik qadrini tushunib yetadi. Bunday ayol hech bir ishda adashmaydi. Ilmsiz ayol esa bola tarbiyalashda turli xatolarga yo'l qo'yadi (Sa'diy Sheroyi).

*Muyassar bo'lsa tilaging senga taxt,  
O'zingdin pastga zinhor aylamagin baxt.  
Agar bersa senga jahon sultonligi dast,  
Kishi o'z holini bilmak kerak past.  
Agar rutbang erur a'loyi ofoq,  
Yiqilg'on hastalarни holina boq.*

*Takabbur qilma ey bemaoniy,  
Falonne o'g'lidurmen deb faloniy* (So'fi Olloyor).

Hakimdan:

— Shuncha ilmni qanday hosil qilding? — deb so'radilar:  
U aytdi:

— Ilm o'qiyotgan paytlarimda yondirgan chiroq moyini hisoblasang, yeb-ichgan narsalarimdan ko'proq bo'ladi. Bunda ma'lum bo'ladiki, vaqt ni yeb-ichish va o'ynashga sarflashdan ko'ra ilmgan sarflash zarur ekan.

«Imom G'azzoliydan so'rdilarkim: — Bu manzilg'a ne bila yettingiz? Aytti: — Onikim bilmas edim, so'rmag'a or qilmas edim»<sup>1</sup>.

Ilm martabasi martabalarning zo'ridir, degan gap shubhasiz to'g'ri. Qaysi yerda ilmu ma'rifat kuchli bo'lsa, o'sha yer baxt maskani hisoblanadi. Qaysi yerda nodonlik mavjud bo'lsa, u yer quruq yoki toshloq joy kabidir.

Go'zal xulq bilan payvasta bo'lган ilm odamlarni baxtiyor qiladi, martabasini balandlatadi. Ilmdan maqsad ko'r kam va ezgu ishlarni amalga oshirishdir (Faxrulbanot Sulaymoniy).

Sharq xalqlari qadimdan allomalarga, olimlarga katta hurmat bilan qaraganlar, har bir narsaning kaliti, muammolar tugunini yechuvchi, kishilarga ertangi yaxshi kun haqida ma'lumot beruvchi, shogirdlarga ustoz, hunar sirlarini anglatuvchi, murosa hamda madoralarga quvvat, kelishmovchiliklarni, janjallarni bartaraf qiluvchi kuch deb umid qilganlar. Olimlarni, allomalarni Yaratganning yerdagi vakili, har narsadan xabar qiluvchi zot deb tushunganlar. Shu tufayli ular olim u lamolarning ilohiy qudratiga, tasavvuriga, bashoratlari ishonganlar.

Avvalo olim bo'l! Loaqal ta'lim oluvchi yoki tinglovchi, ilmu ulamolarni sevuvchi bo'lgin (*Hadisdan*).

*Zakovatli uqadi, bilimni biladi,  
Bilimli, zakovatli tilakka yetadi* (Yusuf Xos Hojib).

*Amalsiz ilm — mevasiz yog'och* («Otalar so'zi»).

*Hamma ezbiliklar bilim tufaylidir,  
Bilim tufayli go'yo ko'kka yo'l topiladi.*

<sup>1</sup> Sayfi Saroyi . She'rlar. Guliston. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1968.

*So'z bo'z yerga yashil ko'kdan tushdi,  
So'zi tufayli inson o'zini ulug' qildi* (Yusuf Xos Hojib).

*Ey keldi fununi ilm taslim sanga,  
Qilmoq anga lozim bo'lди ta'zim sanga.  
Garchi yo'q erdi quvvat oyoqimda, vale,  
Keldim bosh ila olgali ta'lim sanga* (Ogahiy).

Yaxshi xislat jahonda oliy martaba va yuksak darajaga yetkazuvchidir. Ammo bunga etishish vositasi ilm va odob boyligidir.

*Ilm saodatga yo'llovchi mash'al,  
Johillik o'limga boshlar har mahal.*

Qit'a:

*Bilim kishilarni ulug'vor qilar,  
Odaman ketmaydi to u o'lguncha.  
Oltin, kumush bilan kerilma zinhor,  
Bu izzat oltinu-kumush turguncha* (Muiniddin Juvayniy).

Ota-oná, do'st-birodar, aka-uka, opa-singil orasidagi mehr-muhabbat, yaxshi kunlarda hamroh bo'lish, bir-birlarining ko'ngillarini ko'tarish, g'am-tashvishlarga hamdard bo'lish hamda og'ir vaziyatdan chiqishda eng yaqin kishisini qo'llab-quvvatlash g'oyalari she'rlarda ham o'z ifodasini topgan. Inson qalbiga ruhiy madad topish va bir-birlariga mehribon, sadoqatli bo'lish to'g'risida shoira Marxabo Karimovaning «Azizlarim, mehribonlarim» she'rlarida qayd etilgan g'oyalalar muhim ahamiyatga egadir:

*Azizlarim, mehribonlarim,  
Do'stu yoron, qadrdonlarim,  
Joningizga kuyar jonlarim,  
O'zingizni ehtiyyot qiling.*

*Tarang-tarang tortilar asab,  
Yemirarkan insomni g'azab,  
Qon tomirlar buncha mo'rt, yo Rab?!  
O'zingizni ehtiyyot qiling.*

*O'ng tomonga joylashsa yurak,  
Bo'lmasmidi shunchalar hurkak,  
Chiqscha chiqar guruchdan kurmak,  
O'zingizni ehtiyyot qiling.*

*Tortishuvda bir so'zdan qolib,  
Noxush gapni hazilga olib,  
Dilozorni Xudoga solib,  
O'zingizni ehtiyyot qiling.*

*Ey do'st, har ne kasbi koringiz,  
Hamroh sizga tashvish, zoringiz  
Yoningizda yursin doringiz,  
O'zingizni ehtiyot qiling.*

*O'lim – yomon, dahshatli taqdir,  
Ammo do'zax oldida baxtdir,  
Asli o'sha olovdan hozir,  
O'zingizni ehtiyot qiling.*

*Eng avvalo noshukr bo'l mang,  
Johil bilan hamfikr bo'l mang,  
Beibodat, bezikr bo'l mang,  
O'zingizni ehtiyot qiling.*

*Haqqizingizni bermasa baxil,  
Ko'rgizsalar zulumu qahr,  
Hisob kuni kelar-ku axir,  
O'zingizni extiyot qiling.*

*Sizga sanchib so'zning nayzasin,  
Yayrasa shu nodon yayrasin,  
Sukut bilan yenging hammasin,  
O'zingizni ehtiyot qiling.*

*Kechirganni kechirur Alloh,  
Panoh bergen topadi panoh,  
Yomonlikdan ne chiqadi, oh!  
O'zingizni ehtiyot qiling.*

*Do'st tomonga talpining har dam,  
Ko'ring quvonch tashvishni baham,  
Odam taftin oladi odam,  
O'zingizni ehtiyot qiling.*

*Qur'on, hadis, she'riyat, san'at,  
Dono bilan bir shirin suhbat,  
Shumasmi siz qidirgan jannat?  
O'zingizni ehtiyot qiling.*

*G'am kelganda kuyunib ketmang,  
Baxt kelganda suyunib ketmang,  
Sokin yashang, osuda yashang  
O'zingizni ehtiyot qiling.*

*Ko'zlar hali ko'rib turganda,  
Yurak hali urib turganda,  
Oyog'ingiz yurib turganda,  
O'zingizni ehtiyot qiling.*

*Yelkangizda ikki farishta,  
Ularning qo'llari yozishda,*

*Marhaboxon, har so'z, har ishda,  
O'zingizni ehtiyyot qiling.*

*Shukr do'stlar, boringiz uchun,  
Farzand, jigar, yoringiz uchun,  
Menday xaridoringiz uchun,  
O'zingizni ehtiyyot qiling.*

Shuningdek, inson ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi, aql-tafakkurini charxlovchi g'oyalar ham she'rlarda o'z aksini topib, asrlar osha ajododlarimiz o'gitlari o'z ahamiyatini xalq og'zaki ijodiyotida mujassam etib, kishilarni xushyorlikka, o'z boyligini asrashga, ishonmagan, sinalmagan suhbatdoshiga to'g'ri kelgan fikrni aytmasligi she'rlarda bayon etilgan. Xalq hikmatlarini o'rgangan va undan she'riy ifodada fikrlar xazinasini jamlagan shoir Qobil Mirzoning «Bor» she'rida aynan inson va u bilan bog'liq hayotiy kechinmalar o'z aksini topgan:

*Aylayin senga nasihat to aql imkoni bor,  
Barcha odam teng emasdur yaxshi ham yomoni bor.  
Va'dasin buzgan kishilar oz emas, bo'l ehtiyyot,  
So'zlamas doim haqiqat: rosti bor, yolg'oni bor.  
Davlating bisyorligidan o'zliging qilma unut,  
Hech vafo qilmas bu dunyo, yo'q degan farmoni bor.  
Nogiron, nosog' yaralgan kimsaga berma ozor,  
Qalbida bitmas jarohat, g'am to'la armoni bor.  
Sakrama, singay oyog'ing cho'qqida ohu misol,  
Ul ulug' maqsadga yetgay yo'lida karvoni bor.  
Bir yigitga qirq hunar oz, puxta o'rgan qunt bilan,  
Bo'lmagay sendan azizroq dovrug'i darmoni bor.  
Nolima ag'yorlaringdan, balki ko'rsat ehtirom,  
To'g'rilik, poklikka chorlar zarga teng ehsoni bor.  
Baxtiyor bo'lsin xamisha, omadu kelsin baror,  
Bosh egib e'zozla Mirzo kimniki iymoni bor.*

Odob-axloqli inson o'z umrini halol, pok o'tkazish, oilada ibratli bo'lish, ota-onasini duosini olish, xalq dardiga mal-ham bo'lish, fidoyilik namunasini ko'rsatish, farzandlariga ma'naviyatli turmush tarzini yaratib berishdek mas'uliyatni o'z qalbiga singdiradi. Buning uchun doimo intilish, izlanish va tashabbuskorlikni o'z qo'liga olib, shiddat bilan oldinga intiladi. Intilish — biror maqsad sari olg'a qarab harakatlanish yoki insonning ruhiy hamda jismoniy mukammallikka, kamolotga qaratilgan xatti-harakatlari majmuidir. Inson borki, hamisha intilib, izlanib yashaydi.

Shu nuqtai nazardan Surxondaryo viloyati aholisining intilishlariga baho bergan, ularning qalbini yuqori baholagan Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov quyidagi izohni qayd etgan edi: «Surxondaryoning mard, mehnatkash, aql-zakovatli xalqi bor, bag'rikeng, ayni zamonda oriyati baland, bu el farzandlarini hurmat qilmaslik mumkin emas».

Intilish nafaqat biror shaxsni, balki butun insoniyatni yusaklik va taraqqiyot sari yetaklaydi, katta-katta yutuqlarga ilhomlantiradi. Bu haqda buyuk alloma Alisher Navoiy quyidagi fikrni bayon etadi:

*Kamol et kasbkim, olam uyidin,  
Senga farz o'limg'ay g'amnok chiqmoq.  
Jahondin notamom o'tmak – biaynih,  
Erur hammomin nopol chiqmoq.*

Ya'ni, bu dunyoga keldingmi, kamolotga intilishni o'zingga kasb qil, negaki, dunyoga kelib, unda g'amgin bo'lib yashab o'tish senga farz emas, agar bu jahonda kamolotga intilmay, buni o'zingga kasb qilmay, g'am-g'ussada yashab o'tsang, go'yo hammomga kirib, yuvinmasdan, poklanmasdan chiqib ketgan odamga o'xshaysan, deyilmoqda. Agar shu fikrni boshqacharoq ifodalasak, inson har tomonlama komil va yetuk bo'lmasa, u pok inson bo'la olmaydi, natijada, hayotning ko'p qiyinchiliklariga uchraydi.

Yusuf Xos Hojib ta'kidlaganidek:

*Yaxshi qiliq oq sut bilan kirsa,  
O'lim kelib tutmaguncha o'zgarmaydi.*

Bu g'oya bugungi kunda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi, chunki yetishib kelayotgan yosh avlod har tomonlama barkamol va sog'lom fikrli bo'lishi kerak. Shiddat bilan rivojlanayotgan axborot asri har bir insondon, avvalo bilimli, savodxon hamda o'z mustaqil fikriga ega, turli xurujlarga nisbatan hushyor, hozirjavob, ma'naviy tahdidlardan atrofli-cha xabardor bo'lishni, buning uchun esa doimiy intilish va izlanishda bo'lishni taqozo etadi.

Komil inson g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalarimizning inson kamoloti haqidagi fikrlari jamiyat taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan-

ligi bilan ham alohida qadrli. Jumladan, Abu Nasr Forobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida fozil odam fazillari haqida fikr yuritar ekan, shaxsning ma'naviy kamolotini adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti deb hisoblaydi va komillik sifatlarini mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat singari insoniy fazillarning birligida ko'radi. U yaxshi xulq-atvor hamda aql kuchi birikkanda insoniy fazillarning yuzaga kelishini bayon qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, intilish tushunchasini biz yuqorida biror maqsad sari olg'a qarab harakatlanish, deb baholadik. Demak, intilish ana shu maqsadning qanday qo'yilishiga ham bog'liq. Agar maqsad buzg'unchi, ya'ni yomonlikka qaratilgan bo'lsa, u holda intilish ham salbiy ahamiyat kasb etadi, ya'ni insonni yomonliklar sari boshlaydi. Afsuski, kishilar orasida g'arazli niyat bilan intiluvchilar ham topiladi. Bunday kimsalar tabiat va jamiyat, qolaversa, butun insoniyat uchun xatarlidir. Ulardan doimo ogoh bo'lishimiz kerak.

Izlanish, intilish va tashabbuskorlik tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisiz ro'yobga chiqa olmaydi. Intiluvchan kishi izlanuvchan va tashabbuskor ham bo'lishi kerak, faqat intilishning o'zagina insonni biror ulkan maqsad sari yetaklay olmaydi. Xalq maqollarida intilish xususida «Intilganga – tole yor» deyilsa, izlanish xususida «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» deyilgan. Abu Rayhon Beruniy (973–1048) aytadilarki: «Bilim – qaytarish va takrorlash mevasidir», «Yaxshi bilmagan narsasiga uringan kishi sharmanda bo'ladi», «Har bir ilm va san'atning borib taqaladigan boshlanish joyi bor».<sup>1</sup>

Xuddi shular xususida Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy (1075–1143) ushbularni ta'kidlaydi: «Yoki ilmli bo'l, yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo'l, loaqlal ilmni tinglab eshitadigan bo'l», «Ahmoq kishi hikmat-ilmnинг lazzatini bilmaydi, bamisol tumov kishi gulning hidini sezmaganidek», «Savdogarlarning shuhrati va obro'-e'tibori kissasida, olimning shuhrati-yu obro'-e'tibori yozgan kitoblari(asarlari)da»,

<sup>1</sup> *Abu Payhon Beruniy*. O'ylar, hikmatlar, naqllar, she'rlar (To'plovchi va nashrga tayyorlovchi Abdusodiq Irisov). Toshkent, Yosh gvardiya, 1973, 104-bet.

«Yeru zaminning ko'rkamligi olimlar bilan bo'lsa, osmonu falakning ziynati esa yulduzlar bilandir»<sup>1</sup>.

Izlanishga harakat qilgan odam rahbar bo'lishi sari harakat qilsa, uning uchun katta mas'uliyat talab qilinadi. Xoja Samandar Termiziy bu haqda quyidagi fikrni izohlaydi: «Azizim, rahbarlik, yo'lboshchilik shunday odamga munosibki, u xalq boshini mashaqqat girdobidan xalos eta olsin va har bir kishi, hamma odam u yo'lboshchilik qilgan shu ustuvor — mumtoz zamonda boshini rohat bolishiga qo'yib, farog'atda yashasin».

*Agar sen o'ylasang o'z tinchu, huzuru, rohating faqat,  
Diyorinda biror kimsa ko'ra olmas hech qachon rohat.*

Demak, izlanish dastavval ilm o'rganishdan boshlanishi kerak, ilm o'rganish esa odam esini taniganidan boshlab toki o'lgunicha davom ettiriladigan jarayondir. Chunki dunyo — har daqiqa uzlusiz o'zgarish va rivojlanishda, inson tafakkuri ham u bilan birgalikda rivojlanishi darkor. Dunyoni anglash, uni o'rganish va bilishdan boshlanadi, ilmsiz odam go'yo mevasiz daraxt. Atrofimizni o'rabi turgan olam turli sir-sinoatlar va ilmu hadislardan iborat, odam hayotda o'z o'rnini topishi uchun dunyoning ana shu sir-sinoatlarini yaxshi bilishi lozim. Bu haqda so'z mulkinining sulton Alisher Navoiy shunday deydi:

*Ki har ishniki qildi odamizod,  
Tafakkur birla bildi odamizod.*

Ya'ni, odamzodning har bir xatti-harakati tafakkur bilan ro'yobga chiqadi. Oddiy zarralardan tortib, toki ulkan koinot sirlarigacha inson bilim va tafakkur orqali bilib oladi. Qadimgi ertaklardagi «Uchar ot», «Uchar gilam»lar haqidagi fikrlar hozirgi kundagi samolyot va vertolyotlarni kashf etish borasidagi kishilarning ilk orzu-xayollari yoki boshqacharoq aytsak, izlanishlari edi. Shunday ekan, izlanish bu — dunyonи bilish, yaratuvchanlik demakdir.

<sup>1</sup> *Abul-Qosim Mahmud Az-Zamaxshariy.* Nozik iboralar (Sharhlar muallifi va tarjimon U.Uvatov). Toshkent, Kamalak, 1923, 80-bet.

## ALLOMALAR BISOTIDAN

*Olim bo'lsang – olam seniki.*

Komil insonga xos odob-axloqiy tushunchalar kundalik turmush tarzida namoyon bo'ladigan voqe-a-hodisalarga munosabat, insonning jamiyatga, mehnatga, aql-zakovatiga bo'lgan dunyoqarash bilan izohlanadi. Abdulla Avloniy (1878–1934) dangasalik va yalqovlikni qattiq qoralaydi, uning fikricha, baxtga, barcha muvaffaqiyatga faqat sa'y-harakat va mehnat bilangina erishish mumkin. Qiyinchiliklarni bartaraf etish, yangi yutuqlarga erishish, muvaffaqiyatsizliklardan keyin yutuqlar kelishiga ishonish, har qanday yutuqlardan keyin muvaffaqiyatsizliklar paydo bo'lishiga tayyor turish uchun hayotni chuqur bilmoq, hikmatnoma kitoblarni ko'proq o'qishi zarurdir.

Hazrati Sulaymonning uzugida: «Bu dunyodagi hamma narsa o'tkinchi», degan so'zlar o'yib yozilgan ekan. Bir kuni hayotida shunday baxtsizlik yuz beribdiki, qo'lidagi uzukni barmog'idan yechib olib otib yuboribdi. Dumalab ketayotgan uzukning ichki tarafida allaqanday yozuv borligini ko'rib qolib, uzukni yana qo'liga olib qarasa: «Bu ham o'tib ketadi», degan yozuv bor ekan. Shunda u uzukni qo'liga qayta taqib, odob-axloqini ishga solib, ishonch bilan oldinga qadam tashlabdi.

Odob tushunchasini tahlil qilgan buyuk faylasuf miletlik Fales (625–547): «Men uch narsa uchun taqdirdan minnatdorman: birinchisi hayvon emas, inson bo'lib tug'ilganim uchun, ikkinchisi – ayol emas, erkak bo'lib tug'ilganim uchun, uchinchisi esa varvar emas – ellinlik bo'lganim uchun». Uning yana qator aytganlari bor:

- Eng go'zal narsa nima?
- Odam. Chunki u Tangrining mahsulidir.
- Eng tez narsa nima?
- Aql. U hamma narsani ortda qoldiradi.
- Hammadan donoroq narsa-chi?
- Vaqt. Chunki yolg'iz vaqtgina hamma narsani oydinlashtiradi.
- Hamma uchun eng umumiy narsa nima?
- Umid. Chunki u hech vaqosi yo'qlarda ham mavjuddir.

- Eng kuchli narsa nima?
- Zaruriyat. Chunki u hamma narsaning ustidan hukmronlik qiladi.
- Eng qiyin ish nima?
- O'zni anglash.
- Eng osoni-chi?
- O'zgalarga maslahat berish.

Sharqona odob-axloqiy fikrlarning huquqiy asoslari ni yaratgan Xoja Samandar Termiziyning «Dastur ul-muluk»asari insonni komillikka yetkazuvchi hayot saboqlari haqidagi bebaho nodir asar hisoblanadi. Alloma o'z asarida insonning qadri, sabr-bardoshi,adolat mezoni, rahbarlik mansabini boshqarishi, amal kursisiga minib olib, istagan narsamni qilaman deb o'yamasligi, mardligi, jasurligi, eng qiyin sharoitlardan chiqish yo'llarida hamroh bo'luvchi aql haqida durdona fikrlarni bayon etgan. Asarda qu'yidagi hikmatlar bayon etilgan:

Azizim, agar har qanday podshoh odamlar bilan birga bo'lmasa, birga tirikchilik qilish uchun do'stlik, xursandchilik rejasini tuzmasa, xalqqa g'amxo'r bo'lishdan, mamlakatni obod qilishdan qo'l tortsa, ayshu-ishrat, o'zin-kulgiga berilib, qulqolarini faqat chang va udning baland baqiriq nag'malari bilan band qilib, har bir diltangning xazin nolasini eshitmasa, oqibatda xalqni ham xarob qiladi:

#### B a y t

*Shoh uchun el osoyishi katta ganj,  
Oni deb ranj cheksa shoh-yo'q elda ranj.*

Azizim, zudlik bilan jangga kirib, olovgar shamshiring suvi bilan yomon niyatli raqibning nomini hayot lavhasidan yuvib tashlagan, dushmanning olazarak ko'zlarini zafar toshi bilan urib, murod piyolasi labidan may ichgan, davrning nomdor, shijoatli bahodirlarigina mamlakat kelajagini o'z bag'riga bosishga haqlidir. Bino-barin, aytadilar:

#### B a y t

*Qaysi odam ko'rsang yovingni tinch-farog',  
Tunda mahv et, qabriga yoqqil chirog'.*

Azizim, urush paytida jang maydonida or-nomus uchun kurash ketayotgan bir vaqtda, mard kishi shuhrat haqida, jonu

mol to'g'risida o'ylamasligi kerak. Ularni keraksiz, beqadr bir narsa deb bilib, astoydil jang qilmog'i lozim. Chunki urush kunida shuhrat, jonusi mol orttirish yo'lida bezovta bo'lishdan ko'ra, jang tashvishi, kulfati to'g'risida o'ylash ming marta a'lodir. Binobarin, aytadilar:

B a y t

*Oru nomusdan afzal bilursan gar boshing,  
Yop paranji boshinga, bo'lsin ayollar yo'ldoshing.*

Azizim, aqlli kishi dushman uning joniga qasd qilganini ko'ra turib, zudlik bilan unga qarshi kurashga harakat qilmasa, o'z joniga o'zi zomin bo'ladi. U muxolifiga asir tushmasligi uchun ikki holatni esdan chiqarmasligi kerak: agar jangda g'alaba qilsa zamon sahifasida uning shuhrati-nomi qoladi; agar dushman uni mag'lub etsa, qo'rroq, nomard degan nom bilan la'natlanadi:

Q i t ' a

*Yov seni mahv etgali qasd aylabon yursa shitob,  
Oqil ershing jangga kirgil, elga bo'l manzur erur.*

Azizim, baland ovozga, baquvvat jussaga ega bo'lgan har qanday odamni kuchli deb atash aqldan emas. Ko'rmaganmisan, qamish yo'g'on bo'lsa ham, u ingichka, quruq cho'p zarbidan sinadi. Turna bo'y jihatidan uzun, jussali bo'lsa ham qarchig'ay changali oldida notavondir.

Azizim, mamlakatni boshqarish va uning sirini saqlash oddiy tamoyil yoki odamlar bilan rasmiy muomalada bo'lish emaski, sen u haqda har qanday odam bilan maslahatlasha bersang. O'z orzu-istiklarini, sirini boshqa odamlarga oshkor etuvchi podshohlar hokimiyat tepasidan yiqilib, hokimiyatsizlik qa'riga – o'pqoniga tushib ketadilar. Chunonchi, aytadilarki:

B a y t

*Demishkim bir xushkamom oqil va bir mardonai hushyor:  
«Boshing qadriga yetsang etmag'il aslo siring oshkor».*

Azizim, elchi ikki masalada nihoyat hushyor bo'lishi zarur. U o'z podshohiga sodiqligini ifodalash uchun mamlakatning nomusi, shon-shuhratini, sultanatining ulug'vorligini ehtiyot qilishi, shuning bilan birga, dushman bilan bo'lgan munosabatida uning makr-hiyasidan hamisha ogoh va xushyor bo'lib turishi lozim.

B a y t

*Yo'q ekan yashamakka layoqati to aning,  
Boridan ko'ra yo'g'i ming bora avlo aning.*

Azizim, kishining aqli, odobi, zakovati uning layoqati va qobiliyatining mezonidir. Kimning aqli ravshan, fikrlash qobiliyati yuksak bo'lsa, u eng past lavozimdan eng yuqori, sharaflı mansab supachasiga ko'tariladi:

B a y t

*Mulozim oqil ersa, bo'lmasa go'l,  
Kamand tashlab falaklarga solur yo'l.*

Azizim, olamni bezatuvchi o'tkir aql hamma vaqt va har qanday holatda ham odil qozi vazifasini o'tagan. Chunki odam tabiatiboshqa tirik mavjudotdan ajralib turadi.

Azizim, dushman har qancha kuchsiz, ojiz bo'lsa ham, uning tikani bo'ladi. Ehtimol makr-hiyla bobida ojizlik qilmas. U shayton yo'liga kirib olib, tili bilan adovatning olovini shunday yoqishi mumkinki, uning alangasini suv bilan o'chirish to'g'risidagi har qanday tadbir ojizlik qiladi. Chunonchi, aytgan edilarki:

*Zol: bu pandni doimo yodingda tut, Rustam, dedi.  
Dushmaning sen o'zingdan bilma aslo kam dedi.*

Azizim, har kimki dashmanga giriftor bo'lsa, to undan qutulmaguncha xavf-xatardan xoli bo'lmaydi. Ertadan kechgacha, kechdan tonggacha bezovta bo'ladi va parishonlikdan u oyog'ini boshdan, kovushini dastordan farq qila olmaydi. Binobarin, aytadilariki, bemorning sihati yaxshilanmaguncha, yemoqdan va to hammol orqasidagi og'ir yukini yerga qo'y-maguncha yengillikdan rohatlanmaydi. Qo'rqqan kishi dushman xavfini bartaraf etmas ekan, omonlikda tinch yashay olmaydi, bir nafas ham farog'atda bo'lmaydi.

Azizim, agar podshoh o'z mansabini suiiste'mol qilgan, xalq va mamlakat mulki, rizqi ro'zi hisobiga boyishga intilgan nafsi o'pqonlarga No'shirvoni Odilga o'xshab jazo chorasi ni qo'llamas, yurt xarob bo'ladi, fuqaroning podshoga bo'lgan ishonch umidi zulmat shabistoniga -qorong'i kechaga aylanadi:

B a y t

*Siyosatdaadolat qilmasa gar shoh,  
Fuqaro, ayt-chi, kimdan topg'usi panoh?*

Milliy ma'naviyatimizga xos odob-axloqda qanoat tu-shunchasi kengroq talqin qilinib, har bir yaxshi ishning nati-jasi qanoat bilan amalgalashadi fikr mulohazalar ber-ilgandir. Qanoatli kishi sabr-bardoshli, o'z so'zining ustidan chiqqandagina martabali va mansabli bo'lishi bilan birga hikmat kitoblarida o'z aksini ko'radi. «Maxzan al-ulum» («Ilmlar xazinası») kitobida:» Qanoatli kishi hech qachon kambag'al bo'lmaydi. Qanoatsiz kishi esa gadoyga o'xshaydi, uning hamma narsasi bo'lsa ham, ko'zi to'ymaydi, ko'proq topishga intiladi, narsa uchun odamlar oldida bosh egadi», deb izoh beriladi:

*Sabr bila bog'liq ish ochilur,  
Ishda oshiqqan ko'p toyilur.*

Zolim g'amda kuysin, ojiz shod kulsin!

Juda katta obro'-e'tiborga ega Ardashe o'tmishning dono kishilaridan biri bo'lgan. U o'z xodimiga uchta xat yozishni buyuradi. So'ng unga deydi: «Ey xodim, agar mening yuzimda g'azab tug'yonini ko'rsang, biror narsa ustidan qat'iy hukm chiqarmasimdan avval xatlardan birini menga ko'rsat. Shunda ham g'azabim bosilmasa, ikkinchi xatni ko'rsat. Tag'in ham taskin topmaganimni ko'rsang, uchinchisini ko'rsat!»

Aytishlaricha, birinchi xatning mazmuni shunday edi: «Shoshilma, irodangni g'azab qo'liga asir qilma, shoshgan kishi doimo afsus chekib, keyinchalik pushaymonlik tortadi!» Ikkinci xatning mazmuni esa quyidagicha edi: «Davlat o'zimda deb o'zingdan ojizlarga jazo beraverma, kuni kelib, zamonlar o'zgarsa, qanday muomala qilgan bo'lsang, ular ham shunday muomala qilishadi!» Uchinchi xatning mazmuni esa quyidagicha edi: «Ey g'azablanayotgan kishi, shoshib hukm chiqarma, g'azabingni bosib, insof yuzasidan ish ko'r!»

Qanoat, sabr-bardosh, shoshmay fikr qilish, jahlni jilov-lab olish, boylik orttirishdan voz kechish, mansabni aql bilan boshqarish, nafsning jilovini aql qo'liga topshirish, ilm bilan do'st bo'lish, hunarni qadrlash, muhtoj qalbni eshitish, kambag'alga saxovat yordamini berish to'g'risida mutafakkir Abulbarakot Qodiriyning fikri alohida ahamiyatga egadir:

*Muncha qattiq choppingni, o'g'lon,  
Olib qochsa uni qaytarmoq gumon.  
Sendan chiqqan hukm haq hukm bo'lsin,  
Zolim g'amda kuysin, ojiz shod kulsin!*

Odob-axloqning qadr-qimmati hayot sinovlaridan o'tgan odamlarning o'gitlari bilan boy, keksalarning yoshlarga qilgan dono maslahatlari bilan yanada hayot go'zal bo'lib boradi. Keksani hurmat qilish haqida har kuni, har daqiqada maslahat berish katta yoshdagilarning burchidir. O'zingdan kichikni ko'rganingda: — «Bu hali yosh, menchalik gunoh qilib ulgurmagan. Bu yoshdan gunohkorroqman. Bu yoshdan afzal emasman. U mendan ko'ra fazilatliroq. Chunki gunohi ham ozroq», keksaroq kishini ko'rganda: — «Bu zot mendan ko'proq yashagan, bandalik xizmatini ham mendan ko'proq ado etgan. Shu sababli mendan fazilatliroq». Bir olim kishiga duch kelganda: — «Bu zot bilimdon. Men bir nodonman. Shuning uchun bu zot mendan ko'p fazilatlidir». Bir nodon kishinini ko'rganda: «Bu nodon bo'lganligi uchun ba'zi gunohlarni qilmoqda. Men bilib gunoh qilayapman. Shuning uchun shu johil kishi mendan ustunroq, afzalroqdir» deb xulosa chiqarish zarurdir.

Dunyo xalqlari iqtisodiy-madaniy va savdo munosabatlari tufayli o'zaro aloqada bo'lib, ijtimoiy turmush tarzini yaxshilash, ilmiy tafakkurni hamkorlikda olib borish, fan-texnika yutuqlarini takomillashtirish va sa'nat hamda madaniyat sohasida fikr almashish jarayonlarida bir-birlariga yaqin munosabatda bo'lganlar. Kishilik jamiyati yaratilgandan buyon o'zaro tovar almashish, hokimiyat uchun kurash, o'zga yurtlarni bosib olish, savdo karvonlarining muntazam harakati, milliy ozodlik harakati, chet el bosqinchilariga qarshi kurash kabi voqeа-hodisalar zaminida qo'shni xalqlar madaniyati bilan uyg'unlashish jarayoni jadal rivojlanib yangi tafakkurga oid hayotiy kechinmalar ta'sirida xalq hikmatlari bir-birini to'ldirib turgan. Shuningdek, qo'shni va boshqa xalqlarning urf-odatlari, an'analari hamda qadriyatlariga xos ibratlari hikmatlar o'zaro muloqot jarayonida boshqa xalqlar tomonidan qabul qilingan. Bu hikmatlar jahon xalqlarining o'zaro hamkorligiga, tinchligiga, iqtisodiy va madaniy alogalarning yanada mustahkamlanishiga munosib hissa qo'shib kelgan. Quyida ana shunday hikmat durdonalaridan namunalari keltirildi.

«*Barcha kishining kuchi ovqatdandir, aqlning kuchi esa hikmatdandir*» (Aristotel).

«*Agar aqli bo'lishni istasang, hikmat o'rgangilki, aql hikmat bilan kamol topadi*» (Kaykovus).

«Xalq orasida ko‘pchilik tildan qo‘ymaydigan so‘z aslo o‘lmaydi» (Gesiod).

«So‘zlar – asrga, fikrlar – asrlarga tatiydi» (Karamzin).

«Qisqa ifodalangan o‘tkir fikrlar hayotni yaxshilashga ko‘p xizmat qiladi» (Siseron).

«Men qadimgi donishmandlarning ...bizlarga qoldirib ketgan durdonalarini ko‘zdan kechiraman; agarki, biz ular dan nimadir yaxshi bir narsaga duch kelsak, uni o‘zlashtirib olamiz va katta foyda orttirgan bo‘lamiz» (Suqrot).

«Qadimdan odamlarning dono va bag‘oyat go‘zal hik matli so‘zлari mavjud, biz ulardan o‘rganmog‘imiz darkor» (Gerodot).

«Har kuni aqlii bitta qo‘sish qeshitish, yaxshi rasm ko‘rish va iloji bo‘lsa, istagan bir hikmatli so‘zni o‘qib olish dar kor. Turli-tuman tarbiyaviy hikoyatlar va hikmatli so‘zlarni to‘plash – tengsiz davlatadir» (I. Gyote).

«Tarbiya ishida o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoni ga katta o‘rin berilmog‘i lozim. Insoniyat faqat mustaqil o‘rganish tufayligina taraqqiy etgan» (G. Spenser).

«Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir» (J. Santa yana).

«O‘z uyida baxtli bo‘lgan kishigina baxtlidir» (Demokrit).

«Ota donoligi yuzta o‘qituvchidan ustun demakdir» (J. Gerbert).

«O‘z o‘g‘lini hech bir foydali ishga o‘rgatmagan odam o‘g‘ri boqayotgan bo‘ladi» (T. Fuller).

«Bolalar go‘zallik, o‘yin, ertak, muzika, rasm, xayol, ijodi yot olamida yashamoqlari kerak» (V.A. Suxomlinskiy).

Fridrix Gegelning odob masalasidagi fikrlarida aql bilan ish tutish har bir insonning baxt-saodatga erishishining asosiy mezoni ekanligi ta’kidlanadi. Jumladan, dunyoni ang lash masalasida quyidagi fikrlar ilgari suriladi: 1) Dunyoga aql ko‘zi bilan boqqan odamga dunyo ham oqilona qaraydi. 2) Insonning burchlari to‘rtga bo‘linadi: o‘z oldidagi burchi; oilasi oldidagi burchi; davlat oldidagi burchi; o‘zga odamlar oldidagi burchi. 3) O‘rni kelganda haqiqatni aytmaslik yaxshi emas. Bu narsa o‘zingni ham, o‘zgalarni ham tahqirlash demakdir. Biroq layoqat yoki huquq bo‘limganda haqiqatni aytmagan ma’qul.

Yevropa madaniyatining yirik tafakkur egalari inson ongi bilan bog‘liq masalalarga diqqat bilan e’tibor berib, har bir

narsaning mohiyati va mazmuniga qarab xulosa chiqarish jamiyat taraqqiyotining mezonidir deb baholaydi:

«Hovliqmasdan so'zla: shoshilish aqlsizlik belgisidir» (Biand).

«Odamlar! Eng avvalo ezgu axloqqa ega bo'lishga harakat qiling. Zero, axloq qonunning asosidir» (Pifagor).

«Inson o'zi burchli bo'lgan hamma ishni bajarishga qodir. Harakat qilmoq! Harakat qilmoq! Biz shuning uchun mavjudmiz» (Iogann Fixte).

«Insonning tavba-tazarruga bo'lgan ehtiyoji hech qachon yo'qolmaydi. Hammaga birdek yoqish istagi eng kulgili istakdir» (Iogann Gyote).

«Birovni qoralashdan oldin doimo uni oqlash imkoni bor yo'qligini o'ylash kerak».

«Axmoqni donoga aylantirish qo'rg'oshinni oltinga aylantrish singari mushkul ishdir» (G. Kristof).

«Axmoqlar biz o'ylaganchalik ko'p emas. Odamlar bir-birlarini tushunmaydilar, xolos».

«Qo'rqaq odam izzattalab odamga nisbatan kamroq haqorat alamini tortadi» (Lyuk De Klapa).

«Rahmdillikka muhabbat va nafislik, ichiqoralikka esa dushmanlik va g'azab omuxta bo'ladi» (David Yum).

«Hamma bilan xushmuomalali, ko'pchilik bilan dilkash, ayrimlar bilan esa betakkalluf bo'l».

«Agar sen aql-zakovatga qulooq tutmasang, u albatta, qasos oladi» (Franklin).

«Yoshlik o'tib borayotganini hech kim sezmaydi, ammono uning o'tib ketganini hamma his qiladi» (Seneka).

«Keksalik xuddi qorday to'satdan bosadi. Ertalab tur-sangiz hammayoq oppoq» (J. Renar).

«Yoshlik bilan qarilik orasidagi muddat naqadar qisqa» (Sh. Monteske).

«Keksayganini odam qachon sezadi? Buni u orzu-umidan voz kechib faqat xotiralar bilan yashay boshlaganda his qiladi» (F. Zanders).

«O'spirinlik yillari beqiyosdir. Keksalik unga vaqt tumanlari orasidan boqishni xush ko'radi. Mo'ysafid odam shom pallasida tong shafag'ini orzu qiladi» (J. Bayron).

«Keksayha olish san'atidan ko'ra uni yenga olish san'ati ulug'roqdir» (I. Gyote).

«Qarilik haqidagi o'ydan ko'ra kishini tez qaritadigan narsa yo'q» (G. Lixtenberg).

*«Keksaygan sayin hayotga muhabbat ortib, o'lim dahsha-ti kuchayadi» (J.Labryuyer).*

Diniy-axloqiy qadriyatlarning ham xalq hikmatlarida-gi o'rni beqiyos bo'lib, ayniqsa hadislar insoniyatni poklik, halollik, mehr-muruvvatga chorlovchi, ma'naviy komillikka undovchi, mol-dunyoga hirs qo'yishning yomon oqibatlari, ochko'zlik, badnafslik, jaholat, g'azab, dushmanlikni jilovlash kabi xislatlarni tahlil qiluvchi beba ho xazinadir. Hadislar ikki dunyo misolida odamlarning o'z hatti-harakatlari uchun javobgar ekanligini, har bir yaxshiligi hamda har bir yomonligi uchun o'z aql-farosati bilan javobgar ekanligini tu-shuntiruvchi odobnomadir. Dunyo deganda o'limdan oldingi, oxirat deganda esa, o'limdan keyingi holat nazarda tutiladi. Hadislar insoniyat aqliga nrafshonlik, o'z orzu-umidlarini amalga oshirishi, nafsi jilovlashi uchun tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Qur'on oyatlari inson uchun buyuk hayot manbaini anglab olishida nurli yo'ldir. Yo'lini yo'qtganlar uchun aql chirog'i, shoshganlar uchun muvo-zanat saqlab xulosa chiqarish maktabidir.

## **RAHBARGA XOS FAZILATLAR VA O'GITLAR**

*Podshoh – mulk badanining jonidur.*

*Alisher Navoiy*

Mustaqillik yillarida yosh avlodni tarbiyalash, ularning kelajakda munosib vatanparvar, insonparvar va yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishi uchun milliy urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni, an'analarmizni o'rganishga barcha imkoniyatlar yaratildi. Eng muhimmi, yoshlarga ajodolarimiz tomonidan yaratilgan milliy odob-axloqqa xos tarbiyani singdirish, shu asosda rahbarlik san'atini o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki odob-axloqli rahbar keng mulohazali, millatni sevadigan, millatlar o'rtasidagi o'zaro do'stlik aloqalari ni mustahkamlaydigan, ona-Vatanning muqaddas tuprog'ini ko'z qorachig'iday asraydigan, odob-axloqda ibratli, bosiq, vazmin bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun hayotiy tajriba rahbar xodimlarga alohida mas'uliyat yuklaydi. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, odob-axloqli rahbarlar el-yurt oldida o'z mas'uliyatini yana ham chuqur, teran anglashi lozim. U amal kursisidagi kunlarini uzaytirib, o'z

farog'atinigina o'ylab yashamasligi, aksincha, odamlarning ko'nglini ko'tarishi, boshini qovushtirishi, yaxshiroq yashash imkonini yaratadigan istiqbol yo'llarini ko'rsatib, shu maqsadga tezroq yetishishga odamlarni odatlantirishi lozim. Sharqona odob-axloqli va ma'naviy-axloqiy sog'lom rahbargina o'z jamoasi, el-yurt ishonchini oqlay oladi, jamiyatda sog'lom, ma'naviy muhitni qaror toptirib, odamlarda yaratish ishtiyoyqini, kelajakka ishonch ruhini kuchaytiradi. Albatta, bunday rahbarlar bir yilda, boringki ikki yilda shakllanib, kamolga yetib qolmaydi, buning uchun yillar kerak, qunt, intilish, sabr-bardosh, tinimsiz izlanish zarur.

Rahbarning xos xususiyatlari, fazilatlari hadislarda ham o'z aksini topgan. Chunonchi, Abu Iso Muhammad Imom at-Termizi (824–892) jamlagan hadislardan ayrimlariga e'tibor qarataylik: «Agar hokim to'g'ri hukm chiqarsa, unga ikkita savob yoziladi. Qiyomat kunida Allohga eng yaqin insonlar va majlisda eng balandlari odil podsholardir»; «Ikki kishi xususida hukm chiqarsang, ikkinchisining gapini eshitmaguncha bir fikr aytma»; «Qaysi shoh (hokim, boshliq) o'z eshigini miskinlar uchun yopib qo'ysa, unga Alloh eshiklari berkiladi»; «Hokim kechiruvchi bo'lmos'i kerak, chunki hokimning kechiruvida xato qilganni jazolamaslik xato qilganidan afzaldir». Varroq at-Termizi aytadi: «Umaro (amirlar)ning fasodi (fojiasi) – zulmdandir, ulamo (olimlar)ning fasodi – tamagirlikdandir, fuqaroning fasodi – riyokor (ikki yuzlamachi)likdandir». Ko'rinaridiki, rahbarlarning fojiasi aksaran zulmdan kelib chiqar ekan, zotan, zulm-zo'rlik mavjud joyda osoyishtalik yo'qoladi, o'zaro hurmat-izzatga putur yetadi.

Rahbar faoliyati, uning amalga oshirgan ish jarayonlarini chuqur o'rgangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 1993 yilda rahbarlarni uch guruhga bo'lib, quyidagi fikrni ta'kidlaganlar: «Birinchi toifa – hozirgi og'ir vaziyatdan foydalanib qolishga harakat qiladigan, faqat o'z manfaatini o'ylaydigan, xalq g'am-tashvishidan begona kim-salardir. Ikkinci toifa – befarq, loqayd odamlar bo'lib, ularni «o'yinchi» deging keladi. Bunday rahbarlar hech kimga qarshi gapirishni, dushman orttirishni istamaydi. O'yin bilan yuribdi. Uchinchi toifa – o'zini el-yurt ishiga tikkan kishilar. Men shu toifadagi kadrlarga umid bog'layman».

Rahbarlik katta odob-axloqni, yuksak sadoqatni, mas'u利yatni, madaniyatni, muomalani, mulohazani, mushohadani

taqozo etib, eng muhimi iqtisodiy bilimni ahloqiy-ma'naviy bilim bilan mujassam etgan kishigina mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi. Ushbu masalaga alohida e'tibor bergen Yurtboshimiz mamlakat taraqqiyotiga, uni boshqarishga rahbarlik qila oladigan xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish masalasiga alohida e'tibor berib: «*Shuni alohida ta'kidlash zarurki, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan normal madaniyatli taraqqiyotga o'tish, tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir. Odamlarning psixologiyasi va turmushiga o'nlab yillar davomida ko'pincha zo'ravonlik yo'li bilan boshqarilgan rahbarlikni bir zumda o'zgartirish mumkin emas. Buning uchun ijtimoiy jamoalar o'rtasidagi rahbarlik munosabatlarining keskinlashuviga va ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga barham berish yo'li bilan jamiyatni boshqarish va o'zgartirish zarurligiga odamlarni ishontirish, harakatga keltiruvchi rahbarlik kuchlarini va boshqarishning rag'batlantiruvchi omillarini o'zgartirish mumkin», deb rahbarlik dasturiga mustaqillikning dastlabki yillarida alohida e'tibor bergen edi.*

O'zbekiston davlatini boshqarish, taraqqiyot yo'lini belgilab olish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzini yaxshilash uchun salohiyatli, odob-axloqqa ega bo'lgan rahbarlarni tayyorlash, tanlash, mas'uliyat nuqtai nazaridan javobgarlikni his etishga yo'naltirish tufayli rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqish asosiy dastur qilib olindi. Rahbarlarni tayyorlash va tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish dolzarb masala hisoblanadi. Eng muhimi, ba'zi rahbarlar muhim masalalarni hal etishda, ayniqsa o'zi rahbarlik qilayotgan tashkilotda biron lavozimga ma'lum shaxsni tayinlashda, «*men boshliqman, demak, mening aytganim – aytgan, deganim – degan bo'lishi shart*», deb o'z mansabi va amali faoliyatiga o'zining shaxsiy nuqtai nazaridan yuqori baho berib yuboradi. Payg'ambarimiz Rasululloh sallallohu va sallam bashorat qilganlaridek: «O'zlarining qanday bo'lsangiz, ustingizga shunday hokim kelar», demak, jamoani ahil, mustahkam boshqarish uchun aql va farosat muhim ahamiyatga ega ekanligini rahbar unutmasligi kerak. Rahbarning o'ziga ortiqcha bino qo'yib, o'zi rahbarlik qilayotgan tashkilotda mahalliychilikka, oshna-og'aynigarchilikka, qarindosh-urug'chilikka berilib ketib, lavozimga tanlagan

o'rinbosar yoki bo'lim boshliqlari ma'naviy noloyiq, ongi siyosiy jihatdan shakllanmaganligi tufayli jamoada noqulay, buzuq, ruhiy nopol vaziyatni vujudga keltiradi. Jamoada odob-axloqli va ma'naviy yetuk, talabchan, ziyrak, haqgo'y, adolatparvar, haqiqatni to'g'ri aytadigan, savodli, mehnatkash, tadbirkor, mulohazali xodimlar o'rniga noloyiq xodimlarning rahbarlik lavozimiga ko'tarilishi natijasida jamoadagi muhit buziladi. Natijada odamlar rahbarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lib, undan uzoqlashadi, chunki rahbar o'z mas'uliyatini yo'qotib, oyog'i yerdan uzilib, manmanlikka berilib, havolani ketishi oqibatida sofdil xodimlar u bilan jamoa manfaatlarini hisoblashga e'tibor bermaydi. Qachonki, rabbarning yuragi ham, qo'li ham, ko'ngli ham toza bo'lsa, tamanan, g'arazdan, arazdan yiroq bo'lsa, uning tabiatida qat'iyliz, vazminlik, talabchanlik bilan aql-zakovat uyg'un bo'lsa, faqat shundagina u odamlarning g'am-tashvishini o'z qalbidan o'tkazishga qodir bo'ladi. Tashkilotda rahbar o'rinbosarining maqomi ham ayricha, sababi o'rinbosar rahbarga ta'sir o'tkaza oladi, faqat bu ta'sirning ijobiy yoki salbiy bo'lishi ko'p holatga oydinlik kiritadi. O'rinbosar jamoa ahli bilan, ularning fikri bilan muvofiqlasha olsa durust, ya'ni jamoaning rahbar fikri bilan muvofiqlashuvini ta'minlaydi yoki aksincha bu muvofiqlashuv ro'y bermasligi ham mumkin. Ro'y bermasligi shuki, o'rinbosar jamoa ahliga g'araz bilan qarasa, ularga no-pisand munosabat izhor etsa, jamoa ahli ancha ozor chekadi. Bu xil hodisalar ko'plab tashkilotlarda mavjud, ana shu xil boshliqlar uzoq yillar lavozimga kanaday yopishib oladi, ularni tez-tez va vaqtida almashtirib turish zarur. Buni bilgan va anglagan holda yuqori tashkilot rahbarlari e'tiborsiz qaraydi, bilib-bilmaslikka oladi, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadi, o'zicha yaxshilikka yo'yadi, vaholanki, jamoa tortgan azob bilan hech kimning ishi yo'q.

Mustaqil O'zbekiston davlatining qo'lga kiritadigan yutuqlari, xalqimizning farovon tur mush kechirishi rahbarlarning ruhiy ko'tarinki kayfiyatiga, ma'naviy olamiga, jamoa muhitini bilishiga, eng muhimi tashkilotchilik, tadbirkorlik faoliyatiga bog'liq. Rabbarning jamoa va shaxs manfaatlari bilan uyg'unlashib ketishi alohida ahamiyatga ega. *Risoladagi rahbar o'z atrofiga o'ziga safdosh bo'la oladigan uquvli kishilarni to'playdi va ular bilan bamaslahat ish yuritadi. Uquvsiz rahbar esa atrofiga o'zidan ham uquvsiz-*

*roq kishilarни yig'adi, ularga istagan so'zini o'tkazib turadi, o'zidan kuchli xodimni yaqiniga yo'latmaydi, o'rnimni egallab qo'yadi deb cho'chiydi», — deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A. Karimov.*

Shuningdek, rahbarning ma'lum kishilar guruhiga hech ikkilanmay «singib ketishi» yoki shu guruhdagi kishilarning rahbarga ko'r-ko'rona bo'ysunishi natijasida yuzaga keluvchi jarayon, holatlar ham bor. Jamoa oldiga qo'yilgan muhim maqsadlar rahbar uchun ham muhim ahamiyat kasb etgandagina ana shunday uyg'unlik yuzaga keladi. Biroq har qanday jamoa ham o'ziga xos dunyoqarash, qiziqish va moyilliklarga ega bo'lgan turlicha fe'l-atvordagi kishilar guruhidan tashkil topavermaydi. Har bir rahbar faoliyati davomida jamoa hayotiga baholiquidrat o'z hissasini qo'shib borsa va undan o'zi uchun biror yangilik topa olsagina zamini mustahkam jamoa vujudga keladi. Demak, rahbar shaxslarning ma'naviy dunyosi qanchalik yuqori bo'lsa, jamoa hayoti mazmunan shunchalik boy va qiziqarli bo'ladi. Eng achinarlisi shundaki, ba'zan rahbarlarning jamoadan ortda qolib, o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal etishga ojizlanib qolishi, faolligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va alohida tadbirkorligi bilan boshqalardan ajralib turadigan shaxsiy sifatlari bo'lmasa, rahbar bilan jamoa o'rtasida munosabatlar yanada jiddiyroq tus ola boradi. Uning kasbiy no'noqligi o'z mavqeini yo'qotishiga olib keladi. Agar jamoa ma'naviy siyosiy, iqtisodiy jihatdan shakllanmagan bo'lsa, qobiliyatli, tashabbuskor rahbar bilan jamoa o'rtasida nizo kelib chiqadi. Bunday vaziyatda jamoa rahbarga nisbatan «to'g'ri kelmaydigan rahbar», «**osoyishtalikni buzuvchi rahbar**», deb unga tazyiq o'tkazadi. Bunday noqulay vaziyatda rahbar, «**Sen menga tegma, men senga**» qabilida ish tutsa, rahbar «**o'zini jamoaga qarama-qarshi qo'yadi**», oqibatda rahbar jazo olib ishdan ketadi. Mahmud az-Zamaxshariy aytadilarki: «Tog'ning eng tepasi(cho'qqisi)ga chiqqan kishi undan yiqiluvidan g'oyat ko'p ogoh bo'lmos'i lozim». Yoki qomusiy olim Beruniy aytganidek: «Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rta ga kirib olishi bilan ish to'g'ri bormaydi», «Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi».

Rahbar ma'naviy nuqtai nazardan pok bo'lishi bilan birgalida, o'z kasbini chuqr bilishi, uni boyitib borishi, xalq va vatanga fidoyilik va tashabbuskorlik, talabchanlik qobiliyatini

namoyish etishi kerak. Eng muhimi rahbar g'iybat, mayda gaplar, fisqu fasod, araz, g'arazlardan yiroq bo'lib, maishat-bozlikka berilmasligi shart. Az-Zamaxshariy aytganlaridek: «Fisqu fasod qiluvchilar va fojirlar ko'paysa, Alloh taolo vabo yuboradi». Rahbarning ma'naviy mavqeini pasaytiradi-gan narsa, maqtovdan boshi aylanib, «dohiy»lik kasaliga chal-nib, o'z manfaatini o'ylovchi «maslahatgo'ylar», amalparast, laganbardor, poraxo'r, oddiy odamlarga zug'um o'tkazuvchi kishilar qurshovida qolmasligi,adolatsizlikka yo'naltiruvchi g'oyalar changalida qul bo'lmasligi kerak. Zotan poraxo'rlik yomon illat «Pora faqat nohaqligu zolimlarga yordam beruvchidir»(Zamaxshariy), laganbardorlar esa pora va poraxo'rlikdan ham oshib tushadi. Deylik: «Maqtovdan ham ko'ra kattaroq pora bormi? Ya'ni: maqtov poralarning kat-tasidir», — deydi Sayyid Burhoniddin at-Termiziyy (vaf.1241). *«Aqli odam doimo buyuk kishilar sinovidan o'tgan yo'lni tanlashi va eng ajoyib shaxslarga taqlid qilishi kerak, chun-ki u mabodo o'sha buyuklik darajasiga ko'tarila olmagan taqdirda ham har nechuk qittay bo'lsa-da, uning yog'dusini emadi»*, — degan edi N. Maknavelli.

Jamiyatning paydo bo'lishi, taraqqiy etib borishi insoniyatning yuksak aqliy tafakkuri natijasidir. Chunki, insonga berilgan aql-idrok, ong tizimi, uni boshqa jonzotlardan farqini bildirib, ana shu aql-tafakkuri bilan tabiat sirlarini bilishga, o'zi yashayotgan jamiyatga moslashishga harakat qiladi. Bi-roq ushbu aql-idrok hamma insonga bir xil berilmagan hamda ma'lum o'Ichovga ega ham emas. Bu esa tabiatning siri, yarat-ganning ulug' himmati bilan taqdiri azal paydo bo'lgandan buyon noma'lum sir sifatida ochilmay qolmoqda. Tabiat bergen aql-zakovatni jamiyatda ishlatish, undan foydalanish ham hamma insonda bir xil emas, kasb-mahorat, tafakkur hamda qat'iyatlilik ham har xil. Shuning uchun ham aql-tafakkuri, ong tizimi keng rivojlangan insonlar tabiat sirlarini tez ang-lab olishga intilib, jamiyatning ilgari siljishiga, o'z ongi tafakkurida mavjud narsalarni boshqalarga targ'ib etishga, o'z izidan ergashtirishga, bo'ysundirishga, agar xalaqit qilsa bata-mom yo'qotishga kirishganlar. Ana shu aql-tafakkur, sinovlar insonlarni uddaburon, sezgir, chidamli, ayyor, mehnatsevar, tadbirdor, topqir bo'lishga, o'ziga nisbatan kamfikrlovchi, chidamsiz, fahmsiz, biron-bir narsani eplay olmaydigan, mehnat tajribasi kam, dangasa ustidan hukmronligini ta'minlab

bergan. Agar hukmronlikni qo'lga olgan inson johil, ayyor, mug'ombir,takabbur, kamsituvchi, yolg'onchi, o'z so'zining ustidan chiqmaydigan bo'lsa, uning hukmronligi uzoq yashamagan. Agar hukmronlikni qo'lga olgan inson uddaburon, ko'ngilchan,qattiqqo'l, tadbirkor,ko'pchilik manfaatlarini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan bo'lsa, uning hukmronligi uzoq yashagan. Ana shu kurash, bahs, tortishuv, ishontirish, qattiqqo'llik, tadbirkorlik, uzoqni ko'ra bilish qobiliyati, bili-mi,kasbga munosabati,mahorati,oila boshqarishdagi ibrati,tili, madaniyati,kiyimi va boshqa xususiyati bilan g'olib chiqqan insonlar Rahbar degan buyuk nomga sazovor bo'lgan.

Rahbar bo'lish har bir insonning orzusi, xayoliy tafakkuridir. Biroq u kutilmaganda beriladigan sovg'a, Allohning nazari, rizq-nasibasi, maxsus mansab libosi, obro'-e'tibori, eng muhimi el oldidagi izzat-hurmati, martabasidir. Dunyoda odil podshoh nomi bilan mashhur bo'lgan Anushirvon o'z vaziriga davlat va xalqning o'zaro jipsligini saqlab turish uchun rahbar quyidagi hikmatlarga amal qilishini nasihat qilgan: 1. Umrni qanday o'tkazish kerak? – Dilshodlik va xursandlik bilan. 2. Xudo xushnudligini nima bilan topish mumkin? – Ota-onani shod qilish bilan. 3. Odamlardan qaysi biri baxtiyorroq? – Dunyo qarama-qarshiliklaridan diltang bo'lmanan kishi. 4. Do'st noqobilga aylansa, undan qanday qutulish mumkin? – Oldiga kam borish va holini so'ramaslik bilan. Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarning ma'naviy qiyofasi va salohiyati haqida gapirganda: «*Rahbarlik ilohiy fazilat, qolaversa, u tinimsiz izlanish, intilish, bilim va tajriba ning mahsulidir*» deya ta'kidlaydi.

Rahbar ma'naviy fazilatlarga ega bo'lishi uchun til madaniyati degan tushunchaga alohida e'tibor berishi zarur. Til insonni boshqa jonzotlardan ustun qilgan ne'matlardan biridir. Kelajagi porloq bo'lishini istagan har bir rahbarning zimmasidagi zalvorli mas'uliyat shundaki, u o'z ona tilini e'zozlash bilan birga, jamoasi, korxona yoki xo'jaligi ravnaqi uchun o'zga tilda so'zlashuvchi hamkorlarining tilini ham o'zlashtira olishi lozim. Negaki, tilmoch orqali hamisha ham chin ko'ngildan, dildan suhbat qura olmaysan kishi. Bundan tashqari, rahbar o'zidan yuqori martabali rahbarlaru qo'l ostidagilar, shuningdek, hamkorlari bilan ham gaplashganda yana bir «xorijiy» tilni ham bilishi kerak. Uning nomi – ko'ngildir. Rahbar tilining ravon, ishondchli bo'lishi,

lafzida qat'iy turishi, insofli, diyonatli, kechirimli, og'ir-yengil yukni ko'taruvchi, har narsada mulohazali bo'lishi, rizq-ro'zini, mulkni talon-toroj qilishdan saqlaydigan bиринчи belgisi oiladir. Chunki oila tilini o'rgangan rahbarning umri uzoq, martabasi ulug' bo'ladi. Odamlar havas qiladigan, jamaoa qo'llab-quvvatlaydigan, o'zidan yuqori rahbarlar nazariga tushadigan, eng muhimi Alloh inoyatida bo'ladigan kishiga aylanadi. Hazrati Navoiy tilga e'tibor masalasiga jiddiy baho berib, quyidagi hikmatli misralarni bitgan edilar:

*Har kimsaki, so'z demak shiorida durur,  
Ma'no guli nutqining bahorida durur.  
So'z kim demasun, ulki ixtiyorida durur,  
So'z yaxshilig'u chu ixtiyorida durur.*

Rahbar jamiyatda yashar ekan, so'zlash odobiga nihoyatda qat'iy rioya qilishi, hamma narsani gap deb gapiravermasligi, o'ylab gapireshi, bo'lar-bo'lmasga so'z qotmasligi, tilini tiyib yurishi zarur. Aks holda boshiga balo orttiradi, o'ziga-o'zi ziyon-zaxmat yetkazadi, bilmay qo'yilgan nosoz qadam ko'p ofatlarga olib kelishi mumkin.

Rahbar ota sifatida oilasiga o'zi ibrat ko'rsatib, farzandlari-ni kasb-hunarga qiziqtirishi shart. Aks holda oila farzandlari yalqov, ish yoqmas bo'lib o'sadilar. Oqibatda har bir qilinajak ish uchun kimnidir yollash, bir so'z bilan aytganda xudbinlik, yalqovlikka moslashadilar. Ana shu narsalarga e'tibor bermagan rahbar oila oldida o'z hurmatini yo'qotadi. Eng achinar-lisi katta-kichik rahbarlarning ko'pchiligi shu masalada pand yeb qo'yib, oila va el orasida o'z obro'-e'tiborini yo'qotadi. Shuningdek, rahbarlik libosi uchun kelayotgan turli xil tuhfalar, poralarni ko'proq olishi, mohiyatiga tushunmay uni yeb-ichib maishat qilishi yoki xohlaganicha sarflashi oqibatida xotin va bolalari dunyoqarashida o'zgacha mansabparastlik illatlari shakllanib, ular otaga nisbatan o'zlarini ko'proq rahbar deb his etadilar. Xuddi «Oltin baliq va baliqchi» ertagidagidek ortiqcha dabdababozlikka, zo'r ishtiyooq bilan kiyinishga orzu-havaslar bilan zamondan oldin o'tib ketishga intiladilar. Endilikda kiyim-kechak, oziq-ovqat, qimmatbaho taqinchoqlardan tashqari, yangi «ehtiyojlar» yuzaga chiqadi. Ichkilikbozlik, qimor, qora dori iste'mol qilish, atrof-muhitni mensimaslik, bularning bari birlashib, rahbarni halokat yoqasi-ga olib kelib qo'yadi. Rahbar oilaga kelayotgan halol-xarom

boylik zamirida nimalar yotganini, uni qanday oqibatlarga olib kelishini yaxshi anglab yetishi, ota-onas, qarindosh-u rug'lar va qo'shnilar oldida o'z xulq-odobini, zohiriylari va botiniy qiyofasini ham o'z joyiga qo'ya olishi shart. Shuningdek, u oila a'zolarini ham buni fahmlashga o'rgatishi, buning oxiri nima bo'lishini, bir kuni mansabdani ketishi muqarrarligini, o'shanda iqtisodiy muhtojlik oldida dovdirab qolmaslik uchun ilmu hunar zarurligini oila a'zolariga tushuntirishi lozim. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: «*Rahbarlik boylik orttirish emas, o'zgalarning ham boyishini istashi kerak. Bunday rahbardan odamlar rozi bo'ladi, mehribonlik, g'amxo'rlik va bag'rikenglik fazilatlari namoyon bo'ladi. Kerak bo'lsa, shu yo'lda jonini ham fido etishga tayyor turishi darkor*».

Rahbar ish jarayonidagi har bir narsaning natijasi oila obro'-e'tibori bilan bog'liq ekanligini unutmasligi zarur. Rahbar gohida masalaning mohiyatiga e'tibor bermay, to'g'ri kelgan so'zni fahmlamay aytib yuborishdan o'zini tiyishi shart. Aks holda hazrati Alisher Navoiy aytganlaridek:

*Og'izga kelganini demak, nodonning ishi,  
Oldig'a kelganni yemak hayvonning ishi.*

Buning ma'nosi shuki, rahbar har bir narsaga tezda mulohaza qilib, shoshib, achchiq ustida to'g'ri kelgan so'zni ishlatib, o'zini xarob qilib qo'ymasligi talab etiladi. Rahbarning zohiriylari va botiniy qiyofasi, fazilatlari qanday bo'lishi haqidada Yurtboshimiz shunday deydi: «*Rahbar o'zi ham yonib, o'zgalarni ham yondirib yashashi kerak. Qo'shni tortmagan qo'sh undan chiqib ketishga majbur*». Bundan shunday xulosa chiqadiki, rahbar avvalambor millatning faxri, egasi, boshlig'i, har qanday sharoitda oqilona ish tutadigan, qiyin sharoit va vaziyatdan chiqib ketadigan inson bo'lishi shart.

Rahbar ish jarayonida ehtiroslarga berilmasligi, topshirilgan vazifani sharaf deb bilishi, og'ir, qiyin, chigal vaziyatlarda shoshmay, og'irlikni ko'proq o'z zimmasiga ola bilishi zarur. Rahbar berilgan ulug' martabaning qadriga yetishi tashabbuskor, tadbirkor, fazilatli bo'lishi, ko'proq o'rganib, ko'proq izlanishi, kechirimli hamda samimiy, kamtarin, har bir mulohazani jiddiy o'ylab xulosa qilib, hukm chiqarishi zarur. Shu o'rinda rahbar ulug'larni, buyuk siymolarni, davlat rahbarlarini, sarkardalarni ulug'likka yetkazgan salohiyatiga, rahbarlik san'atiga, tadbirkorligiga, mulohazalariga ko'proq e'tibor beri-

shi, ular bilan ruhiy, hayoliy jihatdan suhbatlashib turmog'i lozim.

Amir Temur davlat ishlarini boshqarishda, xalq bilan mu-loqot qilishda hamda rahbarlarni tanlashda quyidagi masala-larga alohida e'tibor bergen:

«Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga qu-loq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarni yo'qtish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasli-yu zoti yomon, hasadchi, gina-kek saqllovchi, qora ko'ngil kishilarga zinhor vazirlik (lavozimi) berilmasin. Buzuq, qora ko'ngilli, zoti past odam vazirlik qilsa, davlatu sultanat tez orada qu- laydi»;

«Dono vazir shuldirki, o'z o'rniga qarab goh qattiqqo'llik bilan, gohida esa muloyimlik bilan ish yuritadi. Bunday vazir ortiqcha qattiqqo'llik ham qilmaydi, ko'p muloyimlik bilan yumshab ham ketmaydi. Agar muloyimlik qilsa, dunyo-talab, tamagir odamlar uni yutib yuboradilar. Agar ortiqcha qattiqqo'llik ishlatsa, undan qochadilar va unga (boshqa) yo'lamaydilar»;

«Raiyat ahvoldidan ogoh bo'ldim, ulug'larni og'a qatorida, kichiklarni farzand o'rnida ko'rdim. Har yerning tabiatini, har elning rasmiodati, yo'l-yo'sinlaridan voqif bo'lib turdim, har bir o'lka va shahar aholisining ulug'lari va buzurglari bilan oshno bo'ldim va ularning mijozlariga, tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlarini tilagan odamlarni ularga hokim qilib tayinladim. Har bir mamlakatning ahvolini, si poh, raiyat kayfiyatini, turmushlarini, xulq-atvorlarini, bular o'rtasidagi aloqalarni yozib menga bildirib turish uchun diyonatli voqenavislardan belgiladim. Bordi-yu, noto'g'ri narsa yozgan bo'lsa, bunday voqenavislarni jazoladim. Hokimlar, si poh va raiyatdan qay-si birining xalqqa jabr-zulm qilganini eshitsam, insof-adolat bilan darhol uning chorasi ko'rdim»;

«Men sifatlarimning eng avvalgisi deb beg'arazlikni tu-shundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmadim, boy ni kambag'aldan ustun qo'ymadim»;

«Men har doim insof bayrog'ini baland ko'tardim va iymon tarqatishni o'z buyukligimning qudratli zamini deb bildim. Men inson bir onadan tug'ilgan deb ishonganman. Shuning uchun mustahkam qudratga tayangan qudrat buyuk bo'ladi»;

«Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi azim qat'iy, tad-birkor va xushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir»;

«Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tad-bir bilan amalga oshirish mumkin»;

«Yaxshiliklarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonlariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa do'stligi qadrini unutmadi va unga muruvvat ehson, izzatu ikrom ko'rsatdim»;

«Farzandlar, qarindoshlar, oshna-og'ayni, qo'shnilar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni davlatu-ne'mat martabasiga erishganida unutmadi, haqlarini ado etdim»;

«Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim».

Amir Temurning yuqorida aytganlari va shu fazilatlari har bir rahbar uchun asosiy ta'lim-tarbiya maktabi bo'lib, o'zining insoniylik xislatlarini odob-aql bilan boshqarishiga yo'nalish berishi muqarrar.

Tafakkur rivojiga katta hissa qo'shgan mashhur faylasuf Fridrix Gegel kelajakka umidi bor insonga, rahbarga zarur bo'lgan bir hikmatni bayon etdi: «*Dunyoga aql ko'zi bilan boqqan odamga dunyo ham oqilona qaraydi*». Dunyoni bilish uchun ko'proq o'qish, o'rganish, hayotning achchiq-chuchuk ne'matlarini farqlay bilishi, biron-bir voqeа-hodisani, topshirilgan ishni oxirigacha yetmasdan mulohaza qilmasligi, biron-bir xodimini nohaq ayblamasligi, qilgan xato-kamchiliklarini xolisona baholab, shunga yarasha adolatli hukm chiqarishi zarur. Aks holda mashhur faylasuf Stendal bashorat qilgанидай: «*Sabr-toqat hamda g'azabni jilovlay olish qobiliyatidan mahrum kishini rahbar deb bo'lmaydi*».

Rahbar milliy madaniyatni tushunib, mohiyatini bilmоq uchun rahbar bilimiga muntazam e'tibor berishi, bilmaganni so'rab, har doim yordamga muhtoj ekanligini his etishi lo-zim. Rahbarlik san'ati haqidagi sharqona odob-axloqqa oid hayotiy voqeа-hodisalarga e'tibor berish uchun rahbarlik us-lubini chuqur o'rganish kerak. Chunki rahbarlik uslubi uni charxlaydi, balo-qazolardan saqlaydi, har qanday to'siqlardan o'tish uchun ko'prik vazifasini o'taydi. Yurtboshimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek: «... eskilik osonlikcha jon bermoqchi

emas. Yangilik esa joy qidirishga, joy topishga mahkum, uning uchun o'zga yo'l yo'q. Ustiga-ustak, hamma ham rahbar bo'lib tug'ilmaydi. Rahbarlik ilohiy fazilat. Qolaversa, u tinimsiz izlanish, bilim va tajribaning mahsulidir. Xalqimizda: «Molning olasi tagida, odamning olasi ichida» degan naql bor. Rahbar pok bo'lishi kerak. Rahbar nazardan chetda qolmaydi. Rahbarning qo'li egri bo'lsa, tili ham qisiq bo'ladi. Rahbar xalqdan ajralib qolmasligi kerak!»

Nima uchun rahbarlik lavozimiga o'tirgan inson birikki yil, boringki, uch yildan o'tmay egallagan lavozimidan bo'shatiladi. Bo'shatilishi boshqa-yu, u bir umr hech kimga kerak emas, tashlandiq, savodsiz, qobiliyatsiz, tajribasiz odamga aylanib, jamiyat va kishilar nazaridan chetda qoladi. Rahbarni tez qo'yib, tez almashtirish, endi rahbarlikka moslashayotgan odamni mansabidan olib tashlash yoki tajribali, bilimdon rahbarni o'ziga bog'liq bo'lmagan boshqa ish, voqe-hodisa uchun jazolab, egallab turgan lavozimidan mahrum etishdan jamiyat va davlat manfaat topmaydi. Xoja Samandar Ter-miziy «Dastur ul-muluk» kitobida juda mazmunli bir fikrni keltirib o'tadi: «Azizim, kishining aqli, odobi, zakovati — uning layoqati va qobiliyatining mezonidir. Kimning aqli ravshan, fikrlash qobiliyati yuksak bo'lsa, u eng past lavozimidan eng yuqori sharaflı mansab supachasiga ko'tariladi». Albatta, orzu-umid bilan pastdan balandga intilib kelayotgan yosh, yangi rahbarlarni tarbiyalash katta mas'uliyatni talab etadi hamda bu davlat va jamiyatning asosiy burchidir.

Rahbar o'zbilarmon, boshqalarни mensimaydigan, o'ziga ortiqcha baho beradigan, yakka hukmronga aylansa, u uzoqqa bormaydi. Ushbu masalani yurtboshimiz I.A. Karimov quyidagicha tanqidiy baholagan edi: «Agarda rahbar semirib, g'o'ddayib yuradigan bo'lsa, unda xalqning ishonchini kim oqlaydi». Rahbarga berilgan bu oliyjanob tafakkur javobi hech qanday muhokamani talab qilmaydi. Rahbar davlat, jamiyat, xalqning oldida vaqtı-vaqtı bilan doimo hisob berib turishini unutmasligi kerak. Imkoniyatdan to'g'ri foydalaniib, butun kuch va mahoratini, ilm va mehnatini, tafakkur va shururini ko'rsata olmasa, u nazardan chetda qoladi, nari borsa laganbardorlar qurshovida qolib ketadi.

Rahbarning harakatlari ichida eng xushyor tortadigan narsasi mol-mulkka bo'lgan ehtirosidir. Chunki insoniyat paydo bo'libdiki, mol-mulk tashvishida yashab, butun um-

rini, aql-zakovatini, borlig'ini mol-mulk havasiga bog'laydi. Mol-mulk masalasida odamlar bir-birlari bilan do'st-birodarlik, mehribonlik va o'z navbatida dushmanlik, hiyla-nayrang, makkorlik yo'llarini o'ylab topdilar. Goho rahbarlar Alloh bergen obro'-e'tibor, martabani, lavozim, amal va vazifalarni mol-mulk yo'lida yo'qqa chiqarib, o'zlarini halokatga olib boradilar. Rahbar kishi haqiqiy boylik mol-dunyoning ko'pligi emas, balki nafsning to'qligi ekanligini anglab yetgandagini uzoq yashaydi hamda el nazariga tushadi.

Taassufki, ayrim rahbarlar ma'naviy qashshoqligi oqibatida o'ylamay ish yuritadi, kimlarningdir gap-so'ziga ishonadi, eng yomoni berilgan vazifaning mohiyatiga tushunmaslik, iqtisodiy va huquqiy bilim saviyäsining bo'shligi bu illat-larning tub manbaidir. Rahbarlar qanoatli, sabr-bardoshli, teran fikr sohibi bo'lishi, vaziyatga to'g'ri baho bera olishi, lavozimini suiiste'mol qilmasligi lozim. Rizq-nasiba Alloh tomonidan berilishining mohiyatiga tushunib yetgan rahbar zinhor kam bo'lmaydi, kishilar diliiga yo'l topish, mehnat kishisining qadriga yetish, ya'ni dehqon, hunarmand, chorvador, paxtakor, ziyoliga, umuman barchaga samimiyy munosabat rahbarni ma'naviy boylikka yetaklaydi. Rahbar salohiyatlari, mahobatli, aql-idroki keng, vijdonli, qalbi pok bo'lsa, u o'z jamoasining e'zozli kishisiga aylanadi, doimo izzat-hurmatda bo'ladi. Mansabga, maishatga, boylikka berilib, atrofdagilarni, oilani, ota-onani unutish, rahbarga malomat keltiradi, rahbarning obro'yiga putar yetadi, pirovard-natijada u egallab turgan lavozimidan chetlatiladi.

Rahbarni ma'naviy ulug'likka yetkazuvchi fazilat uning makr-hiylasiga uchmasligida, uning be'mani va ma'nosiz g'iybatdan uzoq bo'lishida, g'iybat tufayli aybsiz insonlarga zarar yetkazmasligida namoyon bo'ladi. Chunki rahbar oldi-qochdi, xosiyatsiz gaplarga ishonishi, har bir gapning mohiyatiga, ma'nosiga tushunmay fikr bildirishi uning jaholatga yuz tutganligidan dalolat beradi. Natijada jamoada ishonchsizlik, fisqu-fasod kuchayib, rahbar beobro' holatga tushib, g'iybat tufayli gu ruhlar o'rtasida o'zaro ochiq, yashirin tarzda kurash paydo bo'lib, bu rahbarning hokimiyatni topshirishiga majbur etadi. G'iybatdan o'zini chetga olish, har bir narsani zimdan kuzatib xulosa qilish, ayniqsa, chin ko'ngildan ishlaydigan, kasbga sodiq, halol, pok insonlarga nisbatan ishlatiladigan guman so'zlarning mohiyatiga e'tibor berib, ularni himoya qilish

rahbarga faqat omad, baxt keltiradi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) aytdilarki: «G'iybatdan tiyiling, g'iybat haqiqatdan ham juda yomondir. Zero, kishi zino qilsa, so'ngra tavba qilsa, Alloh uning tavbasini qabul qilishi mumkin. Xolbuki, g'iybat qilingan kishi g'iybat qilgan kishini kechirmaguncha Alloh ham uni aslo kechirmaydi». Rasululloh (s.a.v.) dedilar: Uch guruh odamlardan hazar qiling:

G'ofil ulamolardan;

Laganbardorlik bilan maddohlik qiluvchi fuqarolardan;

Johil shayxlardan.

G'iybat tufayli rahbar ko'pincha pok odamlarga, uning oila a'zolariga, o'sib kelayotgan yosh mutaxassislarga, diyonatli, tadbirdor, ishbilarmon kishilarga ziyon-zahmat yetkazishi mumkin. Buning oqibatiga alohida axloqiy baho bergen Homid G'azzoliy (1058–1111) o'zining «Mukoshafat ul-qu'lub» asarida *«Bir marta qilingan g'iybatning gunohi yuz marta qilingan gunohdan yomonroqdir»*, deb fikr bildirgan edi. Rahbar bir aytilgan so'zni kim, nima maqsadda aytayotganini fahmlashi, undan ogoh va ehtiyyot bo'lishni, chora-tadbirlar o'ylab yo'l topishni anglab yetishi kerak. O'zi ham so'zini o'ylab, to'liq xulosa qilib, fikr bildirishi, aks holda g'iybatchining tuzog'iga ilinib, bir umrga badnom bo'lishi mumkinligini esdan chiqarmasligi kerak. Rahbarning hasad o'tida yonishi, davlatni, jamoani, korxonani, tashkilotni halokatga olib keladi, g'iybat girdobi o'pqoniga tushib, yo'q bo'lib ketadi. Rahbar ma'naviyati har bir inson uchun zarur, chunki rahbarlik oiladan tortib, davlat rahbarigacha umumiy ma'noda ishlatiladigan, lekin har doim sinov tariqasida qo'llaniladigan tushunchadir.

Rahbar – javobgar shaxs, uning zimmasida yuksak mas'uliyat yuklatilgan, u o'z zimmasidagi vazifasini samarali bajariishi, odamlarni qiyinayotgan o'tkir muammolarni chuqur o'r ganib, yechimini topishi, o'z ishiga tanqidiy qarashi uning kamolini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Aksincha, buning o'rniga erishilgan natijalarga mahliyo bo'lib, boshi aylanib, beg'amlikka berilib ketsa, uning jamoasiga ham, o'ziga ham tashvish ko'payadi, bu esa zinhor chidab bo'lmaydigan holatdir. Rahbar degani kuzatuvchi emas, avvalo, barcha ishlarga bosh-qosh bo'ladigan, mas'uliyat va javobgarlikni o'ziga ola-digan, og'ir paytda boshqalarga namuna bo'ladigan, tashkilchi, kerak bo'lsa, odamlarni o'z ortidan ergashtirishga qodir

va irodasi baquvvat inson bo'lishi shart. Ushbu borada Prezidentimiz I.A. Karimov qu'yidagi fikrni ta'kidlagan edi: «Rahbar degani kimgargadir keskin talab qo'ya olishi, kerak bo'lsa, qattiqqo'llik ko'rsatib, qat'iyat bilan ish olib borishi, o'zini ham, boshqalarni ham ayamasdan, ko'pchilikni o'z ibrati bilan ortidan ergashtirishi, odamlarda ertangi kunga ishonch uyg'ota olishi lozim».

Rahbar fazilatlaridan yana biri uning ekologik bilimga ega bo'lishi, u tabiatni sevuvchi, uni asrovchi, bog'-bo'stonga burkovchi tashabbuskor bo'lib, bu sohada ibrat ko'rsatuvchi, ekologik tarbiyani targ'ib etuvchi, xodimlarga tabiatga muhabbat ruhini singdirishda yetakchilik qilishi darkor. Eng muhim, atrofdagilarga bir tup ekilgan daraxt haqidagi ajdodlarimizning tafakkurini yoshlarga tushuntiruvchi bo'lishi zarur. Ushbu masalada Imom Iso at-Termizi (824–892) tomonidan qayd etilgan «Qaysi bir musulmon kishi bir daraxt o'tqazsa yoki ekin eksa-yu, undan insonmi, qushmi yohud hayvonmi yesa, u kishiga sadaqa bo'lib yozilaveradi» degan hadisga amal qilish shart.

Har bir rahbar oilasi – ekologik tarbiya bilan mukammal tanishishi, tabiatda inson eng kuchli, aql-zakovat bilan borliqni o'ziga bo'ysundirishga harakat qiluvchi kuch ekanligini tushunishi kerak. Zero, rahbar tabiat muvozanatini to'g'ri tushunmasligi, aniqrog'i, bu muhim masalaga sovuqqonlik bilan qarashi natijasida o'zi yashab turgan muhitning tabiiy holatining buzilishiga sababchi bo'ladi. Rahbar ekologiya bilimiga ega bo'lgan holda jamoaga va oilasiga tabiatdagi mavjud manbalarni saqlash, ko'paytirish, e'zozlashni o'rgatishi zarur. Rahbarda ekologik tafakkur ongli tarzda shakllangan bo'lib, ekologik tarbiya inson ma'naviyatining asosi ekanligini tushunib yetmog'i kerak. Aslida bizning milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, turmush tarzimiz ekologik tarbiyaning beshigi hisoblangan. Qadimdan turmush tarzimizdagi bir tup nihol ekish katta savob, hayvonot olamiga shafqatli bo'lish, hatto chumoliga ozor bermaslik, hovuz, ariqdagi suvni toza saqlash kabi urf-odatlarimiz zamirida borliqni asrash falsafasi mujassam ekanligini rahbar sezishi kerak. Eng muhimi rahbar o'zi va o'z atrofidagi kishilarga ekologik tarbiyaning asosi bo'lgan «*Suvni iflos qilma uvol bo'ladi*», degan g'oyaga asoslanishi, xayvonlarga, o'simliklarga mehr-shafqatli bo'lishi, suvni

sof saqlash haqida o'z xodimlariga, oilasi va farzandlariga ibrat bo'lishi kerak.

Rahbar o'z jamoasidagi yoshlar orasida musiqa ilmi va san'atiga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishi, iste'dodli yigit-qizlarni munosib rag'batlantirishi, ko'rik tanlovlар tashkil etishi ga alohida e'tibor berishi maqsadga muvofiq. Rahbar mushohadasida, ko'ngil mulki sanalmish kuy-navoning nechog'lik sehrli kuchga, yuksak qudratga ega ekanligi asoslanmog'i kerak. Axir, yurakdan o'tkazib, qalban xis etib yaratilgan, ko'ngildagi samimi tuyg'ular ifodasi o'laroq vujudga kelgan kuy va ohang qalbining tub-tubiga yetib borishini tushunishi kerak. Uning bu musaffo hislardan bahramandligi, chin insoniy tuyg'ularga oshufta bo'lmos'i, uning ezgulikka yuz tutmog'iga yo'l ochadi. Zero, san'at va musiqaga oshno rahbar hamisha yaxshiliklar, ezguliklar sohibi bo'lishini hayotning o'zi isbotlagan.

Rahbar ijtimoiy himoyaning mohiyatini mukammal bilmog'i, jamoasidagi voyaga yetmaganlar tarbiyasiga e'tibor berishi, huquqbuzarlik, aqidaparastlik va jinoyatchilik singari illatlar yo'liga to'siq qo'yishi lozim. Shuni inobatga olgan holda rahbar bu borada aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishi, uni jamoaga tatbiq etishga o'zi rahbarlik qilmog'i kerak. Jamoada yoshlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha mas'ullikni o'z zimmasiga olishi, balog'atga yetmagan xodimlarning ota-onasi bilan muntazam aloqada bo'lishi, jamoada keksayib, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan hurmatli kishilar bilan turli uchrashuvlar tashkil etishi alohida ahamiyatga ega. Jamoa nazoratidan chetda qolgan o'smirlar tarbiyasi buzilishining oldini olishga rahbar chin ko'ngildan kirishishi, yoshlarga halollik, ezgulik, mehnatsevarlik fazilatlarini singdirishi muhim ahamiyatga ega.

Qanoat, ezgulik, diyonat kabi azaliy tushunchalar insoniy fazilatlarning eng sarasi hisoblanadi, rahbar bularning mohiyatini tushunib yetmog'i lozim. Hayotda ana shunday fazilatga ega insonlar, u kim va qanday lavozim egasi bo'lishidan qat'i nazar, ko'p bo'lsa, badnafslik, olg'irlilik, razolat kabi salbiy illatlar barham topadi. Kurmaksiz guruch bo'limgani kabi diyonatni, qanoatni o'ziga shior deb bilgan, el-yurt tashvishi yo'lida yashayotgan kishilar bilan bir qatorda, halol va haromning farqiga bormay, o'z manfaati yo'lida har qanday qing'ir ishlarga qo'l urib ketadigan rahbarlar ham oramizda

uchrab turadi. Bunday rahbarlar jinoyat kodeksining mansab vakolatini suiiste'mol qilish, davlat manfaatlariiga ko'p miqdorda zarar yetkazish, mansabga sovuqqonlik bilan qarash, mansab soxtakorligi, ishonib topshirilgan mulkni o'zlashtirish va talon-toroj qilish bilan shug'ullanib, boshlariga ko'p kulfat keltiradi. Mustaqillik yillariga ba'zi rahbarlarning davlat mulkini talon-toroj qilishi, qo'shib yozish holatlari, paxta va paxta mahsulotlarini qonunga hilof ravishda sotish, jamiyatga tegishli mulklarni talon-toroj qilish kabi holatlar huquqtartibot organlari tomonidan oshkor etilib, ba'zi rahbarlarning talon-torojlik, soxtakorlik, olg'irlilik, ko'zbo'yamachilik kabi ilatlari fosh etildi. Rahbar o'ziga berilgan ishonchni unutib, davlat va jamiyat manfaatlariiga vijdonsizlarcha munosabatda bo'lishi, yelkasidagi mas'uliyatni unutib qo'ygani, o'z nafsining asiriga aylanib qolishi oqibatida el, oila oldida obro'ni yo'qotib, jazoga tortilgani bugun ayni haqiqatdir.

Rahbarki o'z nafsga erk bersa, ishonchga panja orasidan qarasa, o'sha yerlarda jinoyatlarga, talon-torojliklarga, jamiyat va davlat mulklariiga ko'z olaytirishdek xunuk ishlarga yo'l ochilib boraveradi. Odamlarning adolatga bo'lgan ishonchiga putur yetadi. Sayfi Saroyi ta'kidlaganlaridek: «Ul qadar qattiliq etmagilkim, sendan to'yg'aylar». Bu so'zlar orqali qattiqqo'llik qilaman deb, elni o'zidan zada qilgan rahbarlar nishonga olinmoqda.

Alloma Xoja Samandar Termiziyning «Dastur ul-muluk» asarida rahbarlik ma'naviyatiga oid muhim ahamiyatga ega bo'lgan yo'llanma bayon etilgan. Asarda podshoning xalqqa g'amxo'r bo'lishi, mehr-shafqat ko'rsatishi, mamlakatni obod qilishi, xalqning farovonligi, tinchligi, osoyishtaligi uchun zaru r bo'lgan narsalarni rejalashtirib borishi haqida muhim maslahatlar berilgan. Asarda bosh maqsad adolatli davlat boshqaruvini targ'ib qilishdir, shuning uchun ham uning birinchi fasli (bobi) adolat haqidadir. «Azizim – agar podshoh o'z mansabini suiiste'mol qilgan, xalq va mamlakat mulki, rizqu ro'zi hisobiga boyishga intilgan nafsi o'pqonlarga Nushirvoni odilga o'xshab, jazo chorasin qo'llamasasi, yurt xarob bo'ladi. Fuqaroning podshoga bo'lgan ishonch umidi, zulmat shabistoni – qorong'i kechaga aylanadi». Asarda jamiyat rivojida mamlakatning mustahkamligida, xorij mamlakatlari bilan munosabatlarning do'stona bo'lishida xukmdorgina emas, uning vazirlari, maslahatchilar, mulozimlari, elchilar

katta o'rin tutadi. «Agar sening atrofingdagi odamlaring, mulozimlaring aslzoda, himmati baland, aqli kishilar bo'lsa, vatan siri saqlanadi, xalqing doimo himoyalangan bo'ladi, xech bir kishi ziyon ko'rmaydi» yoki «davlat manfaatidan o'z manfaatini ustun qo'ygan kishilarni davlat elchisi qilib yuborish aqldan uzoqdir» yana «U (amaldor) xalqqa osoyishtalik,farovonlik,dinu imonga shon-shuxrat keltirsin,dunyoviy hayotni, ma'naviyatni ta'rif-tasnif etishga xizmat qilsin».

Rahbarlar faqat o'zlarining shaxsiy hayot kechirishlari, fuqaroga, xalqqa munosabatlari, do'stlarga, ustozlarga sadogatlari, Vatanga mehrlari, adolatpeshaliklari bilan o'zlariga o'rnak bo'lib kelgan. Xoja Samandar Termiziyning asarida vatanparvarlik g'oyasi, rahbarning eng asosiy vazifasi ekanligi ta'kidlab o'tiladi. «Azizim, shunday kishini bahodir deydilarki, agar u o'z davlati manfaati, tinchligi uchun o'z jonini fido qilib, azob-uqubat kosasidagi har qanday mayni ko'tarsa, jasur, dovyurak deb shunday kishilarga aytadilarki, Vatanning boshiga biron kulfat tushganda zdulik bilan qat'iy qarorga kelib, hayotini xafv ostida qoldirib, kurash maydoniga qadam qo'ysa... (jang maydonida oru nomus uchun kurash ketayotgan bir vaqtida), mard kishi shuhrat haqida, jonu mol haqida o'yamasligi kerak».

Ajdodlar xotirasini e'zozlashi rahbarning burchidir, uning ma'naviyatida inson xotirasi bamisol qalban muhrlangan bo'lmog'i kerak. Xotira rahbarga o'tgan kunlarni, inson ruhiyati bilan bog'liq kechinmalarni eslatadi. Xotira yaxshi kunlarda shodlanishni, yomon kunlarda boshga tushgan musibatlarning mohiyatini bildiradi, rahbar xotira orqali loqaydlikning, e'tiborsizlikning, beparvolikning mohiyatini anglaydi. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «*Rahbarlarning o'z mas'uliyatini, ularga berilgan vakolatlarni anglashni, izlanish, tashabbuskorlik talabchanlik, ishbilarmonlik ruhi bilan yashash va kurashish, qo'rmaslik, jasurlik, mardlik bugungi hayotiy kunning eng muhim va dolzarb masalasidir*». Rahbar xotira tufayli xalqimizning moddiy va ma'naviy madaniyati, uni yaratgan buyuk siymolar, allomalar, o'tgan ajdodlarning vatanparvarlik harakatlari, mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarning ayanchli holatlarini o'rganadi. Rahbar xotira orqali ota-onasiga, ustozlariga, mehnat faxriylariga munosabatini chin ko'ngildan tahlil etadi. Ularning hayotlik davrida amalga oshirgan ishlarini o'rganib, o'tganlarning

ishi, nomi nega yashab kelayotganligining mohiyatini tushunadi. Chunki xotira vijdoni toza, mehribon, dilkash, halol odamlarga xos bo'lib, xotira orqali ularni faxr va ehtirom bilan hamma eslaydi. Rahbar tarix va badiiy adabiyot tufayli dunyoqarashini kengaytirib, xotirasini mustahkamlaydi. Rahbar xotirani o'zida mujassam etgan kitoblarni o'qib, tili ravon, fikri teran, yaxshi va yomonni qadriga yetadigan va o'rni kelganda maslahat oladigan g'oyalarni o'zida shakllantiradi. Rahbar xotira tufayli buyuk ustozlar, allomalar hayoti ko'z o'ngida shakllanib, ibratli hayot yo'lini topadi. Chunki xotirada tarix – ulug' murabbiy, u yaratilibdiki, teran tajribalar, ibratli timsollar, achchiq saboqlar vositasi orqali inson tarbiya oladi. Xotira ajdodlarning ezgu g'oyalarining kelajak avlodga qoldirib, xotira tufayli inson umrining so'ngi nafasigacha hayotdan nimadir o'rganib yashashga harakat qiladi.

Mustaqillik yillarida ma'naviy hayotda katta ijodiy salohiyotga ega taniqli tilshunos va adabiyotshunos olim, professor Jabbor Omonturdiyev ijodidagi she'rlar hamda g'azallar ma'naviyatimizning yuksalishida, xalqlarimiz o'rtasida tinchlik-osoyishtalikni saqlash, inson qadr-qimmatini ulug'lash va e'zozlashda, e'tirofda, ehtiromda, e'tiqodda muhim bo'lib, sharqona odob-axloqning beqiyosligi asoslab beriladi. J. Omonturdiyev ijodiga oid «Hazar qiling» she'rida mansab, vazifa, lavozim, xususan, amalga minib olib, do'stlarni unutgan rahbar, kezi kelganda ularga g'arazlik qilgan kimsalar keskin tanqid qilinadi. Foyda izidan quvib, fitna yo'liga kirgan nokaslar, ilmiga amal qilmagan olimlar, olim nomiga erishib, lekin asli olim bo'lomagan norasolar ta'rifi she'r orqali ifoda etilgan:

*Hazar qiling, amal debon yor-oshnosin sotganlardan,  
Boylik uchun, or-nomusin najosatga otganlardan.  
Hazar qiling, tilda sodiq, dilda nopol ul rafiqdan,  
Ko'rishganda yalab-yulqar azozil-u munofiqdan.*

*Ishi tushsa ta'zim aylar barobardir dushmanu do'st,  
Naf tegmasa fitna aylab, hayotingga qilurlar qasd.  
Hazar qiling, ey yaxshilar, bunday nokas oshnolardan,  
Bani odam hazar qilg'ay buningdek norasolardan.*

*Hazar qiling, ma'rifatni pulga sotgan balolardan,  
Nomi olim – ilmu fandan quruq qolgan gadolardan.  
Hazar qiling ey yaxshilar, vijdonidan judolardan,  
Jabboriy ham hazar qilg'ay bunday yuzi qarolardan.*

Ijodkorning ushbu she'rida inson aql-tafakkuri tufayli yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish, insonlar o'rtasidagi ishonch, mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, ikkiyuzlamachilik, xoinlik, sotqinlik va mansab uchun vijdonli odamlarga nisbatan qilingan xiyonatlarning oldini olish g'oyasi singdirilgan.

Shu ijodkorning farzandi, yetuk olim, filologiya ilmining bilimdonlaridan biri Anvar Omonturdiyev ham garchi shoirlikka da'vo qilmasa-da, uning ayrim she'rlarida mansab, uni egallab olgan noshud kimsalarga achchiq kesatiq mavjud. Bularning bari hayotdan olingan turmush haqiqatlari, iztiroblari, ozorlari, kechinmalar tug'yoni, taassurotlar isyonni, muhitning g'uborli ta'siri, hikmatli ta'biri, dardga to'la, gardga limmolim hissiyotlar bayoni:

*Mansab – misli libos, yechilar bir kun,  
Yoxud eskiradi erta-kech tayin.  
Lavozim – gulxandan keyingi kukun,  
U yana alanga bo'lishi qiyin.  
Amal – muz ustida qurilgan bino,  
Lavozim misoli chaqmoq bir damlik.  
Kim aslin unutib, qo'ysa gar bino,  
Unga xayf eng oliy mansab – Odamiylik!*

Rahbar faoliyati, rahbar fazilati, uning egallab turgan lavozimidan qat'i nazar hamisha el nazarida turadi, ulus uni kuzatadi, o'z xulosalarini aytadi. Har bir tashkilotda birinchi rahbar, ikkinchi rahbar, muovin, o'rribosar degan lavozimlar bo'ladi, ana shu ikki inson o'zaro kelishib ishlasa, jamoa gurkirab yashnaydi, basharti shu ikki oliy zot ziddiyatli bo'lsa, unda jamoa xo'rланади. Ushbu borada Sohibqiron Amir Temur aytadi: «Agar podshoh zolim bo'lib, vaziri odil bo'lsa, podshohning jabr-zulmini to'xtatish chora-tadbirini ko'radi. Lekin vazir zolim bo'lsa, saltanat ishlari tez muddatda parokandalikka uchraydi».<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Amir Temur o'gitlari /To'plam/. Tuzuvchilar: B. Ahmedov, A. Aminov. Toshkent, «Navro'z», 1992, 29-bet.

## MILLIY MA'NAVIYAT VA INSONIY QADRIYATLAR

Xalqimiz madaniyatida muhim ahamiyatga ega hikmatlar ta'sirida oljanoblik, mehr-muruvvat ko'rsatish, mehnat bilan topilgan nonni o'zaro baham ko'rish, ochlik va qashshoqlikni bartaraf etishda hamjihat bo'lish g'oyalari asrlar osha yashab kelmoqda. Mehmonning qadriga yetish, saxiylik, hotamtoylilik namunalarini ko'rsatish tufayli bag'rikenglik, insonparvarlik tamoyillarini namuna qilib ko'rsatish kabi fazilatlar alohi-da tahsinga sazovordir. O'zbek xalqi Hotamtoy qiyofasida saxiylik va hojatbarorlikning odob-axloqda o'rni qanchalik beqiyos ekanligini qadrlaydi. Ushbu hikmatning ma'no-maz-munini hazrati Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» nomli asarida ibratomuz qilib tahlil etgan:

Saxiylik (qo'li ochiqlik) – kishilik bog'ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir.

Saxiylik – odamgarchilik o'lkasining to'lqinli daryosi, balki u to'lqin daryosining asl gavharidir.

Saxiy emas er – yog'insiz bahor buluti va isi yo'q toza i pordir.

Saxovatsiz kishi – yog'insiz abri bahor.

Saxovatsizlik ham biru, mevasiz daraxt ham biru, o'tin ham bir va yog'insiz bulut ham biru, tutun ham bir.

O'tmish ajdodlarimizning ma'naviy qadriyatlarini mukammal o'rgangan taniqli alloma Qori Nizomiddin binni Xusaynning «Ilmi ahloq» kitobida quyidagilar bayon etiladi:

Saxovat – molidan yetim bechoralarga bermakdur. Saxiy kishi Alloh taoloning sevikli bandasidur. Saxovatning ziddi – baxillikdur.

Saxovat yolg'iz molda emas, ilmda ham bordur. Zeroki, ilmlik kishilar ilmsiz kishilarga qo'llaridan kelganicha bildurmak ayni saxovatdurdur. Agarda bildurmakni xohlamasalar qiyomatda Alloh taoloning qoshida javob va jazoланурулар.

Xalqimiz ma'naviy hayotida turmush tarziga xos bo'Imagan odob-axloq tarbiyasiga zid bo'lgan xatti-harakatlarni mun-tazam kuzatib borib, bunday illatlarning oldini olish, uni bar-taraf qilishga doir donolar bisotidan kengroq foydalanganlar. Eng muhimi oilani mustahkamlovchi hikmatlarni o'z o'r-nida ishlatish natijasida turli nizolarning, janjallarning, ke-lishmovchiliklarning oldini olganlar. Buning natijasida man-

manlik, qaysarlik, xudbinlik, o'zbilarmonchilik, maqtanchoqlik, beboshlik, dushmanlik, sotqinlik, xoinlik kabi illatlarga chek qo'yilgan. Bunday yomon illatlarning oqibatlari nima bilan tugashi haqida alloma Qori Nizomiddin binni Husayn o'z fikr-mulohazalarini bildiradi: Baxillik – xulqlarning yomonidur. Baxil kishi qo'lida bo'lgan mollaridan o'zi ham foydasiz qolur. Boshqalarga ham foydasi bo'lmas. Baxilning moli merosdir. O'zidan so'ng u vorislarga sarf bo'lib, tezlik ila tamom bo'lur. Baxil kishini kitob ortgan hayvonga o'xshatibdurlar. Ustidagi yukidan o'ziga foyda yuqmas.

*Baxil ko'p yig'di haromdin oltinu-kumush,  
Qarg'ish olib yurdi, ustiga eshitdi so'kish.  
O'zi o'ldi, taqsim bo'ldi moli dushmanlar aro,  
Baxil hissa oldi; kishilardan so'kish.  
Baxillik dori bilan davolab bo'lmas kasallikdir,  
Baxillikning qo'li saxovat, hadya uchun butunlay yopiqdir.*

Ahmad Yugnakiy

*Yaxshilik qilsang yashir, yaxshilik ko'rsang oshir.*

*O'zing ezu bo'lsang, oting maqtovga loyiqdир,*

*Agar yomon bo'lsang, tahqirga mahkumsan ey latif.*

Ahmad Yugnakiy

*Ayol yerdan chiqqan emas – erkak bolasi,*

*Erkak ko'kdan tushgan emas – ayol bolasi.* (Maqol)

Xalqimiz qadim zamonalardan boshlab hayotiy masalalarga e'tibor berib, har bir qilingan ishning natijasiga qarab, fikr-mulohazalar yuritib, nafs, qarz, boylikka oid hayotiy kechinmalarni hikmatlar bilan avloddan-avlodga o'tkazib kelganlar. Eng muhim qarzning kishi boshiga olib keladigan dardini, uning oqibatlarini inson ko'z o'ngida yuz bergen mudhish natijalariga qarab xulosa chiqarganlarni Hadis ilmi quyida-gicha izohlaydi:

Haq (qarz) egasi qarzdorga gaphirishga haqlidir.

Kimki o'z mulkini himoya qilgan holda o'ldirilsa, u shahiddir.

Qarzni o'z vaqtida bermasdan cho'zib yurish zulmdir.

Qarzni uzmay dunyodan o'tgan odamga to o'sha qarzi uzilmaguncha qabrda kishanlangan holda yotadi.

Dedilar: «Yo Rasululloh, yukim yengil bo'lishini istayman! Buyurdilar: Hech kimdan hech narsa (qarz) so'rama!»

Sharqona odob-axloqda insonni qarz balosidan qutqarishning eng ma'qul yo'li, odamlardan hech narsa so'rama,

hatto qo'lingdan tushib ketgan qamchinni ham tushib o'zing ol.

Hadis ilmida qarzning javobgarligi, uning jazoga muqarrarligi, qarzni qaytargandagina qutulish mumkinligi alohida bayon etiladi:

«Alloh yo'lida shahid bo'lmoq, qarzdan boshqa hamma xatoni yuvib ketadi».

«Qarz bamisoli Allohnинг yerdagi bayrog'идир. Qachonki, biror bandasiga yomonlikni iroda qilsa, uning bo'yniga shu qarz bayrog'ини ilib qо'yadi».

Taniqli tafakkur egasi, shoir va yozuvchi, inson ruhiyatini chuqur anglagan hamda ichki dunyoviy bilim va ilmiy mushihadani tahlil qilgan Bedil qarzga duchor bo'lgan odamning taqdiri hamda achchiq qismati haqida quyidagi ruboyni yaratdi:

Qildim ko'p imtihon, qarz ola ko'rma,  
Bersalar senga jon, qarz ola ko'rma.  
Qarz adosi, ochdin o'lsang o'l,  
Odamlardan bir non qarz ola ko'rma.

Xalqimiz o'z hikmatlari bilan jahonga mashhur bo'lib, boylik va nafs balosidan qutulish yo'llari to'g'risida katta donolik bisotiga egadir. Chunki boylik ma'naviy qashshoqlik belgisi bo'lishi bilan birga, halol mehnat bilan topgan mehnati evaziga boyish har bir pok insonga xos xususiyatdir. Shuning uchun butun inson umri davomida nafs va boylik o'rtasida qiyinchilik bilan umr kechiradi. Sayfi Saroyi aytadi: «Ikki kishi dunyodin ketti dag'i hasrat-nadomat eltti: biri ulkim, yig'di dag'i yemadi; biri dag'i ulkim, bildi dag'i qilmadi» («Gulistonи bit-turkiy»дан). Lekin insonlar baribir bu hikmatlarning boshqa-boshqa ma'nolarining mag'zini chaqishga, mazmunini anglab yetishga intiladilar:

«Haqiqiy boylik mol-dunyoning ko'pligi emas, balki nafsning to'qligidir».

«Katta boylik va qashshoqlik, ikkalasi ham bir balodir».

Hadis ilmida nafs va boylik haqida ko'plab ibratli mulo-hazali fikrlar bayon qilingan bo'lib, har bir inson o'z umrida halol, pokiza yashamog'i zarurligini qayd etadi:

«Alloh taolo taqsimlab bergan narsalarga rozi bo'ling, shukur qiling, shunda kishilarning boyrog'i bo'lasiz».

«Kimki Allohdan so'ramasa ham unga mol-dunyo ato qilinsa, uni olavering. Zero bu Allohnинг unga yetkazgan rizqu nasibasidir».

Inson zakovati beqiyosdir, u har narsaga ishonuvchan hamda qiziquvchan bo'lib bir umr boylik orttirish ilinjida yashaydi. Ana shu boylik orttirish jarayonida mehnat qilmay o'z boyligiga boylik qo'shishning yangi rejalarini tuzib, nafs ilinjida sudxo'rlik kasalligiga mubtalo bo'ladi. Sudxo'rlik nonini yeb o'rgangan kishi yanada unga bo'lgan hirs nafsi oshirib borib, uning oqibatlarini tushunmay katta xatolarga qo'l uradi: Payg'ambarimiz rasululloh aytganlaridek:

«Sudxo'rda 73 xil gunoh mavjud bo'lib, eng oxirgisi xuddi o'z onasi bilan zino qilganga o'xshashdir».

«Sudxo'rga, foiz beruvchiga, oluvchiga, uni yozgan kotibga va bunga guvoh bo'lgan odamga Alloh taoloning la'nati bo'lsin».

«Kasblarning eng yomoni, jirkanchi sudxo'rlik va tilanchilikdir».

Xalqimiz o'z hayotiy kechinmalarida tafakkur gulshaniga chorlovchi o'gitlarga e'tibor berib, o'zaro munosabatlarda ahillik, do'stlik, mehr-muhabbat rishtalarini saqlab qolish maqsadida odamlarni fe'l-atvoriga xos yomonlikka undovchi g'azabdan saqlanish borasida ko'plab hikmatlarni yaratg'anlar. Ushbu hikmatlar yomonlikni, kishilar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish, boylik, mansabparastlik, shuhratparastlik, g'arazgo'ylik kabi illatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Eng muhimi xalqimiz, «g'azab o'zingga azob» donolik bisotiga doimo amal qilib kelgan. «Hadis»larda g'azabning oldini olish, g'azablangan kishini shashtidan qaytarish, o'zaro nizo-janjallarni bartaraf qilish sohasida niyatda mazmunli fikr bayon qilingan: «G'azab — kishining o'ziga dushmandir. G'azab kelganda aql-idrok chekinadi, inson o'zini boshqara olmay qoladi. Ogoh bo'lingki, g'azab bamisol'i inson ichidagi yonib turgan cho'g'dir. Bilasizlarki, g'azab kelgan kishining ko'zları qizarib, tomirlari shishib ketadi». Milliy mentalitetimizda aql-odob borasida dono hikmatlarga asoslanib yosh avlodni tarbiyalash, yoshlarga ibrat makkabini yaratib berish, ularning kasb tanlashlarida o'zlarining ist'edodini ishga solish, buning uchun aqlni charxlash, g'azab jilovini qo'lga olish, muhim ishlar hal bo'layotganda muomala madaniyatiga e'tibor berish, qo'lga kiritilgan yutuqlarni o'ylamay aytilgan so'z barbod qilishi, eng asosiysi g'azabga erk bermaslik kabi g'oyalar singdirilganligi qayd etilgan. Jumladan «Hadis» ilmida: «Ogoh bo'lingki, odamlarning yaxshisi — g'azabi sekin kelib, asliga tez qaytadiganidir. Ular-

ning yomoni esa g'azabi tez kelib, asliga sekin qaytadiganidir. G'azabi sekin kelib, sekin ketsa yoki tez kelib, tez ketsa — bu ham durust». Yoki Farididdin Attor ta'kidlaganidek:

*Kim birov dilini sitam-la tildi,  
U o'z vujudini yarador qildi.*

Abu Ali ibn Sino (980—1037)dan so'rabdilar: — Eng kuchli narsa nima? Dedi: — Jahlni yengish.

## HIKMATLAR DURDONASI—MILLIY MA'NAVIYATIMIZ POYDEVORI

*Yo'l yomonu yaxshisidin yema g'am,  
Bismilloh, deginu qo'yg'il qadam.*

*Alisher Navoiy*

Istiqlol yillari xalqimiz moddiy madaniyatini tiklash va o'rganish bo'yicha juda katta ibratli ishlar amalga oshirilib, yoshlarni munosib vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik ruhidha tarbiyalash masalasida ijobiy natijalarga erishildi. Xalqimiz o'tmish ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy merosni boyitib, mavjud odob-axloq namunalarini qayta yig'ib, xolisona o'rganib, mazmun-mohiyatini tahlil etish natijasida hikmatlarni o'ziga jamlagan kitoblar tayyorlab, ulardan yoshlarni munosib tarbiyalashda foydalanib kelmoqda. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, hikmatlar inson ongingin mukammal taraqqiy etishiga munosib hissa qo'shib, Vatan, oila, ota-ona, mahalla, qarindoshlik, yon qo'shnichilik, jamoatchilik, ish va rahbarlik munosabatlarni anglab yetishda alohida tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Har bir hikmatni o'z o'rnida ishlatish, uning mazmuni va mohiyati bilan har xil nojo'ya harakatlarning oldini olish masalasi insonlardan katta bilim hamda hayot tajribasini talab etadi. Risolada bayon etilayotgan ushbu fikrmulohazalar xalqimizning o'tmish va hozirgi hayot tajribalari asosida kitobxonga taqdim etilmoqda.

Umrni xazon qiladigan narsa maqsadsiz yashash, behuda vaqtini o'tkazishdir.

Eng dahshatli fojia — aqlni charxlamaslikdir.

O'g'ilning kechirib bo'lmaydigan xatosi — otasi o'rgatgan nasihat va kasb-hunarni egallamasligi.

Og‘ir yuk – yaxshilikni minnat qilib, yuzga solishdir.

Buyuk bo‘lish uchun to‘rt narsa zarur: toza nasl, azaliy taqdir, yomonlardan ibrat olish, tez boyiganlarning manmangidan xulosa chiqarish.

Tuproq bilan gaplashgan odamning aqli teran, yuragi toza bo‘ladi, chunki yana u tuproqqa qaytadi.

Til – tananing hokimi. Tana til hukmiga bo‘ysunadi.

Mansab vaqtinchalik – saqlab qolish aqlga bog‘liq.

Meni qanchalar ko‘p g‘iybat qilsalar, shunchalik tez elga tanilaman.

O‘zingga-o‘zing doimo hisob berib, ayblaringni tan olgin.

Yo‘qotgan narsangni izlama – chunki o‘z aybing tufayli sodir bo‘lgan.

Yoshlarga ko‘p nasihat qilma, ibrat ko‘rsat. Chunki sening kimligingni boshqalardan bilib oladi.

Hech bir insondan xato axtarmang, chunki u shunday yaratilgan. Faqat undan ibrat oling.

Dunyoda so‘z yashaydi – yaxshilik, yomonlik, loqaydlik unda o‘z ifodasini topadi.

Ona qancha ko‘p umr ko‘rsa – tabiat shunchalik go‘zal bo‘lib boradi. Chunki tabiat ham ona-yerdan kuch-quvvat oladi.

Ona qancha achchiq so‘z aytsa, shuncha shirin dori bo‘ladi.

Onani tiriklikda qadrlang – o‘lgach unga bitilgan har qanday dono so‘z befoyda.

Ona o‘lgach yig‘lab jasorat ko‘rsatgandan, tirikligida bir borib holidan xabar olish savobdir.

Onaning baxti – nomusli, iffatlil qiz.

Farzand tug‘ish hamma ayolga xos – lekin ona bo‘lish ilohiy baxti.

Ota bo‘lishni kutish baxt emas, nasib etgan otalikning qadriga yetgan baxtdir.

Makon va zamon otalar aqli yoki harakati bilan o‘zgarib turadi.

Ota – Vatan posboni, agar u vatan qadrini bilsa.

Ota – o‘q, ona moyillik – ikkalasini hurmat qilish buyuklik timsoli.

Ota g‘azabi har qanday quroldan kuchli.

Otaning nomini uch narsa bezaydi: aqlli farzand, kasbga hurmat, el xizmatini qilish.

Xalqimizda maqollar ko‘p, ularning har biri tarbiya quroli. Maqollar asrlar osha ajodidlardan avlodlarga o‘tib, ularning kamol topishida, ayniqsa, yoshlarning barkamol bo‘lib yetishu-

vida ahamiyati beqiyosligini barcha yaxshi biladi. Maqollar-ning teran mag'zi, hayotiy negizi, ijtimoiy ildizi, shuningdek, ularning mavzular olami, mohiyat ko'lami cheksizdir:

Ayoz ko'rgan kuning unutma, ko'n chorig'ing quritma.  
Ayiq bilagiga ishonadi, odam yuragiga.  
Ayiq o'z tovonini yalab jon saqlaydi.  
Aytilgan so'z – otilgan o'q.  
Arava sinsa, yalqovga o'tin.  
Arpa-bug'doy osh ekan, oltin-kumush tosh ekan.  
Arslon qarisa, sichqon inini poylaydi.  
Baliq boshidan sasiydi.  
.Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi.  
Baxilning bog'i ko'karmas.  
Bemor o'ziga yoqmagan ovqatga o'ch bo'ladi.  
Betga aytganning zahri yo'q.  
Bermasning oshi pishmas,  
Pishsa ham qozonga tushmas.  
Boy topsa boshqa yer,  
Botir topsa barcha yer.  
Bir yigit qirq yilda bino bo'ladi.  
Bir kun janjal bo'lgan uydan qirq kun baraka ketar.  
Bir odam omoch bilan, yettovlon cho'mich bilan.  
Bir tovuqqa ham don kerak, ham – suv.  
Bola aziz, odobi undan aziz.  
Bola yig'lamasa, ona sut bermaydi.  
Vaqt tog'ni yemirar, suv toshni kemirar.  
Vaqtning ketdi-naqding ketdi.  
Gadoyga bir eshik yopiq bo'lsa, bir eshik ochiq.  
Gumon imondan ayirar.  
Go'sht suyaksiz bo'lmas, sholi – kurmaksiz.  
Davlat qushi qo'nsa chivin boshiga, semurg' kelar kunda uning qoshiga.  
Dalaning ko'kiga ishonma, odamning po'kiga.  
Daraxt sop bermasa, bolta kesolmas.  
Darding bo'lsa-bo'lsin, qarzing bo'lmasin.  
Devor qiyshiq bo'lsa, tez qulaydi.  
Dehqon yog'sa tinar, cho'pon o'lsa tinar.  
Dunyo yig'ib netarsan, bir kun tashlab ketarsan.  
Dushmaning sichqon bo'lsa ham, kuching arsloncha bo'lmas.  
Do'sti nodondan dushmani dono yaxshi.  
Do'stlar o'rtasida «meniki» degan gap bo'lmas.  
Yeb to'ymagan – yalab to'ymas.

Yer — xazina, suv — gavhar.  
Yo otning chiqsin, yo o'ting chiqsin.  
Yov ketsa yomon ochilar, osh pishsa qozon ochilar.  
Yov qochsa, botir ko'payar.  
Yozga yetsang, qish kuningni unutma.  
Yoli semiz eshakdan yag'ir bo'lqa ham ot yaxshi.  
Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i  
chiqmas.  
Yomonga kun ham qorong'u, tun ham.  
Yorning kamchiligi xush ko'rindi.  
Yotib yesang — tegirmon, yurib yesang — moyjuvoz.  
Yog'ochning bo'shini qurt yeydi.  
Jalada qolgan — yomg'irdan qo'rmas.  
Jar boshiga yetganda otning boshini torma.  
Jahl — dushman, aql — do'st.  
Joy berganga — jon ber.  
Joyi o'zgargan tovuq ko'p qaqaqlaydi.  
Zakotli mol o'tda kuymas, suvda cho'kmas.  
Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq.  
Zamonaning ozgani — otdan eshakning o'zgani.  
Zar qadrini zargar bilar.  
Zog'cha sigirdan qo'rqlaydi.  
Zulm eshikdan kirsa, insof teshikdan chiqadi.  
Ignat o'g'irlashga jur'at qilgan — sigir o'g'irlashga ham  
o'tadi.  
Ignat qayoqqa yursa, ip shu yoqqa yuradi.  
Ikki igna bir ipda — ikki ziqna bir yerda.  
Ikki ot tepinsa, o'rtada eshak o'ladi.  
Ikki xo'roz urishsa, tovuqlar dam oladi.  
Ilm qishda eriydi, yozda muzlaydi.  
Issiq jon isitmasiz bo'lmas.  
Issiq — suyak sindirmas, sovuq — jonne tindirmas.  
It kiyikka rahm qilsa, mushuk jo'jaga rahm qilarmish.  
It tumshug'ini tiqqani bilan — daryo suvi harom bo'lmas.  
It qo'rkoqni qopadi.  
Itning jini — devona, kelinning jini — qaynona.  
Ishqi borning — rashki bor.  
Ig'vegarning o'zi yomon, o'zidan ham so'zi yomon.  
Yig'lagan ko'zga — yosh, tilagan og'izga — osh.  
Yo'l azobi — go'r azobi.  
Yo'lbars bolasini tutmoq uchun yo'lbars uyasiga kirmoq  
kerak.  
Yo'qolgan pichoqning sopi — oltin.

Kambag‘alning saxiyligini ko‘rsa,  
Boyning baxilligi oshar.  
Kalning nimasi bor — temir tarog‘i, ko‘rning nimasi  
bor — eski tayog‘i.  
Kasal kasal emas, kasal boqqan kasal.  
Kasalni yashirsang, isitmasi oshkora qiladi.  
Kasalning kelishi oson, ketishi qiyin.  
Katta kema uzoqqa suzadi.  
Kattani katta bil, kichikni kichik.  
Kafil bo‘lma, kafansiz ketasan.  
Keksalik — ko‘prik.  
Ketmonning boshini bossang, sopi boshingga tegadi.  
Kiyimning yangisi yaxshi, do‘sning eskisi yaxshi.  
Kichkina tosh — yoradi bosh.  
Kishi yurtida shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l.  
Kishining ko‘ngli kishiga qorong‘i.  
Kosa, kosaning tagida — nimkosa.  
Kuyovni payg‘ambarlar siylabdi.  
Ko‘ngli ochiqning qo‘li ochiq,  
Qo‘li ochiqning — yo‘li.  
Ko‘z ko‘zga tushsa, yuz uyalar.  
Ko‘z — ko‘ngil oynasi.  
Ko‘z — qo‘rqoq, qo‘l — botir.  
Ko‘za kunda sinmaydi, kunida sinadi.  
Ko‘zi to‘qning o‘zi to‘q.  
Ko‘p bo‘lsa — sepla , oz bo‘lsa — epla.  
Ko‘r bo‘lsang bo‘l, ko‘rnamak bo‘lma!  
Ko‘r hassasini bir marta yo‘qotadi.  
Ko‘rgan ham armonda, ko‘rmagan ham.  
Ko‘rganni eshitgan yengar.  
Ko‘rmoq bor, yemoq yo‘q.  
Ko‘rpangga qarab oyoq uzat.  
Laylakning ketishiga boqmaydilar, kelishiga boqadilar.  
Mayda gap katta ishni g‘arq qiladi.  
Mani nafsim balodur, yonar o‘tga solodur.  
Maqtov — osh bilan non bo‘lmas.  
Mag‘lubiyat — muvaffaqiyat garovi.  
Meva o‘stirmoq oson, mevasini saqlamoq qiyin.  
Mehmon — otangdan ulug‘.  
Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas, mezondan so‘ng yoz bo‘lmas.  
Nasihat ko‘p cho‘zilsa, yomonlikka aylanadi.  
Nimani xor tutsang, shunga zor bo‘lasan.  
Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma.

Obod qilgan — obod bo'ladi.  
Ovchining zo'ri sher otar, arning zo'ri yer ochar.  
Odam — oltindan aziz.  
Oyoq charchasa, tayoq yaraydi.  
Oyda ham dog' bor.  
Oyni etak bilan yopib bo'lmas.  
Olarda sanog'i to'qqiz, berarda sanog'i o'ttiz.  
Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q.  
Olim bo'lsang — olam seniki.  
Olov so'nsa soviydi, giyoh so'lsa quriydi.  
Oltin olma, olqish ol, olqish oltin emasmi?!

Ona yurting — oltin beshiging.  
Osmon uzoq, yer qattiq.  
Ot aylanib qozig'ini topar, er aylanib yozig'in topar.  
Ot — yigitning qanoti.  
Ot mingan otasini tanimas.  
Ot tepkisini ot ko'taradi.  
Ota ibratli bo'lsa, bola g'ayratli bo'lar.  
Otang mirob bo'lsa ham, ariqni tozalab suv ich.  
Otdan ayrilsang ham, egar to'qimidan ayrılma.  
Osh kattadan, suv kichikdan.  
Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich.  
Oqin suv harom bo'lmas.  
Oqqan ariq oqmay qolmas.  
Og'a-ining totuv bo'lsa — ot ko'p,  
Opa-singling totuv bo'lsa — osh ko'p.  
Og'riq tishning davosi — ombir.  
Payti kelganda daraxt gullaydi.  
Rang ko'r, hol so'r.  
Rejasiz ish — qolipsiz g'isht.  
Sabr tagi — sariq oltin.  
Sayoq yurgan tayoq yer.  
Saxiy xor bo'lmas,  
Sochib maqtanma, yig'ib maqtan.  
Sog' olma shoxidan tushmas.  
Suv keltirgan — xor-zor, ko'za sindirgan — aziz.  
Suv ketar tosh qolar, o'sma ketar qosh qolara.  
Sut bilan kirgan — jon bilan chiqar.  
Tabib — tabib emas, boshidan o'tgan — tabib.  
Til — qilichdan o'tkir.  
Tilab olgan yomg'ir — boshga balo.  
Tiling bilan dilingni bir tut.  
Tirnog'i bo'lmasa, yo'lbars ham ojiz.

Toma-toma ko'l bo'lar, tiyinlardan so'm bo'lar.  
Tomchi toshni teshadi.  
Tor joyda osh yegandan – keng joyda musht yegan yaxshi.  
Totuv turmush – uzoq umr.  
Tuyaga yantoq kerak bo'lsa bo'ynini cho'zadi.  
Tuhmat tosh yoradi, tosh yormasa bosh yoradi.  
To'yga borsang to'yib bor, yomonliging qo'yib bor.  
To'g'ri – o'zar, egri – to'zar.  
Uzoq chaynasang, uzoq yashaysan.  
Uying tor bo'lsa ham,  
Ko'ngling keng bo'lsin.  
Uydagi gap ko'chaga to'g'ri kelmaydi.  
Umr savdosi – qiyin savdo.  
Urishsang, mard bilan urish.  
Usta ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar.  
Usta ovchi bekorga o'q otmas.  
Uchqundan qo'rqqan – temirchi bo'lmas.  
Farzand – jonga payvand.  
Folga ishonma, suvg'a suyanma.  
Xatga tushding – o'tga tushding.  
Xotinli ro'zg'or guldir, xotinsiz ro'zg'or cho'ladir.  
Xushxabarning qanoti bor.  
Xo'roz qichqirmasa ham tong otaveradi.  
Chilla suvi – tilla suvi.  
Chin do'st – tug'ishganing bilan teng.  
Chiroying borida chinoringni top.  
Chiroyli qizning nozi bor.  
Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin.  
Cho'kayotgan – cho'pga yopishar.  
Shaytonning ozdirgani-o'ziniki.  
Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.  
Sharobning ozi – dori, ko'pi – og'u.  
Sher qutursa, oyga sapchir.  
Egasini siylagan – itiga suyak tashlar.  
Egachim erga tegdi, eskisi menga tegdi.  
El og'ziga elak tutib bo'lmas.  
Elakka kirgan xotinning ellik og'iz gapi bor.  
Elchiga o'lim yo'q.  
Er so'zidan qaytmas, sher – izidan.  
Yugurganniki emas, buyurganniki.  
Yurgen – daryo, o'tirgan bo'yra.  
Yaxshi niyat – yarim davlat.  
Yaxshi so'z – jon ozig'i, yomon so'z – bosh qozig'i.

Yaxshi topib gapirar, yomon qopib gapirar.  
Yaxshidan – vafo, yomondan – jafo.  
O'z uyim – o'lan to'shagim.  
O'z qadrini bilmagan – el qadrini bilmas.  
O'zi bemalolning so'zi bemalol.  
O'zi kelgan mehmon atoyi xudo,  
Chaqirib kelingan mehmon baloyi xudo.  
O'zingda yo'q – olamda yo'q.  
O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil.  
O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa – qilig'i.  
Qadrli narsaning qadri qo'lidan ketgach bilinadi.  
Qazisan, qartasan, asli zotingga tortasan.  
Qayg'u qaritar, g'am o'ldirar.  
Qalamning uchi – qilichning kuchi.  
Qarisi bor uyning zari bor.  
Qars ikki qo'lidan chiqadi.  
Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi.  
Qassobga moy qayg'u, echkiga jon qayg'u.  
Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit.  
Qing'ir ishning qirq yildan keyin ham qiyig'i chiqar.  
Qozonda bo'lsa, cho'michga chiqar.  
Qor yog'di – zar yog'di.  
Qorni to'qning qorni ochdan xabari yo'q.  
Qornimga yig'lamayman, qadrimga yig'layman.  
Qush tilini qush biladi.  
Qush uyasida ko'rganini qiladi.  
Qadr bilmas qarindoshdan yaqindagi yot yaxshi.  
G'ayratlining yuragi qaynar,  
G'ayratsizning yuragi o'ynar.  
G'uurlilik g'urbatga solar.  
Haddidan oshgan kulgidan – yig'i yaxshi.  
Hayosizga – har kun hayit.  
Hazil, hazilning tagi – zil.  
Hamal kirdi – amal kirdi.  
Hamrohingga boqma, hamyoningga boq.  
Har gulning o'z isi bor, har elning o'z tusi bor.  
Har yerni qilma orzu, har yerda bor toshu tarozu.  
Har kim o'z qarichi bilan o'lchar.  
Hut kirdi – dehqon paytavasiga qurt kirdi.

---

## XULOSA

Milliy ma'naviyatimizga xos urf-odatlar, an'analar va qadriyatlardan iborat bo'lgan hikmatlar mustaqillik yillarida xalqimizning o'tmisht tarixini o'rganish asosida moddiy-ma'naviy madaniyatimizni yosh avlod ongiga singdirish, yoshlarni chinakam vatanparvarlik, insонparvarlik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash hamda xalqimiz ma'naviy merosini o'rganishni asosiy maqsad qilib olgan. Barkamol avlod tarbiyasida ma'naviy madaniyatimiz asosida shakllangan hikmatlarning ahamiyati beqiyos bo'lib, xikmatlarda Vatan tuyg'usi, insonni komillikkha yetaklovchi, ma'naviy yuksaklikka chorlovchi odob-axloq namunalari mujassam etilgan.

Yuksak ma'naviyatga ega bo'lish uchun har bir odam o'z axloqiy xususiyatlarni mukammallashtirishi, ajdodlar yaratgan moddiy-ma'naviy madaniyatni o'rganish asosida hikmatlardan o'rinni foydalanishi alohida ahamiyatga ega. Chunki hozirgi yosh avlod milliy ma'naviyatimiz asosida yaratilgan xikmatlarga tayangan holda mard, jasur, kamtarin, e'tiborli, adolatli, fidoiy, mehnatkash hamda Vatanni sevish, uning muqaddas tuprog'ini avaylab-asrashi uchun xalqimiz tomonidan yaratilgan hikmatlarni chuqur o'rganishi va unga amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ma'naviyatimizga xos xususiyatlardan biri yosh barkamol avlodni bosqichma-bosqich kasbga tayyorlash, jahon andozalariga mos bo'lgan ma'naviyatning ijobiylarini o'rganishga imkoniyat yaratish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiya resurslariga oid bilimlarni mukammal o'rganishi va jahon tillarini bilishi uchun hikmatlarga alohida e'tibor berishi zarur. Mustaqillik yillarida barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor berilib, yosh avlodni sog'lom va jismonan baqvavat o'sishi bilan bir qatorda zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini ham o'zlashtirishi uchun moddiy va ma'naviy imkoniyatlar to'liq yaratib berilmoqda. Yoshlarning qobiliyati va iqtidorini hisobga olgan holda kelajakda rahbarlik ma'naviyati, rahbarga xos mas'uliyat, rahbarning jamoa, xalq va oilasi oldidagi burchi, rahbarlarga qo'yiladigan talablar, uni bajarish jarayonidagi javob-

garlik bilan bog'liq odob-axloq namunalarini o'rgatish alohida ahamiyatga ega. Milliy ma'naviyatimizga oid hayot tajribalari dan kelib chiqqan holda yoshlarga rahbarga xos hususiyatlarni mukammal o'zlashtirib olish uchun nimalarga e'tibor berish kerak degan savolga javob topish uchun rahbar so'ziga e'tiborni qaratish talab etiladi. Rahbar jamoada, jamiyatda, ijtimoiy-siyosiy hayotda doimo tashkilotchi bo'lmog'i lozim, u muloyim, mehribon bo'lish barobarida jamoa ahlini qo'llab-quvvatlashi zurnur. Hozirgi kecha-kunduzda rahbar qattiqko'lligiga, qahr-g'azabiga, do'q-po'pisasiga zarurat qolmadi, balki rahbar o'zi rahbarlik qilayotgan jamoaning har bir a'zosidan o'z vazifasini puxta bajarishini talab qilishi hayot qoidasiga aylanmoqda.

Xalqimiz oilaparvar, mehnatsevar xalq bo'lib, ota-onaning burchi, farzandlar tarbiyasidagi ibrati, oilani moddiy-ma'naviy mustahkamlashda hikmatlar alohida namuna belgisidir. Ma'naviy tarbiyaning asosi bo'lgan hikmatlarning yanada boyib borishiga munosib hissa qo'shayotgan allomalar, olimlar, davlat rahbarlari, harbiy sarkardalar, sayyoqlar, shoirlar, yozuvchilar, faylasuflar, iqtisodchilar, tarixchilar, diniy-axloqiy tafakkur namoyandalarining o'z hayot tajribalaridan kelib chiqib, bayon etgan fikr-mulohazalari hozirgi davr uchun muhim qimmatga molikdir. Chunki ushbu tafakkur egalari nafaqat hikmatlarni to'playdilar, balki hikmatlarni mulohaza qilib, xolisona o'rganib, tanqidiy baholab, uni yanada boyitib, o'zlarini guvoh bo'lgan voqe-hodisalar bilan taqqoslab, yangi hikmatlarning paydo bo'lishiga hissa qo'shadilar.

Ushbu kitobda komil inson muammosi, Vatan tuyg'usi, ajdodlar an'anasiaga sodiqlik, mustahkam oila, ma'naviy yetuklik, bozor va savdo-sotiq muomalasi, tijorat madaniyati, allomalar va hikmatlar olami, diniy-axloqiy qadriyatlar, rahbar fazilati, rahbarga o'gitlar, inson odob-axloqi, ajdodlar yaratgan meros va unga avlodlar vorisligi kabi mavzular tahlil etilgan.

Milliy ma'naviyatimiz va barkamol avlod tarbiyasini o'z ichiga olgan mazkur kitob O'zbekistondagi xalqlarning o'zaro do'stligi, hamjihatligi, moddiy-ma'naviy madaniyatdagi hamkorligiga asoslanib, mamlakatimizda barkamol yosh avlodni munosib tarbiyalashga alohida hissa qo'shadi. Mualliflar kitob haqidagi fikr-mulohazalarni, takliflarni kitobxonlardan samimiy qabul qiladilar.

---

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

*Karimov I.A.* Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. Toshkent: O'zbekiston, 1995.

*Karimov I.A.* Amir Temur faxrimiz, g'ururimiz // Xalq so'zi. 1996 yil, 26 oktabr.

*Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent: O'zbekiston, 1998.

*Karimov I.A.* Olloh qalbimizda, yuragimizda: «Turkiston press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar. Toshkent: O'zbekiston, 1999.

*Karimov I.A.* Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. T.7. Toshkent: O'zbekiston, 1999.

*Karimov I.A.* Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz // Islom ziyosi o'zbegim siyosida. Toshkent: Toshkent islam universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005.

*Karimov I.A.* Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2010.

*Karimov I.A.* Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. Toshkent: O'zbekiston, 2009.

*Karimov I.A.* O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O'zbekiston, 2011.

*Abdurahmonov M.* O'zbekcha-ruscha aforizmlar lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1976.

*Abu Ali ibn Sino.* Tibb qonunlari. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993.

*Abu Ali ibn Sino.* Tibbiy o'gitlar. Toshkent: Mehnat, 1991.

*Abu Lays as-Samarqandiy.* Bo'ston ul-orifin. Toshkent: Cho'lon nashriyoti, 1992.

*Abul-qosim Mahmud Az-Zamaxshariy.* Nozik iboralar (Sharhlar muallifi va tarjimon U.Uvatov). Toshkent: Kamalak, 1992.

*Abu Iso Muhammad Termiziy.* Sunani Termiziy (hadis to'plami) / Mirzo Kenjabeck tarjimasи. Toshkent: Adolat, 1999.

*Abul Muhsin Muhammad Bakr ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon.* Toshkent: Yozuvchi, 1993.

*Al-Buxoriy.* Hadis VI. Al-jome' as sahih. (ishonarli to'plam). 4-tom. Toshkent: Qomuslar bosh tahririysi, 1992.

*Al-Buxoriy.* Hadis. Al-jome' as sahih. (ishonarli to'plam). 2-tom. Toshkent: Qomuslar bosh tahririysi. 1997.

*Al-Buxoriy.* Hadis. Al-jome' as sahih. (ishonarli to'plam). 4-tom. Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997.

*Al-Hakim at-Termiziy* va uning davri: Xalqaro ilmiy konferensiya ma'ruza matnlari bayoni. Termiz: TerDU nashri, 2004.

*Al-Hakim at-Termiziy.* Hadislarning biz anglagan va anglamagan hikmatlari. Tarjima, izohlar va muqaddima muallifi Ibrohimjon Usmonov. Toshkent: Mavarounnahr, 2006.

*Al-Hakim at-Termiziy.* Nodir masalalar. Muqaddima, tarjima va izohlar muallifi Ibrohimjon Usmonov. Toshkent: Mavarounnahr, 2007.

*Asomiddinov M.* Kiyim-kechak nomlari. Toshkent: Fan, 1981.

*At-Termiziy, Abu Iso Muhammad ibn Iso.* Sahih at-Termiziy / A. Abdullo tarjimasi. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.

*Ahmad Lutfiy.* Saodat asri qissasi. Intizor kutilgan tong. 1-qism. Toshkent: Sharq, 2004.

*Ahmedov B.* Amir Temur darslari. Toshkent: Sharq, 2004.

Barkamol avlod orzusi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1999.

Bahor bayramlari. Navro'z hikmatlari. Navro'z dasturxoni. Tuzuvchilar: A.S.Madrahimov, I.E.Xuvaytov. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1994.

*Beruniy Abu Rayhon.* O'ylar, hikmatlar, naqlar, she'rlar. To'plovchi va nashrnga tayyorlovchi Abdusodiq Irisov. Toshkent: Yosh gvardiya, 1973.

*Boymurodov N.* Rahbar psixologiyasi. Toshkent: Yangi asr avlod, 2007.

Buxoriy Muhammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari) / Tarjima, muqaddima va izohlar muallifi Sh.Boboxonov. Toshkent: O'zbekiston, 1990.

Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis: Al-jomi' as-sahih / Ishonarli to'plam / 1-tom. Tarj. Z.Ismoil. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1997.

Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis: Al-jomi' as-sahih / Ishonarli to'plam /. II tom. Xoja Muzaffar Nabixon o'g'li va Xoja Baxtiyor Nabixon o'g'li tarjimasi. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1997.

*Bo'tayev Sh.* Oqilona hayot kechirish. Qoida va qonunlar, oqibatlar. 1-kitob. Toshkent: Fan, 2008.

*Bo'tayev Sh.* Oqilona hayot kechirish. Qoida va qonunlar, oqibatlar. 2-kitob. Toshkent: Fan, 2008.

*Bo'riyev O.* Xoja Ahror zamondoshlari // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. №4 (37-81). 2005 yil. 21 yanvar.

*Burhoniddin al-Marg'ioniy.* Xidoya. 1-jild. Toshkent: Adolat, 2000.

Valixo'jayev, Boturxon. Xoja Ahror tarixi: (Samarqand va samarqandliklar). Toshkent: Yozuvchi, 1994.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri). / O'zbekistonning yangi Qonunlari. 19-son. Toshkent: Adolat, 1998.

*Vohidov Erkin.* Shoimu she'ru shuur: Adabiy esselar. Toshkent: Yosh gvardiya, 1987.

- Dehlaviy Amir Xusrav. Hikmatlar* (Tuzuvchi vaa tarjimon Sh.Shomuhamedov). Toshkent: Yosh gvardiya, 1973.
- Jaloliddin Mirzo. Termiz sayyidlari*. Samarcand-Termiz, 2001.
- Jomiy Abdurahmon*. Bahoriston. Toshkent: Yozuvchi, 1997.
- Jo'rayev B., Tursunov S.* Mahalla – mustaqil yurt tayanchi. Toshkent: Muhrir, 2012.
- Zoirov E. Maxdumi A'zam*. Toshkent: ABU MATBUOT – KONSALT, 2011.
- Zunnun N., Zunnunov N.* Donishmandlar odob-axloq to'g'risida. Toshkent: O'qituvchi, 1986.
- Imom at-Termiziyy*. Shamoili Muhammadiyya. Toshkent: Mehnat, 1991.
- Ibrohimov A.* Bizkim o'zbeklar. Toshkent: Sharq, 1999.
- Ibrohimov A., Sulthonov X., Jo'rayev N.* Vatan tuyg'usi. Toshkent: O'zbekiston, 1996.
- Imom Ali ar-Rizo*. Lu'lul' ul-maknun (Yashirin maryaridlar). Forsiydan Mahmud Hasaniy tarjimasi. Toshkent: Majnuntol, 1991.
- Isaqova Z.* Buddaviylik. Toshkent: Fan, 2009.
- Isaqova Z.* Najmuddin Kubro. Toshkent: ABU MATBUOT – KONSALT, 2011.
- Isaqova Z.* Mashrab. Toshkent: ABU MATBUOT – KONSALT, 2011.
- Islom. Ensiklopediya: A-H. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediya Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
- Komilov Najmuddin*. Tasavvuf. Toshkent: Yozuvchi, 1996.
- Ma'nnaviyat yulduzlar: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). To'ldirilgan qayta nashri. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
- Mashriq zamin – xikmat bo'ston. Toshkent: Sharq, 1997.
- Mahmudov M.* Ahli dil. Toshkent: O'qituvchi, 1997.
- Mahmudov E.* Qalb tug'yonlari. Termiz: Jayhun, 1998.
- Ming bir hadis. Toshkent: O'zbek maskani, 1991.
- Mirzayev T., Sarimsoqov B.* O'zbek xalq maqollari. A-O. I-tom. Toshkent: Fan, 1987.
- Mirzayev T., Sarimsoqov B.* O'zbek xalq maqollari. P-H. II-tom. Toshkent: Fan, 1988.
- Mubashshir Ahmad*. Qur'oniy duolar. Toshkent: Yozuvchi, 1997.
- Murtazoyev B.* Ilm – haqiqatdir, haqiqat – esa ilmdir // Tafakkur. – 2009. – № 1. – B. 78–80.
- Murtazoyev B.* Al-Hakim at-Termiziyy hikmatlari // Al-Hakim at-Termiziyy hayoti va merosi. O'zbek kurashi tarixi, taraqqiyoti va istiqbolulari. Xalqaro ilmiy konferesiya materiallari. 1-qism. Termiz: TerDU nashri, 2009. – B. 11–15.
- Murtazoyev B., Valiqulov Yu.* «Manozil ul-ibod min al-iboda» asari mundarijasiga doir // Al-Hakim at-Termiziyy hayoti va merosi. Shu manba. – B. 37–42.
- Murtazoyev B.* Alloma merosining O'zbekistonda o'r ganilishi // Al-Hakim at-Termiziyy hayoti va ijodiy faoliyati. Yosh avlodni tarbiyalashda kurashning o'rni va ahamiyati. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Termiz: TerDU nashri, 2011. – B. 98–102.

- Murtazoyev B.* Hikmatlar olamida // Shu manba. -B. 105-108.
- Musurmonova O.* Oila ma'naviyati – milliy g'urur. Toshkent: O'qituvchi, 1999.
- Navoiy Alisher.* Asarlar. 15 tomlik. 13-tom. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.
- Navoiy Alisher.* Asarlar. 15 tomlik. 14-tom. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.
- Navoiy Alisher.* Asarlar. 15 tomlik. 15-tom. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.
- Olimat ul-Banot.* Muosharat odobi. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi T. Ziyoyev. Toshkent: Mehnat, 1991.
- Omunturdiyev A.* She'rga aylangan rivoyatlar. Toshkent: Retush xususiy korxonasi, 2004.
- Omunturdiyev J.* Al-Hakim at-Termiziy ta'limoto. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2000.
- Omunturdiyev J.* She'rga ko'chgan tuyg'ular (She'rlar, muvashshahlari, to'rtliklar). Termiz: TerDU nashri, 2011.
- Oripov Abdulla.* Ehtiyoj farzandi: Adabiy maqlolalar. Toshkent: Yosh gvardiya, 1988.
- Otaxo'jayev A T.* Abu Ali ibn Sino. Toshkent: ABU MATBUOT – KONSALT, 2011.
- Ochilov E.* Alisher Navoiy. Toshkent: ABU MATBUOT – KONSALT, 2011.
- Payg'ambarimizni yig'latgan hodisalar. Toshkent: Movarounnahr, 2005.
- Rustamov A.* So'z xususida so'z. Toshkent: Yosh gvardiya, 1987.
- Saroyi Sayfi.* She'rlar. Guliston. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1968.
- Tafakkur gulshani.* Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
- Amir Temur o'gitlari. Tuzuvchilar: B.Ahmedov, A.Aminov. -Toshkent: Navro'z, 1992.
- Turdiyev T.* Denov tafakkur charog'lari. Toshkent: Universitet, 2010.
- Tursunov S.* Termiziy buyuk siymolar. Toshkent: Sharq, 2002.
- Tursunov S., Qobilov E., Murtazoev B. va boshq.* Surxondaryo tarixi. Toshkent: Sharq, 2004.
- Tursunov S. va boshq.* Surxondaryo – etnografik makon. Toshkent: Akademnashr, 2012.
- To'ychiboyev B., Qashqirli Q.* Zominning til qomusi. Toshkent: Akademnashr, 2012.
- Usmonov I.* «Navodir al-usul» hikmatlari. Toshkent: Fan, 2009.
- Faxruddin ibn Rizouddin.* Tarbiyali xotun. Tarj. Va nashr. Tayyorlovchi T. Ziyoyev. Toshkent: Mehnat, 1991.
- Faxruddin ibn Rizouddin.* Nasiyat / Tarj.: T.Ziyoyev/. -Toshkent: Cho'lpon, 1993.
- Xoja Samandar Termiziy.* Dastur ul-muluk (Podshohlarga qo'llanma). -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1997.

---

---

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
Ma'naviyat va dunyoqarash.....	5
Komil inson – oqilona hayot garovi.....	12
Vatan tuyg'usi – inson ma'naviyati beshigi.....	20
Ajdodlar an'anasi .....	28
Mustahkam oila – jamiyat ko'rki .....	38
Bozorlarimizga xos odob-axloq hikmatlari .....	49
Til, ilm, she'riyat hamda ma'naviy komillik .....	53
Allomalar bisotidan.....	65
Rahbarga xos fazilatlar va o'gitlar .....	73
Milliy ma'naviyat va insoniy qadriyatlar.....	93
Hikmatlar durdonasi – milliy ma'naviyatimiz poydevori .....	97
Xulosa .....	105
Foydalilanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.....	107

**Tursunov, Sayfyllo**

T 91 Milliy ma'naviyat va barkamol avlod tarbiyasi / S. Tursunov, B. Murtazoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 112 b.

1. Murtazoyev B.

ISBN 978-9943-01-886-0

УДК: 37.017.92(575.1)  
ББК 87.60(50')

*Ilmiy-ommabop nashr*

**Sayfullo Tursunov, Bobonazar Murtazoyev**

**MILLIY MA'NAVIYAT VA BARKAMOL  
AVLOD TARBIYASI**

Muharrir *I. Ahmedov*

Badiiy muharrir *H. Mehmonov*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Musahhih *Sh. Oripova*

Kompyuterda tayyorlovci *G. Qulnazarova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.09.

Bosishga ruxsat etildi 03.01.2013. Qog'oz formati 84×108<sup>1</sup>/32.

«Peterburg» garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli b.t. 5,88. Nashr t. 6,69. Adadi 1000 nusxa.

Buyurtma № 13-5.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O'zbekiston» nashriyot-Matbaa ijodiy uyi.

100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)